

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI
«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

MAVZU: “BUXORO SHARQ DURDONASI” MAVZUSIDA
KOMPOZITSYA BAJARISH (RANGTASVIRDA)

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

Bajardi: Kasb ta'limi (Tasviriy san'at)

ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi R.J.Yodgorova

Ilmiy rahbar:

O'qituvchi N.J.Yodgorov

Bitiruv malakasi ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi «_____» _____ 20.... yil

BUXORO – 2020 yil

MUNDARIJA

Summery.....	3
Introduction.....	5
Kirish. O`zbekistonda rang tasvirning rivojlanish tarixi.....	6

I. BOB MANZARA KOMPOZITSIYASINI BAJARISH

1.1 Manzar janri xususida.....	11
1.2. Manzara ishlash texnologiyasi.....	29
1.3.O`zbekiston me`morchilik san`ati.....	42

II.BOB O`ZBEKISTON MADANIY ME`ROSNING O`ZIGA XOSLIGI

2.1 Buxoro tarixiy yodgorliklari.....	49
2.2.Buxoro manzara kompozitsiyasini ishlagan rassomlar.....	55
2.3. Moybo`yoq texnikasida manzara ishlash.....	63
2.4.Me`moriy obidalar aks ettirilgan kompozitsiya bajarish.....	73

III. BOB. TARIXIY OBIDALARNI TASVIRLASHDA IJODIY JARAYON MOHIYATI VA BOSQICHLARI

3.1 Kartina bajarishda manzarani kuzatish va o`rganish.....	90
3.2 Tasvirlashda ijodiy jarayon mohiyati va uning asisiy bosqichlari.....	96
3.3 Kompozitsiyani bajarishda moy bo`yoq texnologiyasi.....	104
3.4 Buxoro tarixiy obidalar kompozitsiyasini bajarish bosqichlari.....	106
Хулоса.....	109
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	113
Tasviriy san`atda ishlatiladigan atamalar va iboralarining izohli lug'ati.....	115

Summery

Bukhara is one of the pearls of the Great Silk Road. At ancient times more than 60 caravan-sarais could be found here providing lodging for the traders from India, China, Iran and other countries. Bukhara remained a blissful oasis, a huge scientific and cultural center on the Great Silk Road. Evidence of the fact that the city was situated on the crossroad of caravan roads, are the domes belonging to the 15th _ 16th centuries such as Toki Sarrafon (the domes of moneychangers), Toki Telpak Furushon (the dome of headwear sellers), Toki Zargaron (the dome of jewelers) which remain preserved today.

The Great Silk Road is a unique phenomenon of the history of the development of a civilization, its aspiration towards exchange of cultural values, conquest of living space and development of trade.

This largest transcontinental trade path in the history of humanity had been connecting Europe and Asia and in ancient times used to stretch from Rome to the ancient capital of Japan Nara.

It is important to note that this road was never the only path, instead had included various routes which branched off like a crown of a mighty tree. As a matter of fact, one of the main roads crossing Asia from east to the west had its beginning in the capital of ancient China Changan and tracked up to its north-west borders. Having ferried over Tyan-Shan, part of the caravans passed through Fergana Valley and Tashkent oasis to Samarkand, Bukhara, Khorezm and further to the Caspian and Black Sea shores onto the countries surrounding Volga and Caucasus.

Establishment of trade links is significantly attributed to the development of semi-precious stone quarries in the mountains of Central Asia which enabled the mining of lazurite, nephritis, cornelian and turquoise.

As the name signifies, the main object that was traded on caravan roads was silk, highly sought around the world. For instance, in early Middle Ages silk was the most popular measure of computation forcing out even the gold. As follows, in

Sogdiana the price for a horse was equivalent to the price for ten cuts of silk. Silk was the currency for the accomplished work, for the maintenance of servants and silk could be used to pay off the punishment for committed crimes.

The Venetian merchant Marco Polo had first called these caravan routes as "silk roads", also being the first European who had reached the borders of the Chinese Empire. The term "The Great Silk Road" had been introduced into the lexicon in 1877 by the German researcher Ferdinand Richthofen in his fundamental work "China".

The Great Silk Road was not only the trade path for the caravans but had also been the route for the spread of cultural achievements of various nations, their intellectual values, and religious beliefs. Finally, throughout many centuries hundreds of world famous scientists, researchers and warriors had traveled on these caravan roads.

Special long-term program which includes proposals about the renaissance of the historical heritage has been created in cooperation with UNESCO. In 1994 Samarkand's declaration "Renaissance of the Great Silk Road" has been adopted.

Introduction

Рейзаш (fr. Paysage, from pays - a country, terrain) - a genre graphic arts (as well as separate product of this genre), in which main subject of the scene is primordial, or in one or another degree transformed person a nature. The Modern beliefs about landscape ed on length century with development artistic acceptance for his(its) scenes. In landscape product special importance is added building of the prospect and compositions of the type, issue of the condition of atmosphere, air and light ambience, their variability.

The Landscape - relatively young genre painting. The Age images natures appeared only as scene of the ambience of обитания personages, as window dressing for icons, for scenes genre plot and portrait subsequently.

THE LANDSCAPE - a word, which marks, except the general type of terrain and descriptions of the nature in literature, one of the genres graphic arts. The Subject of the landscape - terrain (from fr. landscape - "terrain", "country"), surrounding ambience, natural or transformed person nature (the land with her(its) landscape, type of the mountains, rivers, flap, wood), city and rural terrain. Accordingly distinguish natural, rural and town (architectural, industrial and others) landscapes. In natural select the seascape ("марина", but artist, expressing sea, name "painter of seascapes") and cosmic, astral - a scene celestial space, stars and planets. The Special place in town landscape occupies ведута - a documentary exact scene. In narrow and строгом sense follows to distinguish the landscape and landscape scene. The Landscape - "portrait" scene натурного type, that that there is that real exists. This as it were picturesque or graphic "фотоизображение". It individually and inimitable, his(its) possible, deform, but it is impossible придумать, сочинить. Unlike it landscape scene - any written by means of imaginations landscape types. The Term "landscape" usually means either or both of them.

The Landscape - not simply scene, but always artistic image natural and town ambience, her(its) determined interpretation that finds its expression in historically being replaced style landscape art.

Kirish.

O'zbekistonda rang tasvirning rivojlanish tarixi

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq an'alarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Ta'lim sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ta'limni yanada rivojlantirish, uning darajasini zamonaviy bosqichga ko'tarishdan iborat. Yosh avlodni ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash asosiy maqsadimizdir. Zero, muhtaram prezidentimiz SH. Mirziyoyev 2018-yil 17 iyul kuni umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda "Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi. Makatabgacha ta'lim va oiliy ta'lim tizimlari bilan uzviylikni ta'minlashga ham e'tibor berish **kerak**", - deb ta'kidlaganlari diqqatga sazovor. Jumladan, Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan kadrlar ta'yorlashning asosiy g'oyasi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Barkamol shaxsning muhim sifatlari bo'lgan **mustaqil va ijodiy fikrlash**, mustaqil ishlay olish qobiliyatini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim maktabining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish dars mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktabining chizmachilik ta'limi jarayoni o'quvchilarni hayotga kasb hunarga tayorlashda va ixtirochilik

faoliyatini shakllantirishda muhim o'ringa ega. Shuningdek, tasviriy san'atning o'rni ham benihoyat kattadir. Zero, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda estetik didni shakllantirish bevosita tasviriy san'at ta'limining ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Tasviriy san'at asarlari kishilarning his-tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Ayniqsa, manzara asarlarini tomosha qilish bilan insonlar, unda tasvir etilgan go'zallikni ko'rib, qalblariga go'zallik kirib boradi, tabiatga mehr-muhabbati ortadi.

Tasviriy san'atning manzara janri asarlarida ona-yurtning go'zal va betakror, ulug'vor hamda epik obrazi gavdalanadi. Manzara asarlari inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ma'naviy ozuqa berish bilan birga, ona-yurtning moddiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatadi, ularni avlodlarga bekamu-ko'st yetkazish zarurligi g'oyasini singdirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda manzara asarlarining ahamiyati kattadir. "Tasviriy" atamasi "tasvirilash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, yog'och shuningdek, boshqa badiiy va tashlandiq materiallar yordamida har xil obrazlarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, halqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va hayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Shu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlaridagi xunuk voqealar, harakatlarni ko'rish orqali ulardan jirkanadilar. Ayniqsa, tarixiy janrdagi san'at asarlarini tomosha

qilganda o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsalar, kishilar hayoti, mehnat va jang qurollari, ularning kiyimlari, urf-odatlar bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanishish va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va xodisalarni kishilarning tafakkuri va xissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishidir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Eng muhimi san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, Shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotsional ta'sir ko'rsatish kuchiga ham egadir.

Tasviriy san'atda manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy animal, afsonaviy, marina, nyu, interer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirleyotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa "Portret" tabiat va shahar ko'rinishlari tasvirlansa "Manzara", hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa "Turmush" janriga xos bo'ladi.

Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janrga, xayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort nyu janrlari ham bo'ladi.

"Animal" janri lotincha "anima" so'zidan kelib chiqan bo'lib xayvon ma'nosini anglatadi. "Batal" janri esa fransuzcha "batay" so'zidan kelib chiqan bo'lib jang,"NYu" janri fransuzcha bo'lib yalang'och ma'nosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo'ladi. Masalan, portret va nyu marina va manzara v. b. Har bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo'lish mumkin. Vaqt o'tishi bilan

janrlar tabaqalashib, mustaqil tus oladilar. Masalan, manzara janridan marina, tarixiy janrdagi batal janri ajralib chiqanlar.

Mavzuning dolzarbligi

Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi tasviriy va amaliy san'atining rivojlanishini oshirish, usta hunarmandlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi PF-1714 sonli badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab - quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1977-yil 4-iyun 282 – sonli qarorida o'z aksini topgan. Farmon hunarmandlar va amaliy san'at ustalari uchun o'z vaqtida qabul qilingan eng muhim xujjat va kelgusi ishlarni yanada rivojlantirishga dastur amal bo'ldi. Shuningdek farmonda yana “san'atning noyob turlarini va buyumlarining yuksak badiiy nusxalarni tayyorlashda an'analarni saqlab qolish, hamda bu ish ko'nikmalarini yoshlarga singdirish masalalari ko'rildi. Mohir ustalarni tayyorlash bo'yicha maxsus “Ustoz - shogird” maktablarini tashkil qilish” bayon etilgan. Shu qatorda amaliy san'at bo'yicha badiiy to'garaklar tashkil etib, amaliy san'atimizga qiziqqan yoshlarni jalb qilib o'rgatish ustuvor vazifa bo'ldi. Hozirgi kunda tasviriy san'at turlarigan manzara janrida, rassomlar va pedagog rassomlar tomonidan bir qator ijodiy ishlar olib borilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini o'rganish jarayonida, bir qator ijodkor ustalar qoldirgan ijodiy ishlardan namunalar, san'atshunos-metodistlar qalamiga mansub adabiyotlar bilan tanishib chiqdim.

Bunda tasviriy san'atning barcha janrlarini yanada rivojlantirishda, haqida aytib o'tilgan.

O'zbekistonning buyuk pedagog - rassomlari olib borgan ish texnikasini asos qilib olish, mavzusini tanlashimga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda mamlakatimizda va undan tashqarida xalqimizning boy va betakror badiiy boyligiga va milliy qadriyatlariga, qolaversa o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy hayotida, hozirgi madaniyatning rivojlanishi uchun asos bo'lgan.

Tanlangan mavzuning muhimligi shundan iboratki, mashhur manzarachi rassomlarning sirlarini mukammal o'zlashtirib, bu hunarni san'at darajasiga ko'tarishdir.

Tadqiqot maqsadi: va vazifasi:

Mazkur bitiruv malakaviy ishi tasviriy san'at janrlaridan biri hisoblangan "Manzara" janri haqida bo'lib, barcha "Tasviriy san'at" fani o'qituvchilari, umumta'lim maktablari va to'garak o'quvchilarining ushbu san'at sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, kelajakda yoshlarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar asosida voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yadi. Bitiruv malakaviy ishning yozilishidan asosiy maqsad – tasviriy san'at janrlarini o'rganib chiqib, qadimgi Buxoroning qadimiy obidalari haqida kerakli ma'lumotlar olishdir.

Tadqiqot vazifasi: Maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator aniq vazifalar qo'yilgan

- Manzara chizishning nazariy asoslari;
- Manzara chizish jarayonida perspektiva;
- Manzara kompozitsiyasi;
- Manzara janrida ijod qilgan rassomlar;
- Tasviriy san'atda manzara janrining ahamiyati;
- Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanish.
- Ijodiy ishning bajarilishiga ham tavsif berish.

Tadqiqot ob'yekti: Oliy ta'limda tasviriy san'at faninig o'rganish jarayoni. Buxoroning qadimiy me'moriy obidalari.

Tadqiqot predmeti: Tasviriy san'at turlaridan rangtasvirdagi manzara janrida ijod qilayotgan rassomlar ishlarini o'rganish va tahlil qilish va amalda qo'llash.

Tadqiqotning metodlari:

Mazkur vazifani hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy ta'limga dahldor qo'yidagi hujjatlari o'rganildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".

Mavzuga oid psixologik –pedagogik adabiyotlar tasviriy san’at ga oid o’quv qo’llanmalar o’rganildi va tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy fazasi:

Manzara janrida ijod qilgan va qilayotgan rassomlar ishlari orqali tasavvur, idrok, manzara chizish texnikasi texnologiyasini organish mumkin.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Manzara chizish orqali fazoviy tasavvur,estetik didni rivojlantirish usullari;
2. Manzara chizishda manzara kompozitsiyasi, manzarada ranglar uyg’unligi, idrok qilish.

Ilmiy yangilik:

1. Manzara kompozitsiyasi, manzara janrida ijod qilgan rassomlar, tasviriy san’atda manzara janrining ahamiyati o’rganildi;
2. Manzara chizishning nazariy asoslari, manzara chizish jarayonida perspektiva ko’rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Nazariy tadqiqot natijalari tasviriy san’at ta’limi uchun yangi materiallar ishlab chiqishga imkon beradi. Natijalardan o’rta maxsus ta’lim jarayonida foydalanish mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi:

Kirish, ikki bob, bo’limlar, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, ilovalar mavjud.

I Bob. Manzara kompozitsiyasini bajarish.

1.1. Manzara janri xususida.

Tasviriy san’atda manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy animal, afsonaviy, marina, nyu, interer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirleyotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa “Portret” tabiat va shahar ko’rinishlari tasvirlansa “Manzara”, hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa “Turmush” janriga xos bo’ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janrga, xayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort nyu janrlari ham bo’ladi. “Animal”

janri lotincha “anima” soʻzidan kelib chiqan boʻlib xayvon maʼnosini anglatadi. “Batal” janri esa fransuzcha “batay” soʻzidan kelib chiqan boʻlib jang,”NYu” janri fransuzcha boʻlib yalangʻoch maʼnosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub boʻladi. Masalan, portret va nyu marina va manzara v. b. Har bir janr oʻz oʻrnida yana bir qancha janrlarga boʻlinishi mumkin.

Masalan tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga boʻlish mumkin. Vaqt oʻtishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus oladilar. Masalan, manzara janridan marina, tarixiy janrdagi batal janri ajralib chiqanlar.

Manzara janri.

Tasviriy sanʼatda tabiat, shahar, industrial, interer koʻrinishlarin tasvirlanishi manzara janrga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy koʻrinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan boʻladi. Baʼzan bu ikki hol bir asarda boʻlishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo boʻlishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollari misolida koʻrish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni-Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan.

Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda VI asrda paydo boʻlgan. Evropa sanʼatida esa Oʻygʻonish davrida ilmiy asosda yaʼni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi boʻlib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilga rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni ko'rsatish mumkin. Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perespektiva qonunlari asosida intererni tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janirining ikkinchi bir ko'rinishi bu marina janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviriy san'atida munosib o'rinni egalladi. Marina janridagi asarlar boshqa janrdagi asarlar bilan birgalikda ham ifodalanadi. Masalan, portret, manzara, tarixiy, turmush v.b. Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning relef turida ishlatiladi. Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi

Manzara tarixi.

Barcha san'at turlarida bo'lgani kabi tasviriy san'at ham, (rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik) o'z ichida har xil janrlarga ajraladi. Janrlarga ajratish rangtasvirda yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'at asarlarini janrlarga ajratishda, odatda, rasmda nima tasvirlanganligi asos qilib olinadi. Shunga ko'ra, rangtasvir asarlarini peyzaj (tabiatni tasvirlash), natyurmort (narsa-buyumlar tasviri), portret (inson tasviri), syujetli-mavzuli kartina (hayotiy voqealarni tasvirlash) kabi janrlarga ajratish mumkin. Tasviriy san'atning qalamtasvir (grafika) turi ham shu tarzda janrlarga ajratiladi.

“Peyzaj” fransuzcha soʻz boʻlib “tabiat” degan maʼnoni anglatadi. Tasviriy sanʼatda tabiatni real yoki xayoliy koʻrinishlarini aks ettirishga bagʻishlangan asar peyzaj yoki manzara deyiladi. Manzara qalamtasvir yoki haykaltaroshlikda ham yaratilishi mumkin. Biroq, manzara janrining imkoniyatlari rangtasvir sanʼatida har tomonlama, toʻlaligicha oʻz ifodasini topadi. Manzara janrining paydo boʻlishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq davlatlari hududida va Krit orollarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar misolida koʻrish mumkin. Tabiat manzaralarini aks ettirish Xitoy rassomlik sanʼatida VI asrda paydo boʻlgan. Evropa sanʼatida manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab rivojlandi. U, ayniqsa, golland rangtasvir sanʼatida keng tarqaldi. Shuni qayd etib oʻtish kerakki, to XVII asrgacha tabiat manzarasi koʻrinishlari faqat mavzuli Surat yoki portretlar uchun fon vazifasini oʻtagan. Manzara janri mustaqil janr sifatida shakllangan boʻlsa-da, unda baʼzan inson obrazini ham uchratish mumkin. Biroq, manzara kompozitsiyasida inson tasviri, shuningdek, kichik voqeaviy sahnalar hal qiluvchi rol oʻynamaydi, balki manzarani toʻldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi. Kamil Koroning “Pichan tashish”, A.Plastovning “Birinchi qor”, Oʻ.Tansiqboevning “Issiqkoʻl oqshomi” kartinalarida shu holni kuzatish mumkin. Tasviriy sanʼat asarlarida, jumladan, manzara janrida yaratilgan asarlarda rassomning borliqdan olgan taassurotlari, voqealikka gʻoyaviy-hissiy munosabati ham aks etadi.

Tabiat manzaralari tasvirida rassomning dunyoqarashi, tabiatni idrok etishining ijtimoiy-tarixiy, milliy va uslubiy xususiyatlari oʻz ifodasini topadi.

Shunga koʻra, mashhur rassomlarning asarlarida manzara motivlarining ulugʻvor-romantik Shishkinning “Oʻrmon uzoqliklari” kartinasi), lirik (A.Savrasovning “Qora qargʻalar uchib keldi” kartinasi) yoki ijtimoiy-falsafiy (I.Levitanning “Mangu uyquda” kartinalari) talqinlarini uchratish mumkin.

Peyzaj janri o'zining ichki bo'linishi – janr ko'rinishlariga ham ega bo'lib, bular qishloq manzarasi, shahar manzarasi, industrial peyzaj va peyzaj-marina ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Rangtasvirda moybo'yoq texnikasi

Tag romning mato tortiladigan tarafi iya ilinadi, chunki mato tortilganda ozro masofa salansa, keyinchalik matoga yelim surtilganda tag rom taxtachaga yopishib olmaydi. Bundan tashari, ar bir tag romning ichki tarafi burchaklarida pona bo'lishi kerak (rasmdagi shakldagiday). Buning uchun pona eni ajmida kesim shakli o'yiladi, tag rom burchaklariga vatincha DSP dan uchburchak oiladi va mato tortiladi. Shundan so'ng vatincha oilgan uchburchak yechib olinadi va burchaklarga atti yoochdan yasalgan pona yengil oiladi. Tag romga ziir ipli mato tortish uyidagicha amalga oshiriladi. Tag rom taxtachalari bir-biriga ulanib, to'ri burchak- lari 90°C ni tashkil etgandan so'ng, mato tag romdan 5 sm katta ajmda kesiladi va uning o'rta ismiga bir mix urila- di (mixning nomi «teks») va matoni tarang tortib, ara- ma-arshi tarafiga am mix uriladi. To'rt tarafiga matoni tarang tortib mix urgach (mix oralii 4 sm dan oshmasligi kerak), burchaklariga arab matoni tarang tortiladi va mix urib boriladi. So'ngra burchaklariga am mix urib, uchbur- chaklarni vatincha yechib, pona oiladi. Chunki pona matoni yanada tarang ilib tortadi.

Taxta

XVI—XVII asrlarga adar taxta atti asos turi bo'lib, tag asos uchun asosiy material isoblangan, amalda yooch- ning barcha turlari o'llanilgan. Pliniyning yozishicha, Misr- da yono, kinaris, kedr daraxtlari ishlatilgan. Leonardo da Vinchi o'z asarlarida kiparis, lipa, nok, Rembrandt esa izil daraxt, kranax, eman, buk daraxtlaridan foydalanganlar.

Italiyaning janubidagi rassomlar terak, kashtan, yono; Ni- derland rassomlari eman, buk, araay; Rossiya rassomlari lipa, o ayin, olxa va yoochning bosha turlarini o'lla- ganlar.

Yog'och tuzilmasi va tarkibi


Yoochning o'zak ismi va po'stlo tomoni yarosiz isoblanadi. Yoochni ko'ndalang ilib bir xilda arrada kesilgan ismi keyinchalik iyshayadi, egik olat paydo bo'ladi. Yoochning o'rtasidan kesish masadga muvofiq isoblanadi.

Yochoga ishlov berishdan masad:

- 1) iyshayib ketmasligi uchun;
- 2) yorilib ketmasligi uchun tabiiy ravishda uzo uritiladi;
- 3) chirimasligi uchun yoochni asalari mumiga shimdirilgan.

Yoochning ikki-uch taxtasi bir-biriga yopishtirilgan, bunda ayvon yelimlari o'llanilgan, ko'pro kazeinli yelim ishlatilgan.

XV asrda Shimolda Gildiyalar (uyushma) tashkil etilgan, yaxshi ishlov berilgan



taxtaga Gildiyaning muri bosilgan. Rassom ishini tugatgandan so'ng ikkinchi mur o'yilgan. **Yoochga ishlov berish** Shimoliy iyalikda o'sgan va ishda kesilgan daraxtdan yaxshi taxta olingan.

Daraxt suvda ushlab turilgan, keyin suvda va moyda (300°C) aynatilgan. Taxtalarning ajmi tez isaradi, shuning uchun yaxshi uritish shart. Keyingi retseptlardan taxtani moyda va olifda aynatilgan, keyin turli kimyoviy eritmalar bilan shimdirilgan.

Ijobiy tomoni: agar taxta-yooch kichik ajmli va yaxshi ishlov berilgan bo'lsa, u uzo vat salangan bo'ladi.

Salbiy tomoni: uning o'lchami chegaralangan. Misol: Rubens ishlarining vertikal tarafi 5 metrgacha bo'lgan. Yooch o'pol va oir, ishlov berish murakkab, chirish va yooch o'nizlariga yem bo'lish etimoli bor. Salbiy olatlarni e'tiborda tutib, imoya choralari o'llash zarur bo'ladi.

Fanera Hech qanday fanerani rangtasvir uchun tag asos sifatida ishlatib bo'lmaydi, agar u bakelitli bo'lsa am. Chunki u iyshayadi va do'ppayadi, keyinchalik ta'mirlash am juda murakkab. **Zamonaviy atti tag asos turlari.**

Yog'och ipii plitasi (DSP)

DSP ning o'lchami 5 metrgacha, alinligi 2—3 sm dan 1,5—3 sm gacha bo'ladi. Uning afzal tomoni parketaj am kerak emas. U arzon, destruktiv material, namlikka va issi- sovua chidamli, ishlov berish am kerakmas, ajmi katta.

Kamchiligi: 1. Burchaklari kutilmagan zarbaga chidamsiz. DSP taxtani chetlariga yoochdan imoya sifatida xoshi- yalash kerak. Namlikdan salash uchun: asalari mumi erit- masi, ayno olifa, izdirilgan moy surkab, shimdirish kerak.

Orgalit yoki presslangan karton

Plitaning o'lchami: alinligi 3x5 mm, kattaligi 3x1 metr bo'ladi. Rangi och kulrang, jigarrang bo'ladi. Rangtasvir uchun yaxshi tag asos isoblanadi. Rossiyada rassomlardan: D. Ji- linskiy, T. Fyodorova va boshalar uni 30—40 yildan beri tag asos sifatida ishlatib kelyaptilar.

Ijobiy tomoni: DSP — bauwat, yengil arralanadi, yaxshi salanadi, yengil gruntlanadi, iyshaymaydi.

Kamchiligi: iroini sinishdan salash uchun tag rom tayyorlab, uni mato bilan orgalitga yopishtirib o'rnatiladi. Namlikdan salash uchun: moy, mum, asalari mumi va olifa surkab, shimdiriladi, universal imoya — bu asalari mumi.

Karton

Karton o'shimcha material isoblanadi. Uni etud, eskiz uchun ko'pro ishlatiladi.

Ijobiy tomoni: yengil, ixcham, arzon material, yengil gruntlanadi, eng yaxshisi flnlar kartoni.

Kamchiligi: grunt surtganda egilib iyshayadi, burchaklari sinadi, suvda bo'kadi, kichik o'lchamda bo'ladi.

Kartonni yetuk rassomlar yordamchi sifatida o'llagan- lar, bular I.Y. Repin, S. Gerasimov, N. o'ziboyev va boshqalar.

Salash natijasi juda past, namlikdan salash uchun maxsus asalari mumi (vosk) o'llaniladi. Agar o'lchami katta bo'lsa, maxsus tag asos zarur bo'ladi.

Qog'oz

Qog'oz latta va daraxtdan tayyorlanadi, ooz moyli rangtasvir uchun XVIII asrdan boshlab, asosan, eskizlar va etudlar uchun ishlatilgan. Amalda rassomlardan A. Ivanovning etudlari, K. Korokorin, I. Levitan va boshalarning ishlarini misol ilib ko'rsatish mumkin.

Afzalligi: Kartondan puxta, bauwat, o, yengil material grunt ilma am bo'ladi, arzon, kartondan yaxshi salaydi.

Kamchiligi: o'lchami chegaralangan, mexanik zarbaga chi- damsiz. oidaga ko'ra ooz matoga yoki kartonga dubilla- nadi.

Mato

Rangtasvir uchun mato o'simlik poyasi va tola yigirilgan ipdan to'iladi. Asosan, yigirilgan ipning mustakam va chidamliligi rangtasvir uchun to'ri keladi. adimdan ishlatib ke- lingan, yigirilgan ip matosining turlari: ziirli, penkali, jutli (indiston kanopi). Rossiyada va o'zbekistonlik rassomlar asosan, ziirli matodan foydalanishadi. Chunki ziir tolasi juda am bauwat bo'ladi, jutli matoni Gogenni asarlarida ko'rishingiz mumkin. To'ilishi — to'ri, sarjali, figurali bo'ladi. Rassomlardan Tintorato, Veroneze o'z asarlarida figurali mato ishlatganlar.

Ziirli matolar o'zining yupa-alinligi bilan far iladi, Bunga sabab ziirli matolar ikki va uch ipdan yigirilgan. Ba- diiy fond rangtasvir uchun ziir tolasidan uyidagi matolarni ishlab chiaradi: 3-artikli, panarama uchun uch ipli, Repin- niki №09132 deb nomlangan (eni 2 metr 12 sm) mayda ipli №09132 (eni 2 metr 12 sm) va teatr sanasi uchun. Ziir- poya tolasining tarandisidan tayyorlangan matoni tortganda bir xilda tekis tortilmaydi, ipda tugunlar am ko'p, teatrda ora ko'rinish uchun mo'ljallangan, dastgoli rangtasvir uchun uni ishlatmagan ma'qul.

Akvarelda ishlash texnologiyasi va usullari.

Akvarel-lotincha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, akvareldan ishlangan rasm degan ma'noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo'llanilgan, XXI asrdan akvarelda yirik san'at asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi.

D.Kozens, Tyorner, D.Konstabel, R.Bonington, G.Gyorten kabi rassomlar o'zlarining akvarelda ishlagan asarlarida Angliyaning go'zal tabiatini mohirlik bilan tasvirlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san'ati XVIII asrdan e'tiboran keng yoyila boshladi. O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropada ham akvareldan Cherkovga qarashli bo'lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustrasiyalar bilan bezashda foydalanildi. Lekin bu vaqtlarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatilar edi.

O'rta Osiyoda akvarelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.YE.Repin, V.A. Serov, M.A.Vrubel, kabi rassomlari o'z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy san'ati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar N.N.Volkov, YU.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi.

O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G. Shevyakov, G.Siganov, K. Cheprakov va ayniqsa CH. Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin.

Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablash uvi, takomillashuvi uning turlarini ko'payishiga va xilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud.

Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon xoldagi akvarellar.

Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida, ayniqsa amaliy va dekorativ san'at o'kuv yurtlarida kompozisiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi. Akvarel

bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukinidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi.

Daraxt shirasidan, masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez-qotib qolmasligi, pishiqligini va suvdagi eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glisirin, dekstrinlar qo'shiladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi.

Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenaldan keraplicha tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda oshrib meva shakari o'rniga asalari mo'mi va glisirin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog'lovchi elementining ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glisirin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonlarda o'raydigan pigmentlardan masalan, jigar rang, qarminli bo'yoqlardan tayyorlanadi.

Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-biriga yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim.

Masalan, qo'yidagi bo'yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiiy, jigar, rang, sariqmars, zarg'aldoq mars va hakoza.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar.

Zangori: zangori laklar.

Jigarrangli kukunlar : kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars.

Qora kukunlar : -uzumdan olinadi.

Akvarel tayyolash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi tosh plita yoki mahsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erishsa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan xisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, qo'yilgan akvarel bo'yog'i qurilganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib olishadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi. Endi akvarel, tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan ba'zi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz:

1. Bir akvarel mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yubqa qalam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, qo'yilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa, xaddan tashqari qo'zbekiston Respublikasi qishab ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va sliqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa tyubikka mris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli akvarellardan xisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi.

Unda bo'yoqlarning 24 hili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

2. Tush asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda kenqo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tuslari xosil qilinadi. Tushni juda quyuq ishlatilmaslik lozim. Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlariga yelimlab qo'yilgan bo'ladi. Qog'ozlarni bir-birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalaniladi. Orqasiga qo'yilgan karton esa uni g'ijim bo'lishidan asraydi.

3. «Stirator» bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda qo'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jiplashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga g'o'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyog'siz holda ishlatilganda esa mahsustutqichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga ho'llab olinadi. Qog'ozni ho'llash uchun yumshoq lattadan foydalaniladi. Burchaklarida 1,5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi.

Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarimas temperaturali joyiga qo'yib quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

4. Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishida uning to'rttala tomoni 1,5-2 sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoni jiqqa ho'l latta suvini o'ziga shishib olguncha surtiladi. Chetga qayrilgan burchaklari eng quruqligicha qondiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib g'o'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Undan keyin burchagidan bir tomoni, so'ngraqaramaqqarshi turgan tomoni bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday diogonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi.

Qirralari esa barmoq yordamida tekis qilib yopishtirib chiqiladi. Yelimlangan tomonlarida xech qanday tirishgan va qabariq joylar bo'lmasligi lozim. Qo'l planshet mo'tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

5. Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda ekskursiyalarga chiqqanda juda as qotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin kerakli jixozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'oznimaxkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa har-xil o'lchamdagi cho'ntaklar tikiladi. Cho'ntaklarga esa maxsus idish, katta akvarel va xakozolar solib olinadi.

Materialni tikayotganda orasiga karton bo'laklarini kerakli o'lchamlarda qo'yish tavsiya etiladi. Qo'yilgan karton bo'laklar qog'ozlarni buklanib qolishidan saqlaydi.

6. Mo'yqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim, mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvayerel bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga muljallangan (yelimlash uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi.

Rasm ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshok yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvga tiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa-yaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamningt bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi.

Shuning uchun akvarel bilan ish ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilag yo'g'on xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bujara olish imkoni tug'iladi.

Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berish tayyorlatish mumkin.

Bulardan tashqari, har-xil o'lchamdagi kurakchasimon, yalpaq mo'yqalamlar ham ishlatiladi. Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar, tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida tarzda qo'llanilmaydi. Chunki ba'zi mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordiyu, mo'yqalam bilan keng yuzalarni bekitishga to'g'ri kelsa uni burchak ostidan ushlab hamda ishni qog'ozning tepa qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastka va ayni vaqtda o'ng tomonga qaratib tez-tez harakatlantiriladi. Agar yupqa va tirnoq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi, hamda ohistagina qog'oz bo'ylab yurgiziladi.

Kuchli mazok hosil qilish (uzib-uzib bo'yoq berish)uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi. Xomaki rasm ishlashda kerakli bo'yoqni o'z ichida birndaniga qo'yish aloxida maxorat talab qilinadi. Lekin mo'yqalam qog'ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo'yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin.

Qo'yilgan mazoklarni harakterli bo'lishi muxim axamiyat kasb etadi. Mo'yqalamlarni ishlatayotganda ayniqsa uning mo'y qismi tez ishdan chiqishini unutmaslik kerak. Bo'yoq olinayotganda mo'yqalamni xaddan tashqari ko'p ishqalash tavsiya etilmaydi, sababi mo'y qismi tez to'kilib keatdi. Bunda mo'yqalam bo'yoq ustida oldinga va orqaga hamda chapga va o'nga tomon tez-tez, yengil-yengil yurgiziladi.

Bir marta bo'yoq olinganidan so'ng, ikkinchi olishga mo'yqalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo'yoq olinadi.

Dastlab sakkiz nomerlaridan to o'n, o'n ikkinchi nomergacha bo'lgan mo'yqalamlarni ishlatish mumkin. Keyinchalik esa, o'n ikki, o'n turt nomergacha, balki undan kattaroq nomerli mo'yqalamlar ham ishlatiladi.

Mo'yqalam ishlatilib bo'lingach, tozalab yuviladi va latta bilan siqilganidan so'ng tirgakka solib qo'yiladi yoki mo'y qismi yuqoriga qilingan holda stakanda saqlanadi. Ba'zan mo'yqalamni yung qismini stolning chetidan bir oz chiqarib qo'yish ham mumkin.

7. Palitra. Tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metallardan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitralardan foydalangan ma'qul. Palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo'yilgan bo'yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo'lib ko'rinib turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurilmasdan saqlanadi. Palitraning rangi oq bo'lganligi sababli bo'yoqlarni tuslari o'zgarmasdan ko'zga tashlanadi. Palitradan foydalanish usullari va unga bo'yoqlarni joylashtirish tartibi ko'rsatilgan. Bo'yoqlar ko'zga qanchalik yaqin bo'lsa ularni bir-birlarini ajratish ham shunchalik oson va qulay bo'ladi.

Politrage ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish talabalarning sifatli ishlashlariga, ko'zlari va qo'llarining avtomatik ravishda harakat qilishga, ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab qo'ymaydi.

Politrage oldin iliq ranglardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'oldoq qizil, rang yoki jigar ranglar va nihoyatda zangori, binafsha ranglar (bular sariq ranglar jumlasidandir) qo'yiladi. Politrage qo'yilgan bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda iflos mo'yqalamlardan qat'iyman qilinadi. Shu tariqa politrada bo'yoqlar toza saqlanadi. Ish tamom bo'lgandan so'ng politra yaxshilab tozalab qo'yiladi, ayniqsa politraning suv tekkan joylari yaxshilab artiladi.

Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiyalarda, etyud ishlashda metal yoki shishastakanlar bankalar juda qo'l keladi.

Akvarel bilan ishlashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari har-xil bo'lishi mumkin.

Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishida muxim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslarida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. "TM" markali qalam chizish uchun juda qulaydir. Qalamlarning tomonida nomi, so'ngra esa qattiqroq yoki yumshoqlik darajasi yozib qo'yiladi. «T» qattiqlik ma'nosini anglatadi, uning yonidagi son qattiqlik darajasini ko'rsatadi. «2T» belgili qalam «T» belgili qalamdan qattiqroqdir. Tasviriy san'at darslarida qattiq qalamdan nafis joylarni shtrixlashda foydalaniladi. Ular chizmachilik darslarida ham qo'llaniladi. Yumshoq qalamga «M» belgisi qo'yilib, yumshoqlik darajasi sonlar bilan ko'rsatiladi.

Rasmning sifati ko'pincha qalam o'zining yechilishiga bog'luq bo'ladi.

Rasm chizish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida qalam uchini dars yoki mashg'ulot boshlanishidan oldinroq qo'ygan ma'qul. Qalamni ish joyida ochmaslik lozim, chunki grafitning ko'zga ko'rinmaydigan zararlari rasmni iflos qilib yuboradi. Eng yaxshisi qalamni quticha yoki qog'oz parchasi ustida ochishdir. Bunda chiqindilarni maxsus yashikka tashlash oson bo'ladi. Qalamni haddan tashqari bosib chiqish yaramaydi. Chunki uning uchi sinib qolishi mumkin.

O'quvchilarni qalamni ochilgan yeridan uzunroq ushlashga o'rgatish yaxshi natija beradi. Qalam umuman uchta barmoq bilan ushlanadi va unchalik qattiq siqib olinmasdan erkin yuritiladi. Uzunroq qalamlardan foydalangan ma'qul. Chunki kalta qalamlarda naturaning o'zaro nisbatlarini o'lchab chizish qiyinlashadi. Siyoh rangli qalamlarda rasm chizish mumkin emas: chiziqqa suv tegsa, bo'yalib ketadi. Qalam bilan chizishda aniqlik, puxtalik va malakali bo'lish talab etiladi.

O'chirg'ich.

O'chirg'ichlar ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan hamda idoralar uchun chiqarilgan bo'ladi.

Noto'g'ri chizilgan tasvirni o'chirishdan oldin to'g'rilab chizib olish lozim. Shunday qilingan xato yaqqol ko'rinib turadi. O'chirg'ich bilan o'chirishdan qo'l faqat chizish bo'ylab bir tomonlama harakatlantiriladi. Shuningdek, o'chirg'ichni hadeb ishlativerish ham yaramaydi. Unda qog'oz yuzasiga bo'yoq yaxshi yotmaydigan bo'lib qoladi. O'chirg'ichni qo'lda uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki o'chirg'ich qo'lda ter bosib, qog'ozni kir qilib qo'yish mumkin.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel bilan ishlashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl metodida ishlash deb ataladi.

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'riladi.
2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.
3. Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.
4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.
5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi, hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan har ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim ahamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo oxangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin. Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

O'quvchilarga yorug', oq tusdagi rangni hosil qilish uchun suvni, tuq tusdagi rangni hosil qilish uchun esa bo'yoqni ko'proq qo'shish kerakligini o'rgatish kerak.

Och tusdagi rangning hosil bo'lishini amalda ko'rsatish uchun suvli stakanga qizil rang aralashtiriladi. Stakanda hosil bo'lgan aralashmaga suv qo'shishni davom ettirsak, bu rang tusining ochlanib borishining guvohi bo'lamiz. Aksincha, aralashmaga qizil rang qo'shishni davom ettirsak, mazkur rang tusining to'qlashib borishini ko'ramiz. Bu xildagi mashqlarni faqat ranglar yordamida bir necha marta bajarib ko'rish mumkin.

Ranglar to'yinganligini asta-sekin o'zgarib borishi haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Agar xromatik ranglar tarkibiga axromatik ranglar qo'shilsa, ularning tiniqligi pasayadi. Natijada rangning to'yinganligi o'zgarib, boshqa rang tusi hosil bo'ladi. Kul rang qanchalik ko'p qo'shilsa, xromatik rang shunchalik axromatik bo'lgan kul rangga yaqinlashib boradi. Bu xildagi yorug'lik kuchlarini kamaytirish natijasida ranglarning tiniqligini yo'qotish hamda xira ko'rinishdagi ranglar olish mumkin. Rang tuslarini bir-birlaridan farq qilishni o'rgatishda bir rangning har-xil tuslari orqali naqsh kompozitsiyasini ishlash kerak. Akvarel bilan ishlash malakalarini oshirishda asosiy va qo'shimcha ranglar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Rang ustida ishlash usullari ikki qismga: asosiy ranglar va qo'shimcha ranglarga bo'lib o'rganiladi. Olingan rang tuslari esa o'zaro solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Qo'shib topiladigan ranglar aralashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun dastlabki mashqlarni nabordagi tayyor bo'yoqlarni qo'shib topishdan boshlash lozim. Bunga quyidagi jadvalda ba'zi bir misollar keltiramiz. Asosiy hamda qo'shib topiladigan ranglar ustida mashq qilinayotgan paytda naturaga yaqin bo'lgan rang tuslarini topish kerak.

Bundan tashqari, pardozlangan siliq sirtlarga, oynaga, metall shartlari atrofdagi buyumlarning tasvirlari tushadi va ularning ranglari ham boshqacharoq ko'rinishda bo'ladi.

Akvarel bilan ishlashda bu xildagi usullardan ham foydalana bilish lozim. Ranglarning bu xususiyatlari refleks taassurotini paydo qiladi hamda ishlanayotgan naturaning eng muhim qismini tashkil etadi.

Akvarel va mo'yqalamlar bilan ishlashni o'rganishda dastlabki mashqlar muhim rol o'ynaydi.

1.2 Manzara ishlash texnologiyasi.

Manzara chizish jarayonida perspektiva

Manzara ishlash texnikasini egallash bo'lajak rassomdan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan tabiat manzaralarini katta masofa ajratib turishi, yorug'lik va soya reflekslarining xilma-xilligi va ko'pligi, yorug'-soyalarning tez o'zgaruvchanligi, ob-havo va fasllarning o'zgarishi – bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo'lgan rassom mehnatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, qiziqarli motivlarni paydo bo'lishiga olib keladi ham. “Perspektiva” so'zi lotinchada “aniq ko'raman” ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda perspektiva qisqarish hamda narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o'zgarib borishi ma'nosida ishlatiladi. Perspektiva rassomga manzarani naturada qanday ko'rilsa, kartinada shunga mos tasvirlash imkonini beradi. Perspektiva qoidalarini o'zlashtirish manzara chizish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Peyzaj asarlarining muvaffaqiyati ularda tasvirlangan predmetlarning o'zaro uyg'un o'lchovlarda aks ettirilishiga ham bog'liq, albatta. Buning uchun bo'lajak rassom naturani diqqat bilan kuzatishi, narsa va buyumlar, jonivor-larning bir-birlariga nisbatan o'lchovlarini, ularning ufq chizig'iga nisbatan joylashishi kabi jihatlarini tasvirlash bilan ularda manzara chizish malakasi shakllanib boradi. Perspektiva ufq chizig'i bilan bog'liq holda belgilanadi. Ufq chizig'i deyilganda osmon bilan erni ajratib turadigan chiziq tushuniladi.

Ufq chizig'i rassomlikda kuzatuvchining yoki rasmchizuvchining ko'zi balandligida tasavvur etiladigan epik (gorizontal) suvrat tekisligiga yondosh (parallel) chiziqdir. Ufq chizig'i odatda tasvirlanadigan manzaraning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Ufq chizig'ini qog'oz betiga uch xil: qog'oz betining yuqorisidan, o'rtasidan, pastidan o'tkazish mumkin.

Bu, asosan, kuzatuvchi egallab turgan ko'rish nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Perspektivaning chiziqli perspektiva, rang perspektivasi va hajm perspektivasi ko'rinishlari mavjud.

Chiziqli perspektivaning muhim tomoni shundaki, u narsa va buyumlarning kuzatuvchiga nisbatan o'z shakli va o'lchovlarini o'zgartirib borishini ifodalaydi. Narsalar kuzatuvchidan uzoqlashib borgan sari ularning o'lchovlari kichrayib boradi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda tasvirlashda quyidagi qoidaga amal qilinadi. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan manzara qog'oz betining pastki qismida tasvirlanadi va aksincha, kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rinadigan narsalar qog'oz betining yuqori qismiga joylashtiriladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan ob'ektlar qog'oz betining o'rtasida tasvirlanadi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda aks ettirish ko'rish nuqtasiga nisbatan olinadi. Ko'rish nuqtasidan xayolan chiqarilgan chiziqlar manzaraning yuqorisi va pastki qismidan o'tkaziladi. Manzaradagi boshqa predmetlarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko'rish chizig'ini o'zgartirmaslik talab qilinadi. Xudi shu usulda har qanday narsalarning rasmini perspektiv qisqarish qoidasiga ko'ra ishlash mumkin. Perspektiv qisqarish usulida narsalarning o'lchovlarini haqiqatga yaqin va to'g'ri aks ettirish mumkin bo'ladi. Manzara chizish jarayonida yorug'-soyalar va ranglar munosabatini kuzatish, har bir ko'rinishning xususiyatlarini idrok etish bilan chegaralanib qolmay, naturani yaxlit holda ko'ra olish malakasini ham shakllantirish zarur. Manzara rangtasvirida bir vaqtning o'zida barcha manzarani ko'ra olish, oldingi, o'rta va orqa planni yaxlit ko'rish maydoni sifatida idrok etish zarur bo'ladi.

Manzaradagi turli holatda joylashgan manzarani alohida emas, yaxlit birlikda, bir-biriga bog'langan bitta asar sifatida idrok etish muhimdir. Rassom rang perspektivasi xususiyatlarini ham puxta o'zlashtirishi talab etiladi. Rang perspektivasi deganda borliqdagi barcha narsalar kishi ko'zidan uzoqlashib borgan sari o'z rangini o'zgartirishi tushuniladi. Bizdan uzoqlashgan sari narsalar havoga "singib" borayotgandek ko'rinadi. Agar predmet aniq belgilari bilan tasvirlansa, u bizga yaqin turgandek taassurot tug'iladi.

Predmet belgi-xususiyatlarining xirala-shishi esa uni bizdan uzoqlashtiradi. Oldingi planda joylashgan narsalardagi yorug'-soyalarning keskinligi kuzatiladi. Tuman, chang yoki tutun bilan qoplangan joydagi narsalar ko'rinishi xiralashadi. Uzoqlashgan sari narsalarning rangi havorangga moyillashib boradi, ularning rangidagi farqlar kamayib boradi. Shuningdek, manzara ishlash jarayonida hajmlilik yoki yorug'lik perspektivasini ham e'tiborga olish zarur.

Narsalar yorug'lik manбайдan uzoqlashgan sari o'zining yorqinligi, rangi, shakli aniqligini yo'qota boradi. Barcha narsalar bizdan uzoqlashgan sari yoki unga nur yorug'lik tushgan sari shakl va rang aniqlashib, manzaraning xajmli ko'rinishi aniqlashadi. Yorug'lik perspektivasi, ayniqsa, oqshom manzarasi tasvirlangan karti-nalarda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, U.Tansiqboevning "Tog' qishlog'i" kartinasida manzaralarning barchasi quyosh-ning kechki nurlariga chulg'angan holda, ko'kish rangda tasvirlangan



va shakldagi aniqlik real rang yo'qolib borgan.

Har doim yilning turli fasllaridagi jonli tabiatning rang-barangligi bizlarni o'zgacha quvontiradi. Har bir yil fasllariga taa'lluqli bo'yoqlarning aralashgan palitrasi mavjud.

Sizlar o'z tanlovingizni bahorgi nozik va yozgi tiniq bo'yoqlari, yorqin kuzgi

va qishki xiralashgan tuslariga qaratishingiz mumkin. Albatta, ijodiy ishlarda ranglarning monandlik prinsiplariga asoslaning, o'shanda bajarilgan suratlar haqiqatdan ham jozibali chiqadi. Yorulik rangiga boliq holda osmon, yer va suv rangdorligining o'zgarishi.

Yoz. Yozgi bo'yoqlar tiniq, ravshan va jozibalidir. Palitrasi o'tsimon yashil, qizil(alvon), malina rangi, ko'k, to'q-sariq va zaraldoq ranglardan iborat. Har bir lokal ranglarga turli murakkab nozik rang turlaridan jozibali gammasi tuziladi.



Bahor. Bahor tabiati nozik, juda ham yorqin bo'lmagan ranglardan hosil bo'ladi. Shuning uchun bahorgi palitra yumshoq pastel tuslaridan: kremli, pushti rang, o'rik rangi, havorang, och-sariq va oxradan iborat bo'ladi. Kontrast uchun – yashil o't rangi, ko'knori-qizil va xiralashgan jigarranglar qatnashadi.

Kuz. Kuzgi palitrani iliq, asosiy tusli bo'yoqlar tashkil qiladi, go'yoki yorulik nurini tarqatayotgandek. Ko'k va zaraldoq, sariq va siyohrang, qizil va sariq kontrast ranglardan tuzilgan kompozitsiya, shuningdek, to'q qizil – jigarrang, to'q qizil va siyohranglar och oxra tuslari bilan aralashmasida ham yorqin, ko'rinarli va samarali bo'ladi. Asosiy ranglar gammasini ignabargning yashil rangi to'ldirishi mumkin.

Qish. Qish palitrasi uchun och havo rang, siyohrang, muzning yaltiragan ko'kimtir



tusi, oq va qora ranglarning kontrastidagi ranglar tashkil etadi. Odatda, kompozitsiyalar toza, ochiq-oydin, aniq, lo'nda-ixcham bo'ladi.

Qishning romantik ko'rinishlari neytral, nozik kulranglar bilan muvaffaqiyatli birikuv orqali noaniq ranglarni yaratishga yordam beradi.

Yaponiyada, masalan, «Kabuki ranglari» – qaraay ignasining to'q yashil rangi, tolarning jigarrangi, sakuraning pushti rangi hisoblanadi – arb ranglari bilan solishtirganda yorqin emasdek tuyuladi.

Biroq bir-biri bilan aralashtirilganda Yaponiyaning o'ziga xos boy jozibali ranglari hosil bo'ladi, arbning standartiga ko'ra bu ranglar hamohang emas (uyunlashmaydi).

Ranglar insonni nafaqat xursand qiladi, ayrim holda azablantirishi (achchiqlanish), tashvish solishi (vahima), qo'msashi (soinish) yoki xafalik (qayu) keltirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, rang emotsional ta'sir etadi.



Ayrim ranglar asab sistemasini tinchlantirsa, boshqalari, aksincha, azablantiradi. Tinchlantiruvchi ranglarga yashil, havorang, ko'k kirsas, qirmizi, qizil, zaraldoq, sariq ranglar to'liqlantiruvchi hisoblanadi. Odamlar qadimdan ranglarga alohida ahamiyat berishgan. O'rta asrlarda qirmizi ranglar – kuch, qudrat, qadr-qimmatni; lojuvard(havorang) rang esa – go'zallik, uluvorlik, muloyimlikni; qora-qizil rang bilan aralashmasi – o'lim va h.k.ni bildirgan. Marosim va to'y-shodiyonalikdagi ranglar katta ahamiyatga ega. Masalan, qizil rang – tantanavorlik, uluvorlikni; qora esa – kulfat, o'lim, qayuni; oq esa – tozalik, aybsizlikni; yashil esa – umidvorlikni va shu kabilarni anglatgan. Qizii shundaki, turli xalqlarda bir xil rang turli ramziy ahamiyatga egadir.

Masalan, Xitoyda va ayrim Osiyo va Afrika mamlakatlarida oq rang motam rangi hisoblanadi. Slavyan xalqlari esa o'liklarga oq kiyim kiydirishgan.

Manzarada kompozitsiya “Kompozitsiya” so’zi lotincha compositio so’zidan kelib chiqqan bo’lib, qismlarni ma’lum bir tartibda joylashtirish degan ma’noni anglatadi.

Tasviriy san’at asaridagi kompozitsiya kartinada tasvirlangan barcha elementlarning rassom g’oyasiga muvofiq joylashtirilishini bildiradi. Tomoshabin e’tiborini jalb qilish va uni hayajonga solish uchun rassom tasvirlashning kuchli ifoda vositalarini izlab topishga harakat qiladi. O’z maqsadini ifodalashda barcha ortiqcha narsalarni chiqarib tash-laydi, ikkinchi darajali narsalar asosiga bo’ysundiriladi.

Mato sirti, o’lchami ko’zlangan maqsad yoki ko’rish nuqtasi, ufq chizig’ini belgilash, rang berish, kompozitsiya markazini belgilash - bularning barchasi kompozitsiyaning elementlari sifatida xizmat qiladi. Manzara asarining mazmuni, tanlangan motivning hayotiy-ligi kartinaning kompozitsion qurilishi bilan yuzaga chiqadi. Manzara motivlarini tanlash, kompozitsion uyg’unlikni topa bilish har bir rassomning o’ziga xos ijodiy did va mayliga bog’liq bo’ladi. Manzara etyudlarini ishlash bilan avvalo kom-pozitsiyaning dastlabki detallari oldingi, o’rta va orqa planni tanlashdan boshlanadi. Bunda ko’rish nuqtasini, qog’oz yoki mato o’lchamini belgilab olish muhimdir. Manzara etyudi kompozitsiyasida osmon, er va boshqa ko’rinishlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni topishga ham e’tibor berish kerak. Tasvirlanayotgan obrazning ta’sirchanligi tanlab olingan naturaning qiziqarli tomoni bilan ham belgilanadi. Shuning uchun rassom naturaning eng ta’sirli jihatlarini topa bilishi, buning uchun naturani har xil holatlarda, kunning turli vaqtlarida diqqat bilan kuzatishi kerak. Zarur ufq chizig’ini belgilash, o’ng va chapdan, yaqin va uzoqdan qarab, shunday bir nuqtai nazarni - ko’rish nuqtasini topish kerakki, toki natura o’zining ifodaviyligi bilan rassom niyatini optimal darajada amalga oshirish uchun xizmat qilsin. Kartinada barcha narsa rassomning istagini, g’oyasini ifodalashga bo’ysundiriladi. Kompozitsiyaning mukammalligi asosiy manzara ko’rinishlarning ikkinchi darajalilaridan farqlay olishda ko’rinadi.

Har bir detal o'z o'rni va mazmuniy vazifasiga ega. Kompozistiyadagi ikkinchi darajali, uncha muhim bo'lmagan narsalar darhol ko'zga tashlanmasligi, asosiy ko'rinishga alohida urg'u berilishi kerak.

Asosiy manzara kartinada alohida diqqat va e'tibor bilan ifodalanishi zarur. Biz atrofni kuzatganimizda ko'p hollarda bitta muhim deb hisoblagan narsamizga diqqat bilan qaraymiz. U bizning ko'rish maydonimizdagi markazga joylashgan bo'ladi, uning mayda-chuyda belgilarigacha e'tiborimizdan chetda qolmaydi. Ko'rish markazidan chetda turgan boshqa narsalar esa umumiy tarzda, yaxlit holda qabul qilinadi.

Karti-naning kompozistion qurilishi ko'p jihatdan insonning ko'rish sezgisidagi ana shu o'ziga xoslikka asoslanadi. Rassom kartinada asosiy manzarani rang, tus, shaklining aniqligi bilan ajratib ko'rsatishi lozim. Kartinada muvozanatni saqlash uchun rassom naturani kuzatish jarayonida zarur rakursni belgilab olishi kerak. Aks holda tasvir xuddi bir tarafga og'ib ketayotgandek, kartinaning bir tomoni bo'sh qolgandek taassurot berishi mumkin. Muvoza-natni saqlash tasvirlanayotgan manzara ko'rinishlarining miqdori va qanday joylashganligi bilangina emas, balki ularning rang-tusi bilan ham bog'liq.

Kartinaning bir tomonidagi yorqin rang-larni ikkinchi tomonida ham ma'lum bir xolatda qo'llash kerak yoki kartinaning bir tomoniga alohida e'tibor berib, boshqa tomonini biroz nazardar qoldirish yaramaydi.

Tasvirlashning asosiy qonun –qoidalari

Ijtimoiy ong shakllaridan biri san'at - tabiat va jamiyatda bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo'ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va karakteri, mazmuniga ko'ra tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, stirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

San'atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi. Ma'lumki, har bir jamiyat formastiyasi san'at rivojiga o'zining ma'lum iqtisodiy-siyosiy pozitsiyasida turib, ma'lum darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'sha o'z davri talabida xizmat qiladi. San'at qaysi jamiyatga, kaysi sinfga va millatga xizmat qilishi va bu sinf va millatning iqtisodiy va siyosiy yo'lida xizmat qilishiga qarab, uni sinfiy va milliylik xususiyati belgilanadi. Har bir jamiyatdagi san'at erkin, xalqchil, insonparvar, mehnatsevar va boshqa yuksak insoniy g'oyaviyligi asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida xalqparvar, insonparvar, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Bu san'at keng mehnatkashlar ommasiga xizmat qiladi. Bu san'at xalqining maqsadi, vazifalari, orzu-umidlarini siyosiy va iqtisodiy yo'lini ifodalaydi.

Bu san'at har qanday shovinizm, byurokratizm, egionizm, molparastlik, irqchilik, zo'ravonlik, fohishabozlik, ayshi-ishratbozlik va man-manlikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashadi.

Bu talablar bugungi jahon taraqqiyot insoniyatining ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini ham to'la ifoda etadi, Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday hurmat va ehtirom bilan qaraydilar.

O'zbek rassomlari ana shu talablardan kelib chiqqan holda o'zlarini qiziqtirgan, hayajonga solgan narsalar, voqealarni milliylik ma'naviyati asosida o'z asarlari syujetiga mavzu qilib oldilar. Chunki, ilg'or san'atkor rassomlarning dunyoqarashi keng, progressiv, ilg'or bo'dganidek, ularni qiziqtiradigan, hayajonga soladigan, o'ziga tortadigan voqea va hodisalar ham ilg'or va progressiv bo'ladi. Ma'lumki, o'zbek rassomlari mamlakatimizning keng mehnatkash xalq ommasidan etishib chiqqanki, ular ana shu mehnatkash xalqning orzu-umidi, his-tuyg'usi, milliy qadriyatlarini va manfaatlarini himoya qiladi va ularni ifoda etadilar.

Mustaqil O'zbekiston tasviriy san'atini milliyligi undan eng avvalo realistik pozistiyada turishni, moddiy olamning ob'ektiv qonuniyatlarini e'tirof etilgan holda tasvirlashni talab qiladi. Bu o'z o'rnida rassomdan narsa va voqealarni aniq, o'ziga o'xshatib, real holda ifodalashni va jamiyatning muhim masalalarini aniq maqsad sari yo'naltirilgan holda, badiiy jihatdan yuksak talablarda bo'lgan va ijodiy ishlangan san'at asarlari yaratilishini talab qiladi.

Jahon realistik tasviriy san'ati - jahon xalqlarining o'tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvir etuvchi haqiqiy ko'zgu bo'lib qoladi. Biz undan o'tmishni bugunni va kelajakni ko'ramiz.

Shu boisdan ham realistik tasviriy san'ati uetalari o'tmish tarixini ham, maeriya va taraqqiyotni ham, matematika va tabiyotni ham, geografiya va biologiyani ham yaxshi bilishi lozim.

Mustaqil O'zbekiston xalqining estetik falsafasi, go'zallikni-san'atning ajralmas qismi va kategoriyasi, shakl va mazmuni, uning zaruriy sharti deb ko'rsatadi

San'at juda qadimgi tarixga ega bo'lib, u jamiyatning mehnat faoliyatini rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatining taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarishni jamiyatning iqdisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari, qurollarini takomillashuvidan, jamiyat ongining evolyustion taraqqiyoti jarayonida vujudga keldi va rivojlandi. Sinfy jamiyatning vujudga kelishi bilan sai'at ham sinfiy harakterga o'tdi. Har bir jamiyatda turli sinflar mavjud bo'lganidek, o'sha jamiyatning san'atida ham turli sinflar manfaati, siyosati, dunyo qarashi va ahloqini himoya qildi yoki uni rad etdi.

San'atni sinfiy harakteri-uning qaysi sinf vakilini qanday mazmunda ifodalashga va qaysi sinfning iqtisodiy va siyosiy manfaatini, hayotini himoya qilishiga qarab belgilanadi. I.Repinning «Volga Burlaklari» asarini kuzatar ekanmiz, unda mehnatkashlar ommasining hayoti, ularning og'ir turmushi va mehnati ifodalanadi va ular manfaati himoya qilinadi.

Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri - inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli faktor bo'lib, xizmat qiladi. Yoki bir so'z bilai aytganda, «San'at, - V.G.Belinskiy ta'rificha, - obrazli tafakkurdir».

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda, qalamtasvir mashg'ulotlarining, amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi – perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul.

Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi.

Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi. Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi. Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash – fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: “Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan–bu yergacha”. So'z – tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib, to'g'ri chizishda eng muhim jihatlardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash odatini shakllantiradi. Ma'lumki, tasviriy san'at atrof–muhitni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o'rganiladi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni qanchalik ko'p sevsa va kuzatib o'rgansa, u tasvirlash sohasida shunchalik yuksak natijalarga erishishi mumkin. Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida

ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Alberti va Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini aniq o'lchamlarda o'rganib, o'z tasvirlarida amalda qo'llaganlar. Ular inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilish xususiyatlarini, xuddi anatom tadqiqotchidek, asosli o'rganganlar va natijada jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar.

Mashg'ulotlarda buyumlarning hajmini to'g'ri va haqqoniy tasvirlash, oddiy qalamda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o'laroq, bu vazifa ancha mushkul bo'lib, talabalardan qalamtasvir borasida ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talabalar turli hajm va shaklga ega buyumlarning yorug' va soyalarini tasvirlayotganda buyumlarning hajmi va shakli asosida ish yuritishi taqozo etiladi. Bunda talaba buyumga tushayotgan yorug', soya, yarim soyalarni, yengil chiziqlar bilan bir tekisda chizishga va chiziqiar tortishda ularni dona–dona bajarishga e'tibor berishi kerak. Buyumga yorug'lik qanchalik tik tushsa, uning tasviri shunchalik yaqqol ko'rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda urilib, bajarilayotgan tasvir xiraroq bo'lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib), ikkinchisiga va uchinchisiga tiishishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat: a) yorug`lik, b)soya, s)yarimsoya, d)aks, e)yaltiroqlik.

Yorug`lik– quyosh yoki sun'iy yoritgichning buyum yuzasiga tik tushuvchi nuridir. **Soya** – buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoni (teskarisi), yorug'lik nurlari tushmagan yeri. Bunday soyalar **shaxsiy soya** deb ham yuritiladi. Tasvirlashda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday soyalar buyum tekisligiga, (stol, pol, yer va hokazo) hamda buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin.


Buyumga qiyaroq tushuvchi yorug'lik, ularda **yarim soyalarni** tashkil etadi. Yarim soyalar, asosan, yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismda joylashadi. Shuning–uchun soyalar bir xil to'q tusda bo'lmaydi. Buyumlarning hajmlarini soya va yarim soyalar orqaligina to'g'ri tasvirlash mumkin.

Buyumlarga urilish natijasida qaytib, boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi. Aks yorug'lik predmetlarning bir–biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Lekin hech –qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan koichli bo'lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik** hosil bo'ladi. Bu holat shisha, chinni, temir, sopol va yorug'likni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa ko'pgina buyumlarda kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziqlar tasvirlanayotgan buyumning harakteri va yorug'likning tushish yo'nalishi bo'yicha dona–dona, aniq bo'lishi kerak. Bunday ishlangan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatadi.

Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuqroq, bir–biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak. Geometrik shakllarni tasvirlashda ularning tuslariga e'tibor berish darkor. Oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2– va 3– qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda tasvirlanadi. Bu, o'z navbatida, buyumni haqqoniy (fazoyiy perspektiva qonuniga asosan) tasvirlashda g'oyat muhimdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, buyumning hajmi asosida ishlash – buyumni to'laqonli hajmli tasvirlash omilidir. Pala–partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi. Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma–ketligiga rioya qilish kerak.

- 1 – yorug'lik.
- 2- yaltiroqlik.
- 3- yarim soya.
- 4- shaxsiy soy
- 5- reflex.
- 6- Tushuvchi soya



Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi

masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berish – buyumni to'g'ri chizishda katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni chizishda chiziq tortish ellips shaklida bajariladi. Sferik buyumning eng quyuq soya joylari uning ekvatoriga yaqinlashgan joyida bo'ladi. Shuni doimo yodda tutish kerakki, shakllarning yorug' va soya uchrashgan (yaqinlashgan) qismida soyalar to'q bo'ladi. Yorug' - soya qonuniyatlari tasvirlashchda aniqlikni talab etadi. Fizik olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, yorug'lik buyum va narsalarga ma'lum hajmlar qonuniyati asosida tushadi. Talaba quyida– gilarni doimo o'z tasviriy faoliyatida bilishi va qo'llashi lozim: a). yorug'lik manbaiga yaqin turgan buyumda yorug' va soyalar har doim kuchlidir; aksincha, buyum yorug'lik manбайдan uzoqlashgan sari, soya – yorug' kuchlari ham umumiy lashib, xira ko'rinadi.



Buyumlar tasvirda aniq bo'lishi uchun yorug'lik manbaiga yaqin turganlarini keskin yorug' soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlarni esa umumiy tarzda chizish tavsiya etiladi; b) buyumning turni to'sishi natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi

soya har doim shu buyumning o'z soyasiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni yorug'likning to'silishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq tasvirlash kerak. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisiz tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, uning nazariy tomonlariga ham e'tibor berishi lozim. O'tmishda usta rassomlar tabiatdagi yorug',



soya qonuniyatini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvafaqqiyat bilan qo'llay bilganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi shunday deydi: «To'q tusli buyumda hosil bo'luvchi aks yorug'lik doimo ochroq tusdagiga nisbatan aniq va yaqqol ko'rinadi».

1.3 O`zbekiston me`morchilik san`ati.

Me`morshunoslik. Boshqa san`atshunoslik fanlariga nisbatan arxitektura sohalariga doir risola va ko`rsatmalar ancha ilgari shakllangan. O`rta Osiyo-da arxitektura fani 10—15-asrlardayoq maxsus qonun-qoidalar asosida binokorlikka ta`sir ko`rsatgan. Forobiyning «Fozil shahar aholisining fikrlari» asarini shaharsozlikka doir qadimgi utopik nazariya desak bo`ladi, matematikaga doir risolalari esa me`mor-muxandislar uchun dasturilamal bo`lgan. Abu Rayxon Beruniy va Jamshid Koshiy risolalari asosida Samarqanddagi rasadxona loyihasi ishlangani ma`lum bo`ldi. O`rta asr solnomalarida, xususan Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Hofiz Tanishning «Abdullanoma», Zahiriddin Boburning «Boburnoma», Abu Tohir xojaning «Samariya» kabi kitoblarida me`moriy obidalar haqida juda muhim ma`lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, Mahmud Qoshg`ariy to`plagan turkiy so`zlar lug`ati arxitekturaning murakkab muammolarini echishga yordam bermoqda. O`rta Osiyoda saqlanib qolgan me`moriy yodgorliklarni aniqlash, ro`yxatga olish ishlari asosan 20-asrning 20-yillarida boshlanib, dastavval V.Bartold, V.Vyatkin, M.Masson kabi tarixchi olimlar uchun arxitektura tarixiga oid ba`zi kuzatishlarni jamlash uchun imkon yaratdi. V.Vyatkin, V.Shishkin, I.Umnyakovlarning ilmiy-ommabop risolalari e`lon qilindi. O`zbekiston osori-atiqalarini muhofaza etish qo`mitasi («Uzkomstaris») raisi, tarixshunos Muso Saidjonov ayniqsa, Samarkand va Shaxrisabzdagi me`moriy yodgorliklarni o`rganishda ancha samarali mehnat qildi; Go`ri Amir yodgorligi hakida o`zbek tilida dastlabki kitobni chiqardi, lekin millatchi tamg`asi bilan 1937 yilda qatag`on qurboni bo`ldi. Me`moriy merosni ilmiy o`rganish va ta`mir etish ishlari Moskvadan quvg`in qilingan arxitektor B.Zasipkin tomonidan Samarqand shahrida boshlandi, uning O`rta Osiyo arxitekturasi haqidagi oxirgi kitobi («Arxitektura Sredney Azii», M., 1948) mazkur sohaga doir dastlabki yirik tadqiqot desak bo`ladi.

Arxitektor olimlarga arxitektura sohasidagi tadqiqoti uchun san'atshunoslik yoki tarix fanlari unvoni berilishi o'sha davrdagi arxitekturaga nisbatan bo'lgan mafkuraviy xurujidan darak beradi. O'rta Osiyo arxitekturasi va u bilan bog'lik san'atlarni o'rganishda G.Pugachenkovaning tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi. G.Pugachenkova va L.Rempel tayyorlagan ikki kitob - «O'zbekistonning ajoyib me'moriy yodgorliklari» (1958), «O'zbekistonning ajoyib san'at yodgorliklari» (1960)dan hozirda talabalar xam darslik sifatida foydalanishadi. Ikki olim hamkorlikda yaratgan «O'zbekiston san'ati tarixi» («Istoriya iskusstv Uzbekistana s drevneyshix vremen do seredino' devyatnadstatogo veka», M., 1965) san'atshunoslik fanining shoxh asari va yuksak yutuq sifatida mashhur bo'ldi. Qatag'on yillari O'zbekistonga surgun bo'lgan san'atshunos L.Rempel arxitekturani o'rganishda o'rnak bo'larli tadqiqotlar yaratdi, xususan «O'zbekiston arxitekturasida naqshu nigorlar» (Arxitekturno'y ornament Uzbekistana. Tashkent, 1961). «Panja-ra» (1957) kabi kitoblari xalq amaliy san'ati ustalariga dasturilamal darslikdek bo'lib qoldi. Ko'p yillar Toshkentning bosh arxitektori sifatida xizmat qilgan M.S.Bulatov doim kadimiy arxitekturadagi shaklu shamoyil tuzilishi bilan qiziqib kelgan. Uning «O'rta Osiyo arxitekturasida handasiy mutanosiblik (X-XV asr) tadqiqoti («Geometricheskaya garmonizastiya v arxitekture Sredney Azii (X-XV vv.)»). M, 1978) ilmiy-nazariy jihatdan yangi yo'nalish ochdi. P.Zohidovning «Me'mor san'ati» (1978), «Temur davrining me'moriy qahqashoni» (1996) va b. kitoblari O'zbekiston me'morlik san'atining naza-riy-tarixiy asoslari (me'moriy al-qonun va b.), me'moriy obidalar hakidagi yangicha taxlillar b-n milliy me'morshunoslikning rivojiga hissa qo'shgan. XX-asr oxiri va XXI-asr boshlarida arxitekturaning turli sohalari bo'yicha o'zbek arxitektor olimlarining doktorlik tadqiqotlari e'lon qilindi. A.Mahkamov qishlok arxitekturasi bo'yicha mutaxassis sifatida tanildi. Sh.Askarov. M.Axmedov shaharsozlik tarixi va nazariyasi bo'yicha.

X.Tursunov hozirgi zamon shaharsozligi muammolari. A.O'rolov O'zbekiston arxitekturasida jamoat binolari. I.Azimov O'zbekistonla me'moriy maktablar muammosi, M.Yusupova Buxoroning XVI-XVII asrlardagi arxitekturasi, T.Kodirova 20-asr O'zbekiston arxitekturasi, O.Jabbor Toshkentdagi uy-joy arxitekturasi shakllanishi, T.Hidoyatov O'zbekistonda maktablar arxitekturasi haqida tadqiqotlar yaratdilar. Bu esa O'zbekiston arxitektura fani imkoniyatlari nihoyatda o'rganidan darak beradi.

O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan tarixan juda qisqa muddatda arxitektor olimlar safi yosh tadqiqotchi mutaxassislar bilan kengayib bormokda, arxitektura kelajagi to'g'ri yunalishini aniqlashda elkadosh bo'ladigan kadrlar ikki oliy ta'lim muassasa - Toshkent va Samarkand Arxitektura institutida etishib chiqmoqda.

Qadimiyat yodgorliklarini, ayniqsa, me'moriy obidalarni atroflicha o'rganish, ularni ilmiy asosda ta'mir etish, ya'ni restavrasiya yoki rekonstruktsiya amaliyoti O'zbekistonda XX - asrlarning boshlarida Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridan olib borildi. Xalq ustalari qo'shni mamlakatlardan me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash jalb etildi. Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'moriy ziyoratgohi ta'mirlarini Samarqandlik ustalar boshlab bergan. Xiva ustalari Turkmanistonning Ko'hna Urganch shahrida ta'mir bilan shug'ullandilar. Toshkentda esa ta'mir ishlarini boshqaruvchi Ilmiy Tadqiqot va Loyiha Instituti restavrasiya ta'sis etildi. Buxoroda "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumenti qurildi. Me'moriy meros obidalarini avaylab asrash, ta'mir etish sohalarida zamon talablariga munosib murakkab va nisbatin ancha qiyin vazifalarni bajaradigan davr endigina keldi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yodgorliklarga boy shaharlar qadimiy markazlari me'moriy qo'riq tarzida YUNESKO ning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani soha mutaxasislari oldida nihoyatda ma'suliyatli vazifalarni ko'ndalang qo'ygan. Me'morchilik keng ma'noda inson mehnatining muayyan sohasi sifatida juda qadim zamonlarda


paydo bo'lib, kishilarning eng zarur turmush ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi.

Insonning turli-tuman amaliy - foydali, ijtimoiy-siyosiy, moddiy, diniy va boshqa ehtiyojlarni qondira oladi. Me'morchilik jamiyatning amaliy-foydali ehtiyojlarini qondirishni o'zining zarur vazifasi va maqsadi qilib olgan.

Ibn Sinoning me'morchilikdagi bu « inson va muhit » nazariyasiga Mikelanjelo hamda Leonardo da Vinchilar ham keng to'xtalib o'tadi. Abu Ali ibn Sino o'zining “Tibbiy risolalar” asarida: “Qaysi shahar tog' ustida joylashgan bo'lsa, u yer sovuq bo'ladi, agar tog'lar tagida joylashgan bo'lsa, uning issiqligi bor” deb hukm qil. Agar shahar tog'ning janubiga joylashgan bo'lsa, unda issiq shamol esib turishi hukm qilinadi. Agar tog'lar shu shaharning janubida bo'lsa, shim-oliy shamolning sovug' unga ta'sir qiladi. Agar tog'lar g'arb tomonda bo'lsa, u shaharning havosi og'ir bo'ladi. Sharq tomonda bo'lsa, toza bo'ladi” deb yozadi. Me'morchilik kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun zarurat tufayli oddiy boshpana va chaylalar qurgan. Asta-sekin u qurilayotgan

binoning ko'rkam bo'lishiga ham e'tibor berib, go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Me'morchilik (lat. architectura so'zidan olingan) - me'morlik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq alohida turidir. Me'morchilik- me'morlik san'ati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi binolarining turi va



uslubini, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvchi san'at sohasidir. Me'morchilik jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy – badiiy ehtiyojlarga xizmat qiladi. Inson dahosi va mehnati bilan yaratilgan muhit turli-tuman

binolar, inshootlar, shahar va qishloqlar me'morchilik nomi bilan yuritiladi. Me'morchilik davr o'tishi bilan o'zgarib borib, jamiyat taraqqiyotidagi tuzumlarning tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Me'morchilik asari amaliy xizmati bilan bir qatorda ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmunni ham ifoda etadi. Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi va ayni vaqtda san'at asari sifatida ham namoyon bo'ladi. Me'morchilik quldorlik jamiyati davrida tez taraqqiy topdi. Jamiyatning sinfiy talabiga munosib uy-joy



va jamoat binolari yaratildi. Me'morchilikning modiy-texnik va badiiy imkoniyatlari ham kengaydi. **Amir Temur va Temuriylar davri me'morchilik san'ati**

XIV asr oxirida Amir Temur davlatida ulkan qurilish ishlari avj oldi. Ular keyingi o'n yilliklarda ham davom etdi. Yangi madrasa, masjid va maqbaralar binolari, qasr va karvonsaroylar qad ko'tardi, shahar mudofaa inshootlari qayta tiklandi.

Ushbu ishlar uchun turli qurilish mutaxassisligiga ega bo'lgan ko'plab ustalar talab qilinardi. *G'isht teruvchilar, suvoqchilar, toshtaroshlar, marmar va yog'och o'ymakorlari* shular jumlasidandir. Samarqand va Shahrisabzda, so'ngra Hirotda qurilishlar ko'lami misli ko'rilmagan tus oladi. Uy-joylar, daha machitlari, savdo do'konlari va hunarmandchilik ustaxonalari qurilishida asosan xom g'isht, paxsa va yog'och ishlatilardi. Yirik inshootda pishgan g'isht, marmar va sirlangan koshinkor qoplamalar keng qo'llanilgan. Mahobatli binolar qurilishiga Sharqdagi turli shaharlardan mashhur ustalar jalb qilingan. 1380-yili Shahrisabzda me'morlar *Oqsaroy* qasrining poydevorini o'rnatdilar. Ulkan

qurilish 25-yil davom etdi. Saroyga kiraverishdagi peshtoqning balandligi 50 metrga yetdi. Saroyning o'zi ikki oshiyonli edi. Uning binosi o'rtasida hovuzi bo'lgan keng hovlining atrofida joylashgan edi. **Samarqand. Xo'ja Ahror valiy masjidi. XV asr.**

Saroy qurilishi yakunlanishi arafasida Shahrisabzga Ispan elchisi Klavixo tashrif buyurdi. Oqsaroyda hali pardoqlash ishlari davom etayotgan edi.



Saroyning savlatidan hayratlangan yevropalik o'z kundaligiga: «Bo'lim va xonalar shunchalar ko'pki, ularni ta'riflashga juda ko'p vaqt kerak bo'lardi», - deya yozib qo'yadi. Klavixoni qabul zallari va xonalar devorlaridagi rang-barang sirlangan bezaklar lol qoldirgan. Shu boisdan uning: «Hatto mohir ustalari bo'lgan Parijda ham ushbu ish o'ta go'zal hisoblangan bo'lardi», - deya ta'kidlashi bejiz emas.

Samarqand. SHohizinda maqbaralar.

Qusam Ibn Abbos qabri.

Bibixonim madrasasi Samarqanddagi mahobatli binolardan biri hisoblanadi. Uning kiraverishdagi peshtoqi Oqsaroyning peshtoqidan baland bo'lgan. Ikkita yirik gumbazli binodan iborat saroy majmuasini gir aylanasiga bir necha yuzdan iborat tosh ustunlar suyab turgan. 1404-yili Samarqandda Go'ri Amir maqbarasi bunyod etildi. Unda Amir Temur va temuriylar sulolasi vakillari dafn etilgan. Maqbaralar qurilishi boshqa shaharlarda ham olib borildi. Turkistondagi *Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi* va Shahrisabzdagi *Jahongir maqbarasi* shular jumlasidandir. Amir Temur hukmronligi davrida turli inshootlar: usti yopiq bozorlar, karvonsaroylar, ko'prik va to'g'onlar, hammom va boshqalar barpo etildi. O'rta Osiyodagi ancha yirik me'moriy yodgorliklar shu davrdan saqlanib




qolgan. Amir Temur Oqsaroy binosining peshtoqiga: «Agar bizning kuch-qudratimizni koʻrmoqchi boʻlsang, biz qurdirgan binolarga boq», - degan soʻzlarni yozib qoʻyishni amr etdi. **Shohizinda** Mirzo Ulugʻbek oʻzining mashhur bobosining xotirasiga chuqur hurmat va ehtirom saqlardi. U Amir Temur tomonidan boshlangan qurilish ishlarini davom ettirish uchun qoʻlidan kelgan hamma ishni qildi.

1420-yili Samarqandning Registon

maydonida Ulugʻbekning buyrugʻiga binoan baland gumbazli va minorali bino -



madrasa barpo etildi. Ulugʻbek madrasalari Buxoro va Gʻijduvonda ham bunyod etildi. Ulugʻbekning mashhur *Shohizinda* («Tirik shoh») qabristonidagi qurilish ishlari ham keng shuhrat topdi. Bu yerda Samarqandning mashhur kishilari, sarkardalar va temuriylar sulolasi vakillari dafn etilgan.



Mirzo Ulugʻbekning ustoz *Qozizoda Rumi* *maqbarasi* ham ajoyib inshoot hisoblanadi. 1436-yili Amir Temurning vatani Shahrisabzda meʼmorlar machit binosini barpo etdilar. Aylanasi 15 metrdan

iborat ulkan moviy gumbazi sharofati bilan ushbu machit *Koʻkgumbaz* nomini oldi. Xuddi shu Shahrisabzda *Gumbazi Sayidon* maqbarasining tamal toshi qoʻyildi. Samarqand atrofida Ulugʻbek ulugʻvor *Bogʻimaydon* bunyod ettirdi. Mazkur bogʻ gullarga va yirik yaproqli daraxtlar yashilligiga burkangan edi. 1429-yili *Obirahmat* arigʻi boʻyidagi *Naqshijahon* degan joyda betakror Samarqand rasadxonasining qurilishi yakunlandi. U balandligi 30 metr boʻlgan uch oshyonli aylana binodan iborat edi. Bino sirparchinli va marmar qoplamalar

bilan ziynatlangan edi. Ushbu inshoot o`rta asrlardagi zilzilalar oqibatida qulagan va hozirgacha saqlanib qolmagan.

Shohizinda maqbaralar majmuasi. Sakkiz qirrali maqbara

Mohir rassomlar binolarning devorlarini rang-barang rasmlar bilan bezaganlar. Ular boy o`simlik dunyosi, daraxtlar, gullar va maysalarni o`zida aks ettiradi.

II.BOB

O`zbekiston madaniy me`rosning o`ziga xosligi

2.1. Buxoro tarixiy yodgorliklari

Buxoro - bir necha asrlarning arxitektura yodgorliklari saqlanib kelayotgan shaxarlardan biri. Buxoroning tarixiy yodgorliklari chet ellarda juda mashhur. Chet el sayyohlarini qiziktirib kelmoqda.



Buxoro Osiyoning eng Qadimgi shaharlaridan biridir. O`zining go`zalligi

bilan takrorlanmas xalq me`morligi obidalari masjid madrasalarini o`z baq`rida saqlagan. Buxoro yodgorliklari chinakam o`zbek va tojik xalqlarining faxri shon - shuhrati sanaladi. Bugungi Buxoro – xalqaro sayyohchilar markazidir. O`zining tarixiy obidalari, o`rta asrlar me`morchiligi namunalari bilan shahar ko`pgina sayyohlarning diqqatlarini o`ziga tortadi.


Buxoro bir necha yuz yillik tarixga ega. O`lkamiz ayniqsa boy bo`lgan qadimiy madaniyat obidalari va asrlar osha hozirgi avlodga xalqning talanti va mehnatsevarligi, uning baxtli hayot haqidagi orzusi va u olib borgan kurashidan hikoya qiladilar. Buxoroni ertak - shahar deb yuritardilar. Darhaqiqat uning ko`hna obidalari, qadimiy me`morchilikka oid arxitektura ansambllari mamlakatda va chet ellarda keng ma`lum bo`lib, har yili

serquyosh shaharni ziyorat qiluvchi minglab sayyohlar o'rtasida katta shuhrat qozongan. O'tmish arxitekturasining durdonalari bo'lmish Somoniylar maqbarasi, Minorai Kalon, Labihovuz, Registon ansambllari, Abdulazizxon, Uluq`bek madrasasi va boshqalar haqiqatan ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklar hisoblanadi. Shaharning me'moriy merosi, an'analar va xalq urf - odatlari ming yillik qadimiy madaniyatini saqlab qolganidan dalolat beradi.

Shahardagi turli tarixiy davrlarga oid yodgorliklar ko'p asrlik me'morchilik bu erda har tomonlama rivojlanganligini namoyon etadi. Qadimiy **Buxoro** shahri eramizning ilk asrlarida qad rostlagan bo'lib, VI asrga kelib dastlabki feodal erlariga kirgan Buxoro vohasining markaziga aylangan. Buxoro shahri (shahriston) qadimiy ark qad rostlagan sun'iy tepalik tevaragida joylashgan. Sekin – asta shahar atrofida hunarmandlar qishloqlari barpo bo'lib, qo'riqlovchi devor bilan o'ralgan. Uning XVI asrga oid qoldiqlari bizgacha etib kelgan. Buxoroning ko'pasrlik tarixi shahar atrofida izlar qoldirgan bo'lib, ular bugungi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Buxoroning eng qadimgi obidasi, albatta, uning qal'a devorlari va darvozalaridir. Q'oyat katta rahnalari ko'rinishida va uzuq holda saqlanib qolgan qal'a devori tevaragi o'lkamiz mudofaa me'morligining noyob obidasidir. Shahar tarixi bilan chambarchas boq'langan va hozir ahamiyatini yo'qotgan tarixiy joylashish o'rnida qal'a devori muhim bosqich sanaladi.

Tadqiqotlar natijasi o'laroq, shahardagi 11-darvozaning nomi tiklangan. Ulardan beshtasi hozirgacha saqlanib qolgan dahalarda joylashgan edi.

XVI asrda shimol tarafdagi Talipoch,




janubiy q`arbiy tomonidagi Qorako`l darvozalari ham mavjud edi.

Saqlanib qolgan inshootlardan birinchisi **Ark davozasi** bo`lib, u q`arbiy tomonga, Registon deb nomlangan maydonga qaratilgan. Darvoza XVIII asrda salmoqdor peshtoq ko`rinishida qurilgan. Ravoqli yo`lning ikki tomoni qo`shbo`q`inli qudratli minoralari bor.

Buxoroi sharifni **Minorai Kalonsiz**

tasavvur etib bo`lmaydi. Shaharga qaysi tomondan yaqinlashmang, ushbu minora ko`z o`ngingizda gavdalanaveradi. Uning tashqi ko`rinishi kishini hayratga solishi turgan gap. Minoradagi nafislik, geometrik aniqlik kun davomida nur va soyalarning o`yini uning benazirligini tasdiqlaydigandek. Minoraning yuqori qismi boshiga kuloh kiyib, salla o`rgan kishini eslatadi, minoraning qo`lasimon pastki qismi esa inson qomatiga o`xshab ketadi.



Buxoro tumanining Sumiton qishloq`ida bunyod etilgan **Chor Bakr** mozori “payq`ambarning avlodi” Jo`ybor shayxlari rahnomosining ajdodi bo`lgan Abu Bakr Sa`d qabri atrofida shakllangan. Sumiton qishloq`i xon hokimiyatining tayanchi bo`lgan “xo`jagon ” darveshlar maslagining muqaddas joyi bo`lib qolgan. Shahrisonidagi me`moriy yodgorlik Dor us – siyodat me`moriy yodgorligi tarkibidagi Jahongir Mirzo maqbarasi **Hazrati Imom** maqbarasi nomi bilan ma`hur. Dastlab sardoba, keyinroq ustiga to`rtburchak

tarxli ziyoratxona tiklangan, tashqi tomondan kichik peshtoq ham bo`lgan.

Vobkent minorasi O`zbekiston me`morchiligining eng latif obidalardan biridir: minora tanasi o`rgan quyi dekorativ yarusdagi kufiy yozuvlarda uning qurila boshlagan sanasi (1196-97) bitilgan, yozilgan.



Bohovuddin naqshbandiya darveshlar maslagining darveshlar maslagining sobiq markazida bunyod etilgan diniy ansambldir. Ushbu ansambldagi asosiy obida xonaqodir. U jamlovchi bino: barcha fasadlari markaziy peshtoqlarning ikkala tomonidan joylashgan hujralar qoshidagi lodjiyalarning ikki qavatli arkadalar ichiga ochilgan. Shahar markazidagi yirik ansambllaridan biri Xo'ja Govkushondir.

Govkushon – “Ho'kiz so'yuvchi” degan ma'noni bildiradi, bu joyda XVI asrgacha kushxona bo'lgan. Labihovuz ortida, shaharning shimoli – sharqiy qismida, ochiq maydonda q'aroyib obida - **Chorminor** (“To'rt minora”) bor. U badavlat Xalifa Niyozqul tomonidan qurilgan katta madrasadan saqlanib qolgan yagona bir bo'lagidir.



Sobiq savdo yo'li an'naviy “to'rt bozor” XVI asr solnomachisi Hofizi Tanish Buxorodagi qadimiy chorsu o'rnida 1569-70 yilda savrastalari ichida eng yirigi, baq'oyat ajoyib bino – **Toqi Zargaron** bunyod etilganini aytadi.

Toqi Telpakfurushonda serhasham bosh kiyimlar –zardo'zi va munchoq qadagan do'ppilar tulki mo'ynalari xarid qilish mumkin bo'lgan.

Toqi Sarrofon gumbazi ostida sudxo'rlik va bitimlari “bankir” – sarroflarning bankirligi amalga oshirilgan.

Toqi Sarrofon Shohrud ariq'i sohiliga olib chiqadi. U Buxoroni obi hayot bilan ta'minlagan qadimiy suv yo'lidir. Bulardan tashqari yana bir necha me'moriy obidalarimiz bor. Tarixiy yodgorliklarimiz Buxoro ko'rkiga yanada ko'rk qo'shib turadi.



Ko'xna Buxoroning har bir toshida moziyning muxri va harorati bor. **Somoniylar** maqbarasi ana shunday ajoyib me'moriy obidadir. Somoniylar maqbarasi (914-yil) uncha katta bo'lmagan mo'jaz q'ishtin bino.

Uni ba'zan Chortoq ham deyishadi, chunki to'rt tarafida bittadan raboqi bor. Bu bino tipi qadimgi qo'shinlar kelbaniti eslatadi va u o'zida ilk o'rta asr me'morchiligining eng yaxshi usullarini mujassam etgan.

Maqbara o'zining juda ko'rkam, tarxi bejirim, mo'jaz va mutanosib shakli, tuzilishi, bezaklari bilan insonni o'ziga maftun etadi. Oddiy chorsi q'ishtidan terib shunday go'zallik namunasi yaratilganki, me'mor maxoratiga qoil qoladi kishi. Bino asosi kubsimon xajmli va uning ustidagi gumbazdan tashkil topgan.

Shaharliklarning eng sevimli joyi – ulkan va chiroy topgan **Labihovuz** me'moriy arxitektura ansamblidir. Ansamblning negizi amir vaziri Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan barpo etilgan Ko'kaldosh madrasasidir. Yarim asrdan keyin amirning saroy amaldori Nodir



Devonbegi madrasa ro'paro'yisida ikki qavatli hujralardan iborat bo'lgan karvonsaroy, keyinroq madrasaga aylantirilgan bino qurilishiga buyruq berdi. Shu vaqtning o'zida u shahar aholisining asosiy suv bilan ta'minlovchi Shoxrud ariq'ining q'arbiy qirq'oq'ida katta gumbaz-peshtoqli jamoat ibodatxonasi va diniy yiq'inlar o'tkaziladigan bino Xonaqo qurilishini buyurdi. 1620 yilda Nodir Devonbegi ikki bino o'rtasida katta hovuz qurilishini ham tashkil qilgan.

Buxoro O'zbekistonda va yaqin Sharqda yirik viloyatlardan biri. 10-15 yillardan Buxoro qiyofasi o'zgarib, shaxar juda obod bo'ldi.

Buxoroda IX –asrdan to hozirga qadar barcha tarixiy davrlar xalq me'morchiligining eng qadimiy arxitektura yodgorliklari saqlanib qolingan. Shuning uchun Buxoroning arxitektura muzeylari shaxri deb atalishi bejiz emas. 30 dan ortiq arxitektura inshooti davlat xisobidadir. Darxaqiqat uning ko'xna obidalari qadimiy me'morchilikka oid arxitektura ansambillari mamlakatda va chet ellarda keng ma'lum bo'lib xar yil serquyosh shaxarni ziyorat qiluvchi minglab chet el sayyoxlari o'rtasida katta shuxrat qozongan.

O'tmish arxitektorlari durdonalari bo'lmish Samoniylar maqbarasi, Minora kalon, Labi Xovuz, Registon ansambillari, Abdulazizxon, Uluq`bek madrasalari Chor Minor boshqalar xakikatdan ulkan tarixiy axamiyatgaega bo'lgan nodir yodgorliklar xisoblanadi. Obidalar o'tmish donishmandligining bebaho xazinasini bo'lib qolmoqda, uning sirlari yillar o'tgani sayin yanada ochila boradi. Obidalarni yozma hujjat singari saqlab qolish zarur. Bugunki kunda bu masalalar butun dunyo me'morlari hal qilayotgan eng o'tkir va dolzarb muammolar qatorida turadi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishganidan so'ng ko'hna obidalarga e'tibor yanada kuchaydi. Ko'plab madrasalar va saroylar, noyob yodgorliklar ta'mirlandi. Ularni biz kelajak avlodlarga avaylab – asrab etkazish uchun tinmay q'amxo'rlik qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida Buxoroda barpo qilingan muhtasham binolar, xiyobonlar, masjidular madrasalar, ko'hna sharq usulida qurilayotgan bozorlar va rastalar, qad rostlayotgan mexmonxona va boshqa inshootlar shaharga ko'rkamlik baxsh etadi, shukuhini orttiradi. Shahar xalqi hayotida ham buyuk ijodiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Insoniyatni xayratga solib, asrlar osha o'z fayzu tarovatini yo'qotmay kelayotgan bu tarixiy yodgorliklarning umri boqiyiligiga shubha yo'q, chunki bular to'q'risidagi rivoyatlar xalqimizning yuragiga singib ketgan. Bu yodgorliklarni xalqimiz ko'z qorachiq`idek asraydi.

2.2 Buxoro manzarasi kompozitsiyasini ishlagan rassomlar

Бухоро давлат бадиий меъморчилик музей-қўриқхонаси таркибига кирувчи ихтисослаштирилган музейларда сақланаётган юзлаб тасвирий санъат асарлари ҳамда воҳанинг бой ҳунармандчилик анъаналарини намоён этувчи заргарлик, зардўзлик, каштачилик, кулолчилик буюмлари mavjud. Экспонатлар орасида қадимий Варахшадан топилган V-VI асрларга оид “Шахзода уюштирган қоплон ови” деворий рангтасвир композицияси фотосурати, Бухоро тасвирий санъатида ўчмас из қолдирган П.Беньковнинг “Қўш мадраса”, С.Поччаевнинг “Минораи калон” асарлари ва миллий ҳунармандчилигимиз анъаналарини муваффақиятли давом эттириб келаётган кулол А.Нарзуллаев, миниатюрachi Д.Тошев, рассомлар Э.Жўраев, З.Саиджонов, ҳунармандлар К.Муқимов, З.Оллобердиева, Б.Жумаев яратган амалий санъат намуналари томошабинларда катта қизиқиш уйғотмоқда. Кўргазмадан санъат сирларини энди эгаллаётган ёш рассом ва амалий санъат вакиллари асарлари ҳам ўрин олган, дейди Бухоро давлат бадиий меъморчилик музей-қўриқхонаси директори ўринбосари. Бу ерда умумтаълим мактабларининг тасвирий санъатга қизиқувчи ўқувчилари ўртасида танловлар o'tkaziladi. Ҳозирги кунда қатор таълим муассасалари, жумладан, Бухоро шаҳридаги 6-умумтаълим мактаби билан яқин ҳамкорлик қилмоқдамиз. Мазкур мактаб ўқувчилари этнография ва бошқа фанлар бўйича машғулотларни кўргазма залларимизда ўтказиши яхши анъанага айланган. San'at yodgorliklari kollektiyasi mavjudligi tufayli muzey 1985 yilda hozirgi nomiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, muzeyda O'zbekistondagi P.P.Benkov, M.I.Kurzin, V.I.Ufimstev. N.V.Kashina, R.Ch.Choriev kabi yirik rassomlarning kartina va etyudlaridan iborat qimmatli to'plami mujassamlashgan. Muzey 1920 yilda vujudga kelgan. P.P.Benkov O'zbekistonga ko'chib kelgan dastlabki yillari (1929-32) sermahsul bo'lib, bu yillarda rassom maishiy janrga xos kompozitsiyalar yaratdi.

Quyoshga cho'mgan asriy me'morchilik obidalari, sergavjum ko'chalari xalq hayoti tabiat qo'ynida o'ziga xos koloriti bilan ajralib turadi. Benkov o'z ijodida klassik realizm va impressionizm an'alariga tayanib chuqur realistik asarlar aniq milliy borliqni, odamlar psixologik xolatlarini ochib berish bilan birgalikda shoirona idrok etish va interpretastiya qilishga erishdi. Bu davrdagi asarlarning ko'pchiligi Buxoro, Xiva, Samarqand shahar va uning atrofidagi hayotni aks ettirishga qaratilgan. Rassom dastlabki yillarda shovqin va gavjum bozorlarni sevib ishlaydi. «Buxorodagi usti berk bozor», "O'zum bozori", "Sabzavot bozori", "Ko'cha", "Buxoro bozori" (1929-30 yillarda ishlangan) va boshqa asarlarida hayot erkin va tez ishlatilgan kuyuq rang surtmalarida aks ettirilgan. Rassom bu yillarda shaharning gavjum yig'ilish joylari bo'lgan choyxonalar, «Bibixonimdagi choyxona" (1930), Sharq ko'chalaridagi ustalar, kotib va b. o'ziga xos mehnat qilishlarini evropaliklarga xos qiziqish bilan tasvirlaydi Uning "Ko'cha kotibi", 1929 DSM, asarida kotib oldida o'ltirgan ayol va eshikdan ko'rinib turgan ko'cha tasvirda aks ettiradi. Bu asarda rassom rus demokratik san'at an'alariga sodiqligi ko'rinadi Benkov sharq ko'chasidagi kichik bir lavhada shaharning rassom yashagan davr xususiyati jonli talqin etiladi. P.Benkov zamonaviy mavzuga alohida e'tibor bera boshladi. Bunga davr talabinig tasiri etarli edi. Hayotga kirib kelayotgan yangi urf odatlar, ayollarning ijtimoiy hayotga jalb etilishi mavzusi rassom ijodidan o'rin olaboshladi. "Hujum" shoyi fabrikasi 1931-32. "Registonda 8 mart" 1933, "Xivali ip yigiruvchi" 1930, Sharq ko'chasi va b. asarlari shunday ruhda aks ettirilgan. Rassom manzara janriga ham murojat qildi. Bu mavzuda ham ijodkor 30 yillar ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni azaliy tabiat ko'rinishining inson faoliyati bilan o'zgarib borayotganini aks ettirishga harakat qiladi. "Chigiriq", "Ravot qurilishi" kabi asarlarida inson mehnati, qurilgan chigirik, to'g'on ko'rinishlarida ifodasini topgan. Suv muammosini primitiv o'tmish ko'rinishiga Yangi industrilashgan to'g'onlar qurilishini taqqoslash orqali ko'rsatiladi. Tabiat manzaralarining ulug'vor ko'rinishi asar emostional tomonini ko'chaytirgan.

Benkov idodi sermahsul bo'ldi. Rassom ayni shu yillarda o'zining yirik, kompozistion tugal asarlarini yaratishga muyassar bo'ldi. Bo'lar ichida, "Dugonalar" 1940, kompozistiyasi alohida o'rinni egallaydi. Ikki xalq vakili o'zbek va rus qizning uchrashuvida insoniyatning orzusi do'stlik xalqlarning bir-biriga xurmati badiiy ifodasini topgan. Asar koloriti ham yorqin, baxavo. Albatta, asardagi hamma tasvirlangan buyum va obrazlar birxil badiiy echimga ega bo'lmasa ham, leki unumli ko'tarinki ruhi asarga ilxombaxsh mazmun ato etdi. 1928 yilda P.P. Benkov Buxoroga keldi. Bu voqea rassom taqdirida burilish bo'ldi. Uning Buxoroda yashagan davri juda sermahsul bo'ldi. 1961 yilda Moskvada P.P. Benkov asarlarining shaxsiy ko'rgazmasida uning Buxoroda yaratgan kartinalari son jihatidan ham va badiiy sifat jihatidan ham markaziy o'rinlarni egalladi.

P.P. Benkovning Buxoroda yaratgan asarlar stikli Buxoro Tasviriy San'at muzeyidan tashqari O'zbekiston davlat san'at muzeyida (Toshkent), Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyida (Nukus), Sharq xalqlari davlat san'at muzeyida (Moskva), Samarqand davlat muzeyida, va xususiy to'plamlarda:



rassom Z.M. Kovalevskayaning oilasida hamda rassomning qizi N.P. Benkovada (Moskva) saqlanmoqda. Rassom tomonidan Buxoro zaminida yaratilgan birinchi asarlardayoq xalq turmushining o'ziga xos milliy xususiyatlari katta badiiy mahorat bilan ifoda etilgan, mahalliy ranglar xilligi aniq tasvirlangan. Bu polotnolar mo'yqalamning erkin harakati va keng qamrovi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda Buxoro Tasviriy San'at muzey ekspozitsiya va fondlarida saqlanayotgan asarlar turlarga bo'linishi, jiddiy va muhim voqealarni alohida va ayrim qilib ishlanganligi bilan kishi e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Ularda xarakterli va tipik xislatlar aniq ravshan payqab olingandir. Bunga "Piyola ushlagan tojik" (1928) kartinasini misol qilib olish mumkin. Unda mag'rur o'z insoniy qadr – qimmatini to'la anglagan kishi ifodalangan. Uning ehtirozla qurqshab ketgan keng yonoqli yuzlari, moshgruch cho'qqi soqoli chor cho'pda tasvirlangan. Sal yumilgan o'rtacha ko'zlari tomoshabinga kibr bilan boqqandek. Tojikning basavlat qomatiga xuddi chor cho'p torlik qilgandek tuyuladi. Ranglar uyg'unligidan ustalik bilan foydalangan rassom piyolani kompozitsiya markazining yagona nuqtasi qilib ko'rsata bilgan. Rassom sallaning ko'kish rangini choponning to'q ranglariga o'zviy ravishda hamohang qilib yuborgan.

"Dehqon portreti" (1928) ruhiyasiga ko'ra ziddiyatlidir. Bu kekxa kishining qiyofasi, yuz ifodalari uning o'zoq serzahmat hayotidan guvohlik beradi. Har taraflama serzavq ranglar mazkur portretda ham yaqqol ko'zda tashlanadi. Kartina muhiti vazmin, so'lg'in – yashil, moviy va turli tuman tuslar ta'sirida tug'ilgan oq ranglarning o'zaro uyg'unligi asosiga qurilgan. Portret kishini holdan toydiruvchi bayonchilik va quruq detallardan iborat bo'lmay, ko'z o'ngimizdagi matoga kamolatga etishgan usta va iste'dodli rassom mo'yqalami vositasida yaratilgan to'kis emostional ifodaviylik va dadil plastik badiiy umumlashma obraz namoyon bo'ladi.



P.P. Benkovning o'ta o'tkir xarakterli portret kartina asari "Buxoro amaldori" 1928 yil chizilgan bo'lib unda o'z mavqeini teran anglagan, murakkab hayot sinovlarida toblangan, hech qanday kuch irodasini buka olmaydigan, o'ziga ishongan, oldingi xayotidan nolimaydigan inson qiyofasini

ustalik bilan tasvirlagan. Har taraflama serzavq ranglar mazkur portretida xam yaqqol ko'zga tashlanadi. Kartina muxiti vazmin, salmoqli och sariq, to'q sariq, zangori, qizil oq ranglar o'yinidan tashkil topgan.

“Xo'ja Zayniddin bobo masjidi” (1928) manzarali kartinasida rassom erta tong pallasidagi borliq olam ko'rinishini noziklirizm bilan ifoda etadi. Masjidga tomon og'gan zangor tok novdalari quyosh shulasiga g'arq. Rassom zangori rangning bor tusini – sovuq zumrad rangdan toki issiq ranggacha – sarg'ish rangda aks ettirgan. Hovo'zning mayin moviy suvi, osmon moviyliigi, teranligi va nozikligi bilan omuxta. Rassom ranglar yorqinligini ularni tig'izlash yo'li bilan emas, balki rang tustlarni o'rniga qo'yish bilan hosil qiladi. P.P.Benkov ishlardagi soyalar, ranglarning ustakorona qo'llanishi tufayli o'zining engilligi nozikligi bilan ajoyib taassurot tug'diradi. Kartina politrasining har qancha yorqinligi dog'lar joylashishida ola-bo'lalilik va tasodifiylikni yuzaga keltirmaydi. Yuqoridagi asarlardan tashqari muzey fondida rassomning “Buxoro karvon saroyi” (1928), “Qo'sh madrasa”(1929) , “Yopiq ko'cha” (1928), “Buxorolik bo'yoqchi yahudiy portreti” (1930) hamda “Qizil armiyaning Buxoroni zabt etishi” (1929) kabi asarlari saqlanmoqda

P. P. Benkov asarlarida rang va nur birgalikda issik jazirama va salqin-sovuq xislar uyg'otadi. Rang-rassomning jonu dili. U orqali rassom insonga va borliqqa o'z muno-sabatini ifoda etadi. P. P. Benkov qaysi janr va qay bir mavzuda ishlamasin; rang ha-misha uning tasviriy va xis-tuyg'uga boy, rang tasvir asarlaridagi ifodaviylikning bosh mezoni bo'lib qoladi. Hajman o'rtacha bo'lgan „Hazrati Imom mozori" (1934) kartinasi muvaffaqiyatli chiqqan. Unda sovuq, kul-rang va moviy tus hukmronlik qiladi. Rassom o'z tasavvurida O'rta Osiyo arxitekturasini monumental ulug'vorlikda ko'radi.

Muzey fondlarida **N. P. Chernovning** Mexnat qahramonlari chorvadorlar Ekubboy Sobirov va Mirzali Janaboevlarning portreti saklanmoqda. Portretdagilar anfas (tomonshabinga qaratilgan) holatda tasvirlangan. Ularning yuzlarida oddiy xalqqa xos donishmandlik va yumor mujassam. Bu ishlar unda

qullanilgan ranglarning vazmin uygʻunligi uzun-yassi koʻrinishdagi talqini bilan ajralib turadi. Ularga taʼsirchan soddalik alomatlari xos.

40-yillarning oxirida Buxoroda rassomlar **M. I. Kurzin va G. N. Nikitinlar** yashab, ijod qilishdi. BDABMning ilmiy arxivida muzey tomonidan bir qator ishlar uchun M. I. Kurzinga buyurtma berilganligi haqidagi maʼlumot saqlanadi.

1947 yil M. I. Kurzin Buxoro manzaralaridan tashqari „Yer isloxoti eʼlon qilinishi munosabati bilan miting“ (1947) nomli kichik tematik kartinasini yaratdi. Bu kartinada yuz va qiyofalari zoʻrgʻa anglashiladigan olomon tasvirlangan. Rassom yirik, uzib-uzib berilgan erkin oʻzlashtiruvchi boʻyoqdan foydalangan.

Georgiy Nikolaevich Nikitin BDABMKda 40-yillar oxiridan to 50-yillarning boshigacha ishladi. Muzeyning tabiat boʻlimi ekspozitsiyasi uchun akvarelda bir qancha ishlarni bajardi. (Ularning ayrimlari hozir ham saqlanmokda). 1948 yil A. Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan G. N. Nikitin boshchiligida muzeyda badiiy bezatish ishlari amalga oshirildi. 1958 yil ezda leningradlik **N. A. Buranov** va toshkentlik **R. Ch. Choriev** studentlik praktikasi davrida Buxoroda boʻldilar. Muzey fondlarida R. Ch. Chorievning Buxoro arxitektura ansambllari, tigʻiz bozorlar, Gazlidagi parmalov mezanalari, janrli manzaralar ifodalangan. Koʻplab etyudlari saqlanadi. Sanʼat muzeyi ekspozitsiyasida R. Ch. Chorievning „Amirlikning agdarilishi“ (1964) kartinasi oldinga oʻrinni nigrol etadi. 60-yillarda Buxoroda rassom **G. V. Sobolev-Melexov** yashadi. Garchi rassom Buxoroning qizgan quyoʻsh nurlari singigan tabiati baxsh etgan xissiyotlarini xar doim xam koʻngildagidek ifoda etolmagan boʻlsada, uning lavxalari taʼsirchandır. Osmon va suv ranglarining uygʻunlashib ketganligi munosabati, ularning pushti rang-kumush tusalari toʻgʻri topilgan nozik lirik etyudlar eʼtiborni uziga qaratadi. Hovuz satxidagi osayishtalikni hech kim buzmaydi, uning koʻksida ask etgan daraxtlar va yarim vayrona Buxoro devorlari abadiyat kabi boqadi („Koʻhna Buxoro devori yonida-gi hovuz“, 1968). Buxoroga kelgan professional rassomlar taʼsirida haqiqiy buxoroliklarning

o`zlari ham rangtasvir bilan shug`ullana boshladilar. Buxorolik xavaskor rassomlar ijod etganlar.

70-yillar oxiridan boshlab Buxoroda mahalliy rangtasvirchi va grafiklar B. Salomov, N. Boboev, A. Hazratov, M. Abdullaev, A. Barnoev, 3. Saidjonov, P. Abdulxayrov, P. Gulkorovlar ish bosh-ladi.

Bahodir Salomov o`z ijodida kupincha za-mondoshlar, xususan ayo'llar obraziga va peyzajga murojaat kiladi. Zaminga yakinlik (rassom k.ishlokd,a tugilgan) uning muyka-lamini tez-tez qishlok, manzarasi sari tortadi. U bu manzaralarda hayo't. o`tmish va bugungi unning o`zaro borliqligi hakidagi uy andishalarini izxor qiladi. „Daraxt odam bilan yashaydi“ (1978) kartinasida o`zbek hovlisining bir parchask loysuvoqa qilingan e'roch ayvonli pastvam kulbani ifoda etadi. Kulba uzra egilgan qari chayir daraxtning birgina shoxi yashil yaproqlar bilan qoplangan. Xavotirli osmon moviy, ko`k, binafsha va qizg`ish ranglarga bilan berilgan.

Muzaffar Abdullaevning Rassom, grafik.

1953 yil Buxoroda tug`ildi. S. Orjonikid-ze nomidagi BDPIning rassomchilik-grafika fakultetida o`qidi (,19 71—1975).ikki - „Kuzgi oqshom“, (1983) va „Dorbozlar. Bayram“ (1982) kartinalarini sotib oldi. Sunggisi - xam rang,xam mazmuniga ko`ra shartli majoziydir.

1986 yil muzey **A. Barnoevning** „Akam xotirasi“ (1986) kartinisini va Akam xotirasi" kartinasi emotsional kechinmaning ta'sirli ifodasidir. Ritm va chizgilarning ham gorizontal, ham vertikal yo`nalishi xavotir, beqarorlik hissini uyg`otadi. Shakllarning chap va o`ngda vertikal bo`ylab egilishi tarang tortilgan, biroq, bugilgan torni yodga soladi, bu tor titrar ekan undan g`amgin va ingroq sadolar yangraydi. Qayg`uli kimsalarning qalbi ana shunday asab torlariga o`xshaydi.

A. Hazratov Rassom, grafik.

1956 y. Buxoro viloyati, Romiton noxiyasining Arabxona qishlogida turildi. M. Olimov nomidagi Dushanbe rassomchilik bilim yurtida

V. Odinaev rahbarligida o`qidi (1974-1980), „Bolalik xotiralari“ turkum kartinalarida samimiy bolalik pallasida kurgan-kechirganlarini shoirona ifoda etadi.

Hozirgi paytda muzey Buxoroning rassomlari yaratgan yangi asarlari bilan boyib boryapti.

Ahadov Farid Jamolovich. (1936-1983). Rassom, raem va chizmachilik fanlarn ukituvchisi. Buxoro viloyati G`ijduvon shaesrida tug`il-di. Nizomiy nomidagi TDPIning rassomchilik-grafika fakultetida o`qidi (1955 — 1959).

Boboev Nison Abramovich.1949 yil Buxoroda tug`ildi Nizomiy nomidagi TDPI rassomchilik-grafika fakultetida. N. Bannikov ko`li ostida o`kidi (1969 — 1974

Boboev Xasan. Buxoro. Rassom. xalk amaliy san`ati ustasi. 1907 y. Buxoroda tug`ildi. Moskva hunarmandchilik texnikumida o`qidi (1925 — 1926), sungra Bog`chasaroy shahridagi Sharq xalqlari hunarmandchiligi texnikumini tugatdi (1926 — 1927) .1961 yil XX asr boshida Buxoro savdo ko`chasi asari ishlangan.

Baqoev Muxiddin Mubinovich.

1953 y. Buxoroda tug`ildi. P. Benkov nomidagi RRB Yuda (1968-1973) G. Moiseev qo`li ostida va A. Ostrovskiy nomidagi TTRIda (1973-1983) R. Axmedov rahbarligida taxsil oldi. 1986 yil Kuzgi natyurmort asari ishlangan.

Raufov Sulaymon Naiyevich. Rangtasvirhi teatr rassomi, pedagog. 1936 yil Buxoroda tug`ildi. A. Ostrovskiy nomidagi V. Riftin va R. Axmedov qo`l ostida ta`lim oldi. Rassom tomonidan 1961 yil Qish dekabr, 1961 yil Kuz, 1962 yil Bahor, 1962 yil Yoz iyul asarlari ishlangan.

Saidjanov Zelimxon Magometovich Rassom , grafik.



1984 yil Buxoroda tug`ildi, N. Krupskaya nomidagi Moskva sirtqi xalq san`ati universitetida o`qidi. Rassom tomonidan 1974 yil Arra bilan natyurmorti ishlangan.

2.3 Moybo`yoq texnikasida manzara ishlash

Har bir halq o`z tarixini avaylab keladi, bu tarix ne`matlari bo`lmish qadimgi merosimiz, ayniqsa O`zbekiston istiqloli tufayli, kishilarning milliy ruhda axloqiy va odobli qilib tarbiyalash masalasiga bo`lgan e`tibor yanada kuchaydi. O`zbekiston istiqlolini mustahkamlashda va uni rivojlantirishda ma`naviy soq`lom avlodni voyaga etkazish, ularda milliy urf-odatlarimizni shakllantirish zarur. Zero, halqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan axloq odob fazilatlarini, o`tgan ota-bobolarimizning ruhiy ziyoratdir. Ajdodlarimizning tabarruk xotirasini abadiylashtirish esa bugungi va kelgusi avlodlarning muqaddas vazifasidir. Shuning uchun vaqti-vaqti bilan ziyorat qilish, ulardagi ota-bobolarimiz tomonidan bino etilgan ajoyib tarixiy obidalarni, ayniqsa madrasalar, xonaqo , masjid, maqbaralarning qurilish tarixini bilish har bir inson uchun zaruriy vositalar bo`lib hisoblanadi.

“Buxoro” kompozistiyasini moybo`yoqda bajarish jaryonida avvalambor bir nechta Buxoro manzarasini suratga oldim va bir manzarani tanlaganimdan so`ng uni ishlashga kirishdim. Avvalambor eskizlar , koralama, rang lavxalarni ishladim.

Xar kanday rassom yoki shu soxa bilan shugullaniuvchi shaxs uz oldiga anik maqsad qo`yadi. Kuyilgan maqsadning muammosi esa goyani yuzaga chikarish bilan boglik xususiyatni ta`minlaydi. Bu borada nimalarga e`tibor ajratish kerak

- 1 birinchi navbatda mavzuni anik tanlashi va ish joyini ta`minlashi zarur
- 2 mavzu buyicha bir necha koralama, ranglavxalar bajarish nazarda tutiladi.

Albatta kilingan xar bir ish maxsuli maqsadli goyani yuzaga chikarishi uchun xizmat kiladi. Bu ishlar amalga oshgach, ishlar yaxshilab kuzatilib eng yaxshi va eng samarali obektlari yagona maqsadga buysindiriladi.

Ish buyicha yagona karorga kelingach, dastlabki ishni qalam, kumir kabi yoki sangi va postelda bajarsa foydadan xoli bulmaydi. Keyin esa bajarilgan ish ulchami aniklanib reykalari tayyorlanadi.

Ishni mato yoki kartonga xam bajarish mumkin agar u matoda bajarilsa mato ranga turt tomondan dastlab karama karshi tomondan mustaxkam tortilib mixlanadi sungra elimli grunt bilan surtib ishni bajarish mumkin.

Buning uchun muvaffakiyatli variant qalamni bosmay engil tarzda tasvir matoga kuchiriladi. Tasvirni rang bilan bajarish korongi obektlardan boshlanib yorug joylarga extiyotkorlik bilan ishlov beriladi. Ish jarayonida xar bir obektni obektdagi buyumning shakli tus darajasi eng kizikarli va uziga jalb kiladigan xususiyatlarni yuzaga chikarish aloxida axamiyat kasb etadi. Chunki obekt va uning atrofidagi narsalardagi rang munosabatlari uygunligi yagona kaloritni yuzaga chikarilishini nazardan kochirmaslik kerak ayniksa buyoklar eritmasi obekt buylab okib ish sifatini buzmasligini ta'minlashi bu uchun eritmani m'yorida tayyorlash, muyqalamni tez-tez yuvib artib turish tavsiya etiladi. Buyokning xaddan tashkari kup yoki yupka kuyish xam uncha chiroyli natija bermaydi. Ish jarayori akvarel va moy buyoklarda bajarilishiga karab murakkab yoki engil kechadi. Yukorida kayd kilinganlar amalga oshgach bajarilgan ish obdon sinchiklab urganiladi, kamchiliklar bartaraf kilinib umulashtiriladi. Endi muyqalamlarning xususiyatlari uzgacha ular urkir uchli , teki syoki aylana shaklda buladi, tabiiy moy buyoklar xam akvarel buyogi kabi maxsus tyubiklarda saklanadi. Eritgichlar, rostvaritel, ravbovitel, lyanoviy masla kabilarni tashkil etadi. Ok buyok boshkalarga nisbatan uch marta kup ishlatiladi va rangning jozibadorligini oshiradi. Fikrimiz dalili sifati klassik rassomlar ishini kuzatish foydadan xoli emas masalan: Repin, Benkov, Rembrant, Rubel kabi rassomlar tshida bu tartibdagi effektlar juda urinli joy olgan. Shuningdek kishini diqqatini uziga jalb etadi. Bunday xolatni uzok mas Buxoro san'at muzeyida namoishga kuyilgan Benkovning «Buxoro amaldori» asarida yakkol kuzatish mumkin.ish jarayoni kuyilgan maqsad uchun xizmat kilib xar kun ikki soatgacha

va bir necha kun anik belgtlangan vaqtlarda davom etishi mumkin. Bu xolat ish tugaguncha davom etadi. Jayon tugagach xar bir detal sinchiklab kuzatilib uzok yakin ilik yoki sovuk ranglar darajasi me'yoriga keltiriladi.

Chunki manzara yozilayotgan vaqtda birinchi urta va keyingi planda joylashgan obektning turli tus darajalari rang perspektivasi yoki fazoviy planlikni ta'minlash ishni muvoffakiyatli chikishi uchun tulik xizmat kilishi shart. Bu esa uz navbatida rang muammolarini nisbiy xal kilishga, goyaning dolzarb muammosini yuzaga chikarishda zarur qonun-koidalarga amal kilishning eng kulay xisoblanidi.

Ish jarayonining borishi bitiruv malakasining amaldagi muammolari va echimi, kuxna shaxar manzarasi. Men bitiruv malakaviy ishim bo'yicha aniq ob'ektni tanlashim uchun shaxar bo'ylab uzoq sayoxat kildim. Ob'ektlarni sinchiklab urganib, bir necha koralama va rang lavxalar bajardim.

Ob'ektlarda joylashgan past baland kuchalar gavjum odamlar xarakati, eski va yangi binolar kiyofasini kuzatib dikkat nazarimdan kochirmaslikka xarakat kildim. Koramalar bajarish jarayonida ayrim detallarni olib tashlash yoki kushib kompozistiya mazmunini boyitishga xarakat kildim.


Kompazistiya tanlovi, perspektiva kengligi, mavzuning dolzarbliqi.

Manzara kompazistiyasini bajarishga axd kilgan ekanman tanlovning talabiga muvofik o'z muammolarim mavjudligini sezdim. Shuning uchun kompazistiya tanlovi talab darajasida bulishi, turli kurish nuktalaridan bir necha marta bajarilishi shartligini tushinib etdim. Xar bir ob'ektning uziga xos muammolari bo'lib men yakuniy xulosaga keldim. Kuzatilayotgan ob'ektning eng muxim aniqrog'i kishini o'ziga jalb kiladigan joylarini boshka detallarga nisbatdan ko'prok ishlashga to'g'ri keldi. Bajarilgan ishlarning kay tarzda muvaffakiyatli chiqishiga bog'liq bo'lib kompazistiya tanlovi asos bo'lib xizmat qildi. Maqsad esa ko'hna shaharning ko'chalarida uzoqdan ko'zga tashlanayotgan qadimiy Poyi Kalonnini bajarish edi.

Perspektiva kengligi Manzara mavzusida ish bajarish jarayonida perspektiva qonunlari muxim rol uynaydi. Xayotda ko'pgina klassik rassomlar tajribasiga suyanib tasvirni savodli kurish, rang muammolarini echimini ta'minlash perspektiva qonunlariga amal kilishni talab kiladi.

Bu uchun avvalam bor chizikli perspektivani bili shva fazoviy perspektivaga amal kilishi shart, chunki kuzatilayotgan juda kata bushlik xajmdan iborat manna shu bushlik va xajm tasvirda yagona maqsadni yuzaga chikarishda xizmat kilishni ta'minlash zarur. Bunday xolatlarda kurish nuktasi, tutashuv nuktalarini anik topilishi bilan boglik buladi. Aks xolda planiylik xususiyati yukolib, detallarni uzok-yakinligi yoki muammoni kuchayishiga olib keladi, tasvirda detallar bir birini tuldirib kamchimliklarni bartaraf etib kungilga orom baxsh etuvchi xissiyotlarni yuzaga chikarishni ta'minlaydi. Tasvirdagi pala partish joylar yuqolib yokimsiz joylar uzining asl kurinishiga ega bulib koladi. Yukoridagilarga tula konli tarzda amal kilish maqsadini yuzaga chikarib muammoning dolzarbligini ta'minlaydi.

Moyli bo'yoqlar



Moybo'yoqlar turlari.

Birinchi gurux – asosiy tashqi bo'yoqlar: svinestli oq, rtutli kinovar, neopaliton sarig'i, zarg'aldoq qadimiy, to'q qadimiy o'rtacha va yorqin kadmiy, qizil qadmiy, yorqin yashil tusli qadmiy.

Yuqorida sanab o'tilgan bo'yoqlarning o'ziga xos xususiyatlari ular tabiatan yorqin, o'ta zich, tus nisbatlari moy bilan qorishtirilganda o'zgarmas hisoblanadi. Moy ularni tus nisbatlarini o'zgartirmagan holda, aniqrog'i och yoki to'q qilmasdan o'ziga xos yorqinlik beradi. Ikkinchi gurux – lessirovka bo'yoqlari – shaffof va yarim shaffof bo'yoqlar: ultromarin, to'q qizil, volkonsoit, zumrad, yashil, Van-Dik jigarranggi, kuydirilgan siena, tabiiy umbra. Bu bo'yoqlar moy bilan qorishtirilganda to'qlashadi va o'zini quruq kukun holatidagi rang tusi bo'yicha keskin farq qiladi. Moy ularni rangi va tusini quyuqlashtiradi, ularga shaffoflik, jarangdorlik va o'ziga xos chuqurlik bag'sh etadi. Mato yuzasiga berilganda bu bo'yoqlar yorqinlashadi, so'nadi, xiralashadi, o'zining shaffofligi va jarangdorligini yo'qotadi.

Ish jarayonida birinchi gurux bo'yoqlari to'qlashmaydi bu noxush vazifani ikkinchi gurux bo'yoqlari bajaradilar. Bularni rassom bo'lishi shart va ularning yorqin tuslarini qo'llash jarayonida o'ta ehtiyotkor va oldindan ko'ra biladigan bo'lishi kerak.

Yordamchi suyuqliklar Rassom kamdan kam holatlardagina bo'yoqni tyubikdan oliboq, u bilan asar yozishga kirishadi. Odatda esa bo'yoq quriganida o'zining yorqinligini yo'qotmasligi va suyultirish uchun palitrada qorishtiradi. Bu maqsadda esa razbavitel, rastvoritel, lak kabi turli suyultirgichlardan foydalaniladi. Bu barcha suyuqliklardan noto'g'ri foydalanish esa salbiy oqibatlariga olib kelishini unutmagan holda rassom bulardan oqilona foydalana bilishi kerak. Bo'yoqni yanada yopishqoq qilish uchun uni o'zi qorishtirilgan moy bilan suyultirilganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, buni qilish kerak emas, chunki, moyni ortiqcha bo'lishi rangtasvir uchun zararli. Ranglar sarg'ish tus hosil qiladi. Ba'zida tirish hosil qilsa, ba'zan bo'yoq qatlamini yorilishiga olib

keladi. Bo'yoq suyuq bo'lib qolib, mo'yqalamdan oqsa, undan ortiqcha moy ajralib chiqib tursa, yaxshisi ortiqcha moyni olib tashlash kerak. Buning uchun bo'yoqni qog'oz yuzasiga yupqa qilib surtib chiqiladi, qog'oz ortiqcha moyni o'ziga so'rib olganidan so'ng uni shpatel yordamida qayta yig'ib olish mumkin. Biroq, bu ishni tezda amalga oshirish zarur, aks holda bo'yoq zamaska holatiga kelib qoladi va undan rangtasvirda foydalanish mumkin bo'lmay qoladi. Moyli bo'yoqlarni suyultirish uchun maxsus ishlab chiqarilgan suyuqliklar bor, ularni odatda rangtasvir laklari deb ataladi.

Moyli bo'yoqlar bilan ishlashning asosiy qoidalari. Asarlarining uzoq vaqt saqlanishini hojlovchi rassomlar uchun moyli bo'yoq bilan ishlash qoidalarini sanab o'tamiz va o'ylaymizki yosh rassomlar ham quyidagilarga to'liq amal qiladilar:

- to'liq qurib ulgurmagan moyli gurunt ustiga ishlamaslik;
- moybo'yoqda ishlash uchun tayyor xolatiga keltirilmagan eski asarlar va eski xolstlar ustiga ishlamaslik;
- qora, to'q qizil, o'ta yorqin yoki haddan ziyod to'q gurunt ustiga ishlamaslik;
- ko'p qatlamli rangtasvir ishlaganda ostki qatlam ustiga ortiqcha ko'p bo'yoq qo'yish va sekin quriydigan ustki qatlam bilan qoplamaslik;
- etarli miqdorda qurimagan birinchi qatlam ustiga ikkinisi qatlam bo'yoqlarni qo'yishlik;
- qayta chiziladigan yoki o'zgartirib, olib tashlanadigan joydagi bo'yoq qatlamini to'liq qirib tashlash;
- bo'yoqqa ortiqcha moy qo'shish;
- suyultirgichlardan uqaddan tashqari ortiqcha foydalanish;
- tozalanmagan kerosin, skipidar va umuman tarkibi nimalardan tashkil topganini bilmagan suyultirgichlardan foydalanish;
- muallif uchun ma'lum bo'lgan mustahkam bo'yoqlar yordamida ishlash va bo'yoqlarga zararli bo'lgan qorishtirishlardan qochish zarur.

Yuqoridagilarga amal qilganimizdagina ishimiz ko'ngildagidek chiqadi va uzoq muddat saqlanadi.

Moybo'yoqlar bilan ishlaganda ularning ba'zi birlari xolostga yaxshi, ba'zi birlari esa yomon surkaladi. Bo'yoq yupka surkalganda, tag kismidagi bo'yoq kuri-nib turadi, bunda rang yorokinligi paydo buladi, yupka surtilgan bo'yoq lessirovka deyiladi.

Lessirovka usulida ishlanadigan ishning sifatli chikishi uchun, albatta, xolostni odatdagicha gruntlash kerak. Bo'yoqlarning sifati, ishlanadigan asarga lessirovkaga kadar soya va yarim soya, yorug tomonidagi utkir va yorstin ok bo'yoqning etarli darajada berilishi va nixoyat, obdon yaxshi kuritilishi katta axamiyatga egadir. Yukorida aytilgan talablarga rioya kilinmasa, ma'lum vakt utishi bilan surat bo'yoqlari korayib, yorilib, kuchib keta boshlaydi, natijada asar yaroksiz bulib koladi. Lessirovkaga kadar tayyorlanadigan soya va yorugga ishlatiladigan bo'yoqlardan kuyidagilarni tavsiya kilinadi: kurroshinli va ruxli ok bo'yoqlar, yorokin kir-mizi, barikaram, mallarang bo'yoqlar va boshkalar. Lessirovkabob bo'yoqlar kuyidagicha, kirmizi, tuk, barikaram, oltinga uxshash sarik zangori bo'yoq, va boshkalarni ishlatish mumkin.

Rangtasvirni ishlash uchun gruntlar (xomaki bo'yoq qatlami) Rangtasvir asarlarining mustaxkamligi va uzoq saklanishi gruntlarning sifatiga bog`likdir.

siz grunt asarning tez orada yorilib ketishiga, bo'yoqlarning kuchib ketishiga asosiy sababchi buladi. Gruntni uzi tayyorlaydigan rassomlar ularni tayyorlash koidalariga katta e'tibor berishlari kerak.

Xolstni ishga tayyorlash. Xomaki tasvir, qoralama, xomaki nusxa ishlash bilan bir qatorda xolst (mato) ni ishga tayyorlash jarayoni ham borishi kerak. Buning uchun matoni ramkaga tortib, uni elimlash va zamin rangini berish kerak bo'ladi.

Matoni ramka markazidan boshlab har bir burchakka qarab tortiladi. Mixlashda ham avvalo markaz, ya'ni ramkani yon tomoni o'rtasiga mix uriladi va bir o'ngga, bir chapga mix urilib o'zimizga tortib boramiz.

Matoga tag rang (gruntovka) berish ikki bosqichdan iborat bo'ladi.

1) matoni olimlash. Buni juda ko'p uslublari bor, biz oddiy bir uslub bilan tanishib chiqamiz. Avvallo elimni tayyorlab olamiz. 10 gramm ivitilgan va shishgan jelatinni yarim stakan suvga solib, past yoqilgan olovga qo'yamiz.

Suv qizigan sari jelatin to'liq erib, suvga qo'shilib ketadi, biroq shu o'rinda suvni qaynash holatiga olib kelmaslikni unutmaslik kerak. Aks xolda elim o'z xususiyatini yo'qotib qo'yadi. Tayyor bo'lgan elim soviganidan so'ng enli mo'yqalam yordamida yuqoridan pastga qarab mato yuzasini yupqa qatlam bilan qoplab chiqamiz. Odatda bir marotaba elimlashni o'zi etadi va u bir sutka davomida tabiiy holda quritiladi. Matoda elim qatlami ortiqcha qalinlikda bo'lganda tagzaminni va rangtasvirni, tayyor ishni bo'yoq qatlami yorilishiga olib keladi. Mabodo birinchi marotaba elimlash jarayonida mato yuzasi tekis yopilmagan bo'lsa, kichkina mo'yqalam yordamida qolgan joylarni to'ldirib chiqish mumkin. Shunda ham mato yuzasi tekis plyonka hosil qilib yopilmasa, uchinchi marotaba ham elimlash mumkin. Buning uchun elimni 4-5 foizli qorishmasi bilan kuchsiz uolatda elimlash kerak bo'ladi.

Elimlab tayyor holatga keltirilgan matoni quriganidan so'ng qumqog'oz yordamida jilvirlanib, sayqal beriladi. Shundan so'ng matoni yorug'likka tutib ko'ramiz, matodan yorug'lik o'tmasa keyingi, ikkinchi bosqichga o'tish mumkin.

2) elimlangan mato yuzasini zaminrang bilan qoplash.

Ko'plab rassomlar ijodini ko'rar ekanmiz zaminrang sifatida sovuq tusli-kulrang, issiq tusli-kulrang, och yashil, och havorang berganini ko'ramiz bu rassom oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi. Biz, misol uchun oq zaminrangni ko'rib chiqamiz. Emulsiyali tagzamin. Jelatin, mel, moy, stinkvyoslar intensiv aralastirish asosida qo'shib tayyorlaniladi. Tayyor bo'lgan zaminrang fleyst yordamida mato yuzasiga uch marotaba surtib chiqiladi. Har safargi qatlamni quritib olgandan so'ng keyingi qatlam beriladi. **Rangtasvirni ishlash uchun**

gruntlar (xomaki bo'yoq qatlami) Rangtasvir asarlarining mustaxkamligi va uzok saklanishi gruntlarning sifatiga boglikdir.

siz grunt asarning tez orada yorilib ketishiga, bo'yoqlarning kuchib ketishiga asosiy sababchi buladi. Gruntni uzi tayyorlaydigan rassomlar ularni tayyorlash koidaloriga katta e'tibor berishlari kerak.

Rang tasvirni moybo'yoq bilan ishlash uchun gruntlarni tayyorlash.

Rangtasvirni moybo'yoq bilan asosan qalaminka (xolost) materialiga ishlanadi.

Agar gruntsiz xolostga moybo'yoq bilan ishlansa, bo'yoq juda kup sarf buladi, bo'yoq, moyini xolost shimib ketaveradi, natijada ishlangan surat korayib ketadi, yoriladi va surat ishdan chik.adi. Xolostni gruntlashdan maqsad shuki, moy bo'yoq, bilan ishlanadigan surat xolostga yaxshi birikishi, yorilmasligi va kuchib tushmasligi kerak. Xolostni gruntlashda ok yoki rangli grunt kilish mumkin.

XV- XVII asrlarda eski usta rassomlar rangli xolostga ishlashgan. XVIII—XIX asrlarda esa kupchilik rassomlar rangli xolostga ishlaganlar. Moybo'yoq rangtasvirida zarur bo'ladigan materiallar va asboblari haqida to'xtalib o'tamiz. Bundan oldin esa moybo'yoqrangtasviri ustida ish boshlash uchun zarur bo'lgan asosiy vositalarning ro'yxatini keltirib o'tamiz.

Bo'yoqlar Rangtasvir ustida ish boshlaganda oldin «o'quv eskizlari uchun» ishlatiladigan bo'yoqlar, keyinchalik esa «badiiy bo'yoqlar»ni ishlatgan ma'qul. Bo'yoqlar o'rtacha o'lchamdagi tyubiklarda bo'lgani yaxshi, oq bo'yoqni esa katta tyubikdagisini sotib oling. Yaxshisi bo'yoqlarni bo'lak tyubiklarda sotib olgan ma'qul. Ularni uzunchoq yog'och qutilarda saqlash kerak. **Mo'yqalamlar** San'atning bu turi uchun mo'yqalamlar xuddi bo'yoqlar singari juda zarur. Shuning uchun ham mo'yqalamlarni to'liq to'plamda sotib olgan ma'qul. Eng yaxshisi har qaysi nomerdan (№2 dan 20 gacha) 3 tadan mo'yqalam sotib oling. Asosan quyidagi mo'yqalamlardan foydalaniladi.

Qattiq mo`yli mo`yqalamlar Qattiq mo`ydan tayyorlangan mo`yqalamlar. Katta to`plam: har bir yalpoq va to`g`ri shakldagi mo`yqalamlardan bittadan olinadi. Kichik to`plam: №2 dan 12 gacha bo`lgan uchli shakldagi mo`yqalamlardan bittadan olinadi. Sigir qilidan tayyorlanadigan mo`yqalamlar.

Bu mo`yqalamlar yumshoq bo`lib, detallarni ishlashda va lessirovka qilishda qo`l keladi. Shakli qattiq qildan tayyorlangan mo`yqalamlarga o`xshaydi. Ayiq mo`ylaridan tayyorlangan mo`yqalamlar. Bu mo`yqalamlarni ham yuqoridagi tartibda olish kerak bo`ladi.

Palitralar Palitra uchun yog`och faneralar ishlatiladi. Lekin undan ham qulay va arzon tushadigani bu chetki qirralari tekislangan shisha hisoblanadi. Har kim o`zi uchun qulay bo`lgan shaklda palitra qirqib olishi mumkin. Mol`bertlar. Ishni endi boshlayotganlar uchun mol`bert kerak bo`lmaydi, uning o`rniga etyudnik yoki kichik mol`bertlardan foydalanish mumkin. Unda kichikroq va o`rta o`lchamdagi kartinalarni ishlasa bo`ladi. Zarur bo`lgan boshqa predmetlar masalan: qog`oz, sellofan plyonka, eski lattalar, bo`sh qattiq yopiladigan bankalar va butilkalarni ham ishlatamiz.





2.4. Me`moriy obidalar aks etgan kompozitsiya bajarish

Har bir xalq o'z tarixini avaylab keladi, bu tarix ne'matlari bo'lmish qadimgi merosimiz, ayniqsa O'zbekiston istiqloli tufayli, kishilarning milliy ruhda axloqiy va odobli qilib tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda va uni rivojlantirishda ma'naviy soq'lom avlodni voyaga etkazish, ularda milliy urf-odatlarimizni shakllantirish zarur. Zero, halqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan axloq odob fazilatlarini, o'tgan ota-bobolarimizning ruhiy ziyoratdir. Ajdodlarimizning tabarruk xotirasini abadiylashtirish esa bugungi va kelgusi avlodlarning muqaddas vazifasidir. Shuning uchun vaqti-vaqti bilan ziyorat qilish, ulardagi ota-bobolarimiz tomonidan bino etilgan ajoyib tarixiy obidalarini, ayniqsa madrasalar, xonaqo , masjid, maqbaralarning qurilish tarixini bilish har bir inson uchun zaruriy vositalar bo'lib hisoblanadi.

Buxoroning Poyi kalon kompozitsiyasini moybo'yoqda bajarish jaryonida avvalambor bir nechta Buxoro manzarasini suratga oldim va bir manzarani tanlaganimdan so'ng uni ishlashga kirishdim. Avvalambor eskizlar , koralama, rang lavxalarni ishladim.

Xar qanday rassom yoki shu soha bilan shug'ullaniuvchi shaxs o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi. Qo'yilgan maqsadning muammosi esa g'oyani yuzaga chiqarish bilan bog'lik xususiyatni ta'minlaydi. Bu borada nimalarga e'tibor ajratish kerak

birinchi navbatda mavzuni aniq tanlashi va ish joyini ta'minlashi zarur ikkinchi, mavzu bo'yicha bir necha qoralama, ranglavxalar bajarish nazarda tutiladi. Albatta qilingan xar bir ish maxsuli maqsadli g'oyani yuzaga chikarishi uchun xizmat kiladi. Bu ishlar amalga oshgach, ishlar yaxshilab kuzatilib eng yaxshi va eng samarali obektlari yagona maqsadga bo'ysindiriladi.

Ish bo'yicha yagona qarorga kelingach, dastlabki ishni qalam, kumir kabi yoki sangi va postelda bajarsa foydadan xoli bo'lmaydi. Keyin esa bajarilgan ish ulchami aniqlanib reyklar tayyorlanadi. Ishni mato yoki kartonga xam bajarish mumkin agar u matoda bajarilsa mato ranga turt tomondan dastlab karama karshi tomondan mustaxkam tortilib mixlanadi sungra elimli grunt bilan surtib ishni bajarish mumkin.

Buning uchun muvaffakiyatli variant qalamni bosmay engil tarzda tasvir matoga kuchiriladi. Tasvirni rang bilan bajarish korongi obektlardan boshlanib yorug joylarga extiyotkorlik bilan ishlov beriladi. Ish jarayonida xar bir obektni obektdagi buyumning shakli tus darajasi eng kizikarli va uziga jalb kiladigan xususiyatlarni yuzaga chikarish aloxida axamiyat kasb etadi. Chunki obekt va uning atrofidagi narsalardagi rang munosabatlari uygunligi yagona kaloritni yuzaga chikarilishini nazardan kochirmaslik kerak ayniksa buyoklar eritmasi obekt buylab okib ish sifatini buzmasligini ta'minlashi bu uchun eritmani m'yorida tayyorlash, muyqalamni tez-tez yuvib artib turish tavsiya etiladi. Buyokning xaddan tashkari kup yoki yupka kuyish xam uncha chiroyli natija bermaydi. Ish jarayori akvarel va moy buyoklarda bajarilishiga karab murakkab yoki engil kechadi. Yukorida kayd kilinganlar amalga oshgach bajarilgan ish obdon sinchiklab urganiladi, kamchiliklar bartaraf kilinib umulashtiriladi.

Men bitiruv malakaviy ishimda Buxoroning tarixiy obidalariga katta qiziqish bilan qaradim. Ushbu obidalar tarixidan yangidan yangi malumotlarga ega bo'ldim. Bu asarni yaratishda Poyi kalon, Masjidi kalon , Toqi zargaron , Toqi telpak-furo'shon, Toqi sarafon , Poyi Kalon ansambili , Setora –yi moxi xossa saroyi, Ark qalasi Kabi juda ko'p qadimiy yodgorliklariga bordim.

Kompozitsiya bajarish jarayonida ko'plab tarixiy janrda ishlagan rassomlar ijodidan ham namunalar oldim. Bular natijasida ko'plab eskizlar bajarishga to'g'ri keldi. Jahonning eng qadimgi shaxarlaridan biri sanalgan Buxoroni ertak shaxar deb xam atashadi. Shu o'rinda Buxoro shahri xaqida quydagi malumotlar to'plandi. Yigirma besh yil davomida Buxoro olamshumul shuxrat, ertaknamo boylik va qudrat, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bilan birga qora kunlarni xam boshdan kechirdi. Xalqning mexnati va iqtidori bilan moddiy madanyatning shox asarlari vujudga kelar „xalq amaliy sanati namunalari gullab yashnar edi . Avlodlarga Buxoro shaxrini saqlab qolish maqsadida YUNESKO 1997- yilni Buxoroning 2500 yilligi sifatida nishonlandi.

Buxoroning memoriy obidalari - jaxon madanyatining xam yodgorliklaridandir. Buyuk ipak yo`lining asosiy shaharlaridan biri sifatida dunyo madaniyati rivojiga Sharq va G`arb aloqachisi sifatida bu shahar ham zamoqli hissasini qo`shgan..

Buxoro dunyo ilm-fani va adabiyotiga, Islom dini taraqqiyotiga Al-Buxoriy, Rudakiy, Daqiqiy, Abu Ali Ibn Sino, Farobiy, Bahouddin Naqishbandiy kabi bir qator allomlarni yetishtirib bergan. Yuqorida ma`lumotlar kompazitsiyaning ulug`vor va navqironn yechimiga ega bo`lishi darkorligidan xabar beradi. „Navqiron buxoro” kompazitsiyasi moybo`yoq texnikasida mo`ljallanganligi sababli ham ko`p figurali kompazitsiyadan tashkill topgan.

Tasviriy sa`nat darslarida manzara janri orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. “Poyi Kalon” tarixiy obidalari misolida.

Maqsad va vazifalar	<p>Darsni ta`limiy maqsadi. Rangtasvirda manzara, unda obraz, kolorit, fazo va kompozitsion ifodalilik, atrof muhitdagi, san`atdagi g`o`zalliklar haqida ma`lumot berish.</p> <p>Darsni tarbiyaviy maqsadi. Tabiat va san`atdagi g`o`zalliklarni ko`ra bilish, milliy iftixor, qadriyat sifatida e`tirof etish va muhofaza etishga o`rgatish. Ma`naviy barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.</p> <p>Darsni rivojlantiruvchi maqsadi. O`quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvurni tarkib toptirish hamda rivojlantirish. Ijodiy – tasviriy qobiliyat va iste`dodlarini</p>
----------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

	rivojlantirish.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.	Uslub. Yangi bilimlar berish. Shakl. An`anaviy. Jihozlanishi. Oq qog`oz, akvarel va guash bo`yoqlari, mo`yqalamlar, tabiatni obrazli manzarasi aks etgan rangtasvir asarlarining reproduksiyalari. Usul. Bahs- munozara, savol - javob, muhokama, amaliy ish. Baholash. Rag`batlantirish. 5 ball.
Mavzu rejasi.	1.Manzara janri haqida suhbat. 2.Manzara kompozitsiyasi. 3. Poyi Kalon tarixiy obidalari tabiat manzarasini chizish qonun-qoidalari haqida tushuncha berish va amaliy ish. 4.Mavzu yuzasidan savol javob.
Yangi mavzu mazmuni	Tasviriy san`atda tabiat, industrial sanoat, interer ko`rinishlarini tasvirlanishi manzara janriga ta`luqlidir.Manzara tasviriy san`atning qadimiy janrlaridan bo`lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita, fon sifatida muhim ro`l o`ynaydi. Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I. Levitan, I. Shishkin, O`. Tansiqboyev, I.K.Ayvazovskiy, N. Karaxan kabilar tilga olinadi. Rashid Temurov
O`quvchilar mustaqil ishlari.	O`quvchilar mavzu asosida rasm chizadi. O`qituvchi parta oralab o`quvchilarga induvidual yordam beradi. Chizilgan ishlarni namuna qilib ko`rsatadi.
Darsni mustahkamlash.	Darsda yaxshi qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi. Yaxshi chizilgan o`quvchilar ishlari namuna qilib ko`rsatiladi.

Dars mavzusi. Poyi Kalontarixiy obidalari.

Darsni ta`limiy maqsadi.

Rangtasvirda manzara, unda obraz, kolorit, fazo va kompozitsion ifodaliylik, atrof muhitdagi, san`atdagi go`zalliklar haqida ma`lumot berish.

Darsni tarbiyaviy maqsadi.

Tabiat va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, milliy iftixor, qadriyat sifatida e`tirof etish va muhofaza etishga o`rgatish .Ma`naviy barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

Darsni rivojlantiruvchi maqsadi.

O`quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvurni tarkib toptirish hamda rivojlantirish. Ijodiy – tasviriy qobiliyat va iste`dodlarini rivojlantirish.

Darsni jihozlanishi.

O`qituvchi uchun:

a). Mavzuga mos ko`rgazmalar.

b). Bosqichli rasmlar, tarqatmali materiallar, rangli reproduksiyalar, Axborot texnologiyasidan foydalanish uchun ekran.

O`quvchi uchun:

Albom, akvarel bo`yoqlari, format, qalam, mo`yqalam.

Darsning tuzilishi.

1. Tashkiliy qism. 2 daqiqa.

2. O`tilgan mavzuni so`rash. 7 daqiqa

3. Yangi mavzu bayoni 10 daqiqa.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash va o`quvchilarni mustaqil ishlari 23 daqiqa

5. Darsni yakuni va uyga vazifa berish 3 daqiqa.

Darsning borishi .

1. Tashkiliy qism 2 daqiqa .

O`quvchilar bilan salomlashish. Davomatni aniqlash, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.

O`quv xonasini va o`quvchilarni darsga tayyorgarlik darajasini nazorat etish.

2. O`tilgan mavzuni so`rash 7 daqiqa.

1. Tasviriy sanatning turlarini ayting?

2. Rang tasvir deb qanday tasvirga aytiladi?

3. Grafika san`ati va uning turlari haqida malumot bering?

4. Manzara janrida ijod qilgan qaysi rassomlarni bilasiz?

3. Yangi mavzuning bayoni 10 daqiqa.

Manzara janri. Tasviriy san`atda tabiat, shahar, industrial-sanoat, interer ko`rinishlarining tasvirlanishi manzara janriga taaluqlidir. Manzara janrdagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya`ni hayotiy ko`rinishini

tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, xayolan

ifodalangan bo`ladi. Ba`zan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi

ham mumkin. Manzara janrining paydo bo`lishi juda uzoqlarga

borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollaridagi qadimgi arxeologik qazilmalar misolida ko`rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri

mustaqil ravishda Xitoyda oltinchi asrda paydo bo'lgan bo'lsa, Yevropa san'atida Uyg'onish davrida ilmiy negizda, ya'ni chiziqli va havo perspektivasi asosida shakillangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil manzara bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turda manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan,

portretning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlashi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.levitan ,I.Shishkin , O'.Tansiqboyev ,I.K.Ayvazovskiy,N.Karaxan kabilarni tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi .Interer binolarining ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z ishlarida intererni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A. Verrokko, Leonardo da Venchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida I. Ayvazovskiy-ning xizmatlari katta bo'lgan. Bu ulug' rassom o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san'atida munosib o'rin egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar.

Manzara janrida ko`proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo`llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara ko`rinishlari asosiy emas, balki to`ldiruvchi, qo`shimcha ahamiyat kasb etadi.

Manzara – peyzaj ma`lum bir joyning ko`rinishi, tasviri bu tasviriy san`at janri hisoblanadi. Manzarada tabiat, dengiz ko`rinishlari, daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg`ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi mohir pedagog P.P.Benkov o`z asarlari bilan o`zbek tasviriy san`atiga salmoqli hissa qo`shgan rassom. P.P.Benkov serquyosh, serfayz o`lkamizni sevib qolgan va umrining oxirigacha shu erda qolib ijod qildi. U yaratgan suratlarining har birida jonajon respublikamizning go`zal tabiati, o`zbek xalqining hayoti va mehnati tasvirlanadi.

O`zbekistonning go`zal tabiati taniqli rassom O`rol Tansiqboyevning ijodida markaziy o`rinni egallaydi. O`. Tansiqboyevning ijodi asosan O`rta Osiyoning go`zal va nafis tabiat manzaralarini mo`yqalam yordamida haqqoniy aks ettirishga qaratilgan. Uning "Issiqko`l oqshomi", "O`zbekistonda bahor", "Qayroqqum GESning tongi", "O`rik gullamoqda", "Kuz tongi" kabi ko`plab asarlari rassomning manzaranafislik san`atining mohir ustasi sifatida jahonga tanitdi. Abduvali Mo`minov A.Mirsoatovning manzara janridagi asallarini tomosha qilish va tahlil etish bizga me`moriy manzara elementlarini belgilashga zamin yaratadi. Ularda qishloqning past balanda uylati tog' adirlar daryo va jilg'alar uzoq yaqinda tasvirlanishi mumkin bo'lgan me`moriy inshat ko`rinishlari daraxtlar va boshqa elementlar tasvirini ko`rish mumkin. Amaliy tasviriy faoliyatga kirishish oldidan o`z variantlarimizni eskezini ishlab olamiz. Bu eskez har xil ko`rinishda bo`lishi mumkin. Shuningdek me`moriy manzara janridagi ikki asarni tahlil etib ko`ramiz. Bular rassom Rashid Temurovning "Bibixonimda bahor" , Samarqand asarlari.

Manzara kompozitsiyasi.

Kompozitsiyaning asosiy qonun qoidalari

Tasviriy san`at amaliyotida kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o`xshatish qonuni, kontrast qonun vositalari mazmun va g`oyaga bo`ysunishi kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, "dog`", oraliq xarakter nusha ishora bilan ifodalanadi.

Kompozitsiya haqiqat qonuni- asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo`layotgan voqeaning o`ziga xosligi, I.Levitanning "Oltin kuz", A.Kundjining "Qayinzorda", A.Rilovning "Havo rang kenglikda manzaralarida mazmun, nafosat bilan birga tabiatning o`ziga hos obrazi tasvirlangan.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Binchi "Rangtasvir qonunlari" ilmiy asarida o`lcham qarama-qarshiligi haqida, katta-kichik, past-baland, qalin-yupqa, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to`g`risida yozadi.

Mikelandjelo tekislikdagi hajm kontrastlariga ko`p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug` kontrastlik orqali sezadi va o`z ongiga singdiradi.

Manzara kompozitsiyasi. Manzara-tasviriy san`atning qadimiy janr turlaridan bo`lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita-fon sifatida muhim rol o`ynaydi. Yevropada manzara janri tarixi XVI-XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o`xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvoffaqiyatlarga erishdilar.

Manzara san`ati tashqi dunyoning go`zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta`sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun ham rassom tabiat olamini eng nozik, tipik xolatlarini rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo`lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovatini, ichki tuyg`ularini tasvir orqali qushiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I.Levitanning "Oltin kuz", "Abadiy sokinlik", I. Shishkinning "O'rmon yiroqliklari" asarlarini keltirish mumkin. Tasviriy san`atning manzara janriga oid asarlari insonda tabiatga muhabbat va go`zallik fazilatlarini shakllantiradi. Bunga misol qilib, O'zbekistonda manzara janrida ijod qilgan rassomlar O'. Tansiqboyev "Issiq ko'l", "Ona o'lka", Qayroqqum suv ombori, N.Qoraxon "Nanay yo'li", "Sijjakda bahor", R.Temurovning "Samarqand" arxitektura manzaralari turkumini aytishimiz mumkin.

Manzara janrida G'.Abduraxmonov, F.Toxirov, R.Choriyev, M.Yesin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda A. Nuriddinov, O. Qozoqov, A.Mo'minov, A.Mirsoatov kabi rassomlar mustaqil O'zbekistonning g'o'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor mazaralarni yaratib kelmoqdalar. Manzaraning bir necha turlari mavjud.

Shahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishlarida) manzaralari shular jumlasidandir.

Bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi.

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'li, arxitektura, transport vositalari odamlar, oramgoh bog'lar hamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepoyon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tsviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'priklar, metro qurilishi, texnika qurilishi vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni "Erta tong", "Bahor" kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'omish holatini aks ettiruvchi, insonga olam-olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz.

Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rinish nuqtasi, ko'rinish chizig'i, fazoviy masofa, format, prespektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir. Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizg'i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatdagi quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom xolatini xarakterli xususiyatlarini sinchiklab ko'zlatish lozim. Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rinish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va yerni tekislikda nisbatlarini belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar mashtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi.

Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar xolatini aniqlashga yordam beradi.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyasini yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybuyoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizg'i va etyudlarni bajarish mashqlarini qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy ozuqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

O'rol Tansiqboyevning "Oqshom pallasi" asarini tahlil qilar ekanmiz ko'z o'ngimizda gullab yashnayotgan o'zbek diyori, uning dilga orom beruvchi tabiati, kishining mehnati bilan bog'-bo'stonga aylanayotgan yerlar gavgaldanadi.

O'zbek milliy rang tasvir maktabining taniqli rassomi G'ofur Abduraxmonov ko'pgina asarlarida manzara janriga dadil muroajaat qila olgan va manzara janriga nisbatan qiziqishi shakllanganligidan dalolat beradi.

Rassom yaratgan kompozitsiyalari keng qamrovliligi va rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bulardan, ayniqsa "Qo'shiq" asarini tomosha qilar ekanmiz tabiatning jozibali ohanglari bilan inson qalbidagi tuyg'ular hamohang jaranglayotganini tinglagandek bo'lamiz. Bahor gullari to'shalgan qirlar, unga mahliyo bo'lgan qizlarning nafis harakati, tog' cho'qqilari, shuningdek, olisdagi bulutlarning bir biri bilan uzviy bog'liq bo'yoqlarda tasvirlanishi kishini o'ziga sehrlab qo'yadi.

G'.Abduraxmonovning "Baxmalda tong" nomli manzarasida esa tabiatda yangilanayotgan holat rassom tomonidan ilg'ab olingan. Asarda erta tongdagi jonlanish, yer bag'ridagi barcha borliqning uyg'onayotganligi yaqqol sezilib turadi. Bu asarlar tomoshabinda yaxshi kayfiyat uyg'otish bilan birga maroqli dam olishga yordam beradi.

Tabiatga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi va estetik zavq bag'ishlaydi. Rassom ijodida manzara janriga bo'lgan qiziqish ko'rtaklarini uning dastlabki etyudlaridayoq ko'rishimiz mumkin.

Tasviriy san'atning tur va janrlari ichda manzara janri tabiat va inson munosabatlari, kayfiyatlarini tasvirlashda keng imkoniyatga ega manzaralar ham tabiat, insonlar kabi turli ko'rinish va kayfiyatga ega bo'ladi.

Ular charog'on kun, bulutli kun, quyoshli oqshom, yomg'ir va qor, bo'ronlarni tasvirlash, shahar manzarasi, qishloq manzarasi, tog' manzarasi ko'rnishida bo'ladi. Rassom Abduvali Mo'minov, Anvar Mirsoatovlarning manzara janridagi asarlarini tomosha qilish va tahlil etish bizga me'moriy manzara elimitlarini belgilashga zamin yaratadi. Ularda qishloqning pas-balad uylari, tog'u-adirlar, daryo va jilg'alar uzoq yaqinda tasvirlanishi mumkin bo'lgan me'moriy inshoot ko'rinislari, daraxtlar va boshqa elementlar tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Amaliy tasviriy faoliyatga kirishish oldidan o'z vriantlarimizni eskizlarini ishlab olishimiz mumkin. Rassom G'. Abduraxmonovning "Oydin kecha" asarini kuzatib tahlil qilamiz.

Tabiatning obrazli manzarasi –shamolsiz, tinch issiq tun osmonda to'lin oy nur sochib, butkul dalaga yorug'lik berib turubdi. Suv yuzasida oyning shu'lasini ko'lni ko'kish, sariq ,oltin rangga bo'yab, jilvalanib turibdi. Daraxtlar bir biri bilan asta shivirlashib, uyquli tunning tinchligiga quloq solayotgandik. Tabiatning shu kurinishini qogozga tasvirlashda suratning asosiy mavzusini yechish lozim. Demak, tasviriy sanat tilida tabiat manzarasini tasvirlash degani. Ko'l, oy, daraxtzor – buning hammasi bit butun ko'rinishni tashkil qiladi .

Tabiatning go'zal manzarasini tasvirlash naqadar qiyin ekanligiga qaramay, rassom o'z fikrini bizga mohirlik bilan yetkaza olgan. Bulut orasidan chiqqan oy suv yuzasiga yorug' shu'la sochib qirg'oqlar qizil qo'ng'ir ranga bo'yalib, oldingi ko'rinishdagi daraxtlar quyuq bo'yoqlar bilan bo'yalgan . Barchasi o'z o'rnini topib, havo, bo'shliq, makon alohida e'tibor bilan ko'rsatilgan.

Suratni akvarel yoki guash buyoqlari bilan tasvirlash mumkin. Bu rassomchilik qurollari bilan tabiat manzarasini go'zal va mazmunli qilib bajarish mumkin.

Poyi Kalon tarixiy obidalari manzarasini ishlash.

Poyi Kalon tarixiy obidalari manzarasini ishlash uchun bo'yoqlar yordamida chizishdan avval qalam yordamida uning alohida qismlari chizib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo'lishi uchun manzara elementlari: daraxtlar, bulutlar, tog'lar, joyning tuzilish shakllari chiziladi. Shuningdek, manzarani chizishda tabiatni sinchiklab o'rganib chiqish talab qilinadi.

Rassom A.Muminovning "Buronli kun" asarida tabiat obrazining bir ko'rinishini kuzatishimiz mumkin.

Tabiatni obrazli manzarasini chizishda chiziqli va favoviy perspektiva qoidalariga rioya qilish lozim. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayib havoda ko'rinmay xiralashib boradi, ularning ko'rinishi, chiziqlari, yorug'ligi, rangi o'zgaradi. Tabiatdagi narsalar bizga qanchalik yaqin bo'lsa ular shunchalik aniq va ravshan ko'rinadi.

Manzarani maromida tasvirlab berish katta ahamiyatga ega. Manzara-kunduzi, ertalab, yoki kechqurun o'z ko'rinishiga ega. Ertalab atrof go'yoki tutun bilan qoplangandek bo'ladi. Demak, ertalabki manzarani chizganda orqa ko'rinishi biroz xiralashtirilib tasvirlanadi. Oldida joylashganlarning tuzilishini biroz aniqroq qilib chizish karak. Kechqurun esa aksincha, osmon tusida narsalarning hamma tuzilishi aniqroq ko'rinadi. Havo bulut bo'lgan kunda yer, undagi narsalar bilan birga osmon xiraroq va qoraroq bo'lib ko'rinadi.

Tabiatning obrazli manzarasini chizishda yoki uning biron- bir bo'lagini tasvirlashda alohida qoidalar yo'q, Manzarani tasvirlash ham boshqa narsalarning asl nusxasini chizish kabi bajariladi.

Tabiat obrazi ta'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda etish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki sovuq, ochroq yoki to'qroq, yaqqol yoki umumlashgan tarzda bajarish mumkin.

Jonli tabiatni his qilish, uning g'oyat ko'rkamligini ilg'ay olish, shuningdek, qiziquvchanlik har bir tabiat manzarasini tasvirlashning yechimiga mezon bo'ladi.

4.Yangi mavzuni mustahkamlash va o'quvchilarning mustaqil ishlari.

23 daqiqa

Poyi Kalonansanbili tarixiy obidalari manzarasini ishlash uchun buyoqlar yordamida chizishdan avval qalam yordamida uning alohida qismlari chizib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo'lishi uchun manzara elementlari: obida daraxtlar, bulutlar, tog'lar, joyning tuzilish shakllari chiziladi. Shuningdek, manzarani chizishda tabiatni sinchiklab o'rganib chiqiladi.

Poyi Kalontarixiy obidalari manzarasini ishlash manzarasini chizishda chiziqli va fazoviy perspektiva qoidalariga rioya qilib chiziladi. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayib havoda ko'rinmay xiralashib borishi, ularning ko'rinishi, chiziqlari, yorug'ligi, rangi o'zgarishi, tabiatdagi narsalar bizga

qanchalik yaqin bo'lsa ular shunchalik aniq va ravshan ko'rinishi hisobga olinib chiziladi.

1-bosqich. Formatni aniqlab qalamtasvirda ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish, havo va yerni tekislikdagi nisbatlarini belgilash, oldingi va keyingi, orqa plandagi bino predmetlar masshtabini topish.

2-bosqich. Format sathida manzaradagi, obidani birinchi, ikkinchi, o'rta qator va uchinchi plandagi detallarni yaqqol tasvir holatiga holatiga keltirish, soya yorug'liklarni belgilash.

3- bosqich. Manzaraning uchinchi orqa qatoridagi havo, tog', daraxtlarni sovuq va ko'k rangda ranglash, o'rta qatordagi qir-adir, uylarni o'rtacha och iliq ranglarda, birinchi qatordagi daraxt, shox-shabba va yo'l-yo'laklar issiq sariq, qizil-jigar ranglarda ranglash.

4- bosqich. Tasvirlanayotgan manzaradagi obidaning barcha detallarning soya va yorug'liklari asosida uyg'unlashgan holatda to'qroq ranglarda ranglash. Tabiatning obrazli manzarasini butun bir g'oya va mazmun asosida yakunlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Manzaraning bosh g'oyasi nima?
2. Manzarachi rassomlar kimlar va ularni qanday asarlarini bilasiz?
3. Poyi Kalonansabli kartinasining tasviriy kompozitsion yechimimning umumiyliigi nimadan iborat.

Tasviriy san`at fanidan testlar.

1. Rangtasvir xususiyatlari va uning texnologiyasiga oid eng qadimgi qo'l yozma qachon yozilgan?

- a) XI asrda;
- b) O`rta asrlarda;
- v) Yuqori Uyg`onish davrida;
- g) IX asrda.

Javob: v) Yuqori Uyg`onish davrida;

2. Qaysi qatordagi ranglar "issiq ranglar" ga kiradi?

- a) Ko`k, havo rang, yashil, safsar;
 - b) Sariq, qizil, noranji, qirmizi;
 - v) sariq, yashil, jigarrang, ko`k;
 - g) pushti, siyohrang, binafsha, zumrad;
- Javob: b) Sariq, qizil, noranji, qirmizi;

3.Qaysi ranglar “sovuq ranglar” turkumiga kiradi?

- a) Qizil, oq, qora, jigarrang;
 - b) Qizil, sariq, jigarrang,qora;
 - v) Ko`k, safsar, yashil, moviy,havorang;
 - g) oranjiviy, oxra, targ`il, ko`k.
- Javob: v) Ko`k, safsar, yashil, moviy,havorang.

Darsning yakuni va uyga vazifa berish. Me'moriy manzara tasvirlangan etyud chizish.

III. BOB. TARIXIY OBIDALARNI TASVIRLASHDA IJODIY JARAYON MOHIYATI VA BOSQICHLARI

3.1 Kartina bajarishda manzarani kuzatish va o'rganish

Tabiatni sinchkovlik bilan kuzatish va o'rganish , qalamda chizishning barcha qoidalari, nozik tomonlarini o'zlashtirib olish, tabiatning xar qanday ko'rinini tasvirlab bilish malakasini xosil bo'lishning omilidir. Talaba tabiatdan olgan taassurotini uni qiziqtirgan , e'tiborini tortgan barcha narsalarni ko'pincha yon daftarida qisqacha yozuv yoki bir zumlik qalamtasvir orqali qayd etib borish kerak. Ular orasida odam qiyofasi va yuz tuzilishi , tabiat ko'rinishlari xayvonlar ,parrandalar, aloxida daraxtlar va ularning ayrim bo'laklari, turli boshqa narsalarning rasmi bo'lishi mumkin. Bunday tezkorlik bilan chizilgan lavxalar foydalidir. Ular xotirani, diqqatni ko'rilgan narsani darrov anglab olish qobiliyatini o'stiradi. Xayotiy bilimni boyitishga yordam beradi.

Shunday qilib yosh rassom narsaning o'ziga qarab rasm chizishni mashq qilib boradi va u bilan birga o'zida kuzatuvchanlikni tarbiyalab tabiatni o'rganadi. O'zini qobiliyati va bilimni manzara ishlashga yo'naltirishni istaganlarga juda keng foydali faoliyat maydoni mavjud. Ular mustaqil yurtimizning bepoyon kengliklarini serxosil dalalar , urmonlar , qir adirlar, purvikor tog'lar , daryolar,soy va ko'llar ulkan suv omborlari mexnatkash xalqimiz tomonidan o'zlashtirilgan tabiatning go'zal jamolini tasvirlash imkoniga egalar. Xar bir rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanishni boshlayotgan kishi ishining asosida tabiat - asl borliq bo'lishi kerak. Xar bir kishi naturadan qarab chizar ekan avvaliga ko'rayotgan narsalarning o'zini tasvirlashga harakat qiladi. Keyinchalik taasurot bo'yicha eslab qolgan muxim dalillar asosida ham kompozitsiyalar yaratishga intiladi. Ma'lumki tabiatda bir- biriga o'xshash yerlar umuman uchramaydi. Xar bir ko'rinish uziga xos , qaytarilmasdir. Turli ob'ektlar va narsalarning bir biriga nisbatan joylashishidagi turli -tumanlik sizga shunchalik boy material beradiki, uni umr buyi o'rganib chekiga yetib bo'lmaydi. Ba'zan ayrim narsalar orasidagi farq bir qarashdayoq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayrim xollarda esa ularning farqi juda nozi, sezilarsiz bo'lib, bir -biridan ajralib turadigan xususiyatlarini aniqlab, ajratib olish uchun uzoq muddat diqqat bilan kuzatishga xar birini aloxida, yakka holda tasvirlashga tug'ri keladi. Buni ayniqsa endi-endi tabiat manzarasini ishlashga urgan boshlagan yosh rassom yaxshi bilishi kerak. Chunki u tabiatni kuzatishda hali tajribasiz bo'ladi, chizayotgan narsalariga kamroq qaraydi.

Misol uchun, unga o'rmondagi daraxzlarning barchasi bir-biridan farq qilmaydigandek bo'lib tuyulishi mumkin. Natijada uning chizgan manzaralarida ham bir xil ko'rinishdagi bir qator daraxtlar paydo bo'ladi. U osmondagi bulutlarni ham bir xilda chizadi va nihoyat ish zerikarli, beta'sir chiqadi.

Yosh rassom birinchi marta tabiatdan qarab chizar ekan, ko'rayotgan narsalarini xuddi o'zidek aniq ko'chirib olish kerakdek tuyuladi. Ammo u qachonki atrof-muxitni diqqat bilan kuzatib, qarshisida shunchalik rang barang xodisa, narsalar turganini anglagach, ularning hammasini ipidan-ignasigacha chizish aslo mumkin emasligini tushunib oladi.

Masalan, biz daraxtni chizar ekanmiz uning qancha bargi borligiga emas, balki tanasining asosi qanday shaklga egaligiga, qancha shoxchalari borligiga emas, ular asosiy shoxlari atrofida qanday qiyalikda ko'rinishiga va nixoyat daraxt po'stloginining har bir burmasiga emas, balki uning tanasi satxiga xos xususiyali belgilariga, shakliga e'tibor beramiz.

O'nlab shoxlaridan ayrimlarinigina eng ko'zga tashlanganini chizamiz, boshqalarini esa umumlashtirib ko'rsatamiz. Uni hadjmli, bo'rtma bo'lib ko'rinishga soya va yorug orqali erishamiz. CHizilgan daraxtga qaraganimizda u tabiatda qanday bo'lsa, shunday ko'rinish xissiyoti tug'dira oladigan bo'lishi kerak. Atrof muxitdagi narsalardagi aloxida xususiyatlarga ega unsurlarni topa olish juda muximdir. Daraxtlarning uziga xos xususiyatli qismlari ularning qayrilgan novdasi, singan butogi bo'lishi mumkin. Suvda ko'pincha suzib yurgan barglar, singan daraxtlar shoxi, suv o'tlari xususiyatli bo'lib, rassom ularni tasvirlab ana shu joyning mavzusiga xos bo'lgan aloxida xolatni ifodalaydi. Rasmda tasvirlanayotgan

unsurlarning soni chizayotgan kishining oldiga qo'ygan maqsadiga muvofiq, har xil bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli rasm chizilayotgan bo'lsa, barcha narsalardagi ayrim bo'laklarni birma-bir tasvirlab chiqilmaydi. Agar uzoq muddatda ishlanadigan davomli qalamtasvir yaratilayotgan bo'lsa, mazkur mavzu xususiyatga mos, xos bo'lgan barcha belgilarni va bo'laklarni batafsil tasvirlanadi. Ammo shunda ham ma'lum umumlashmalardan foydalaniladi.

Ayrim paytlarda chizila boshlangan rasm ba'zi sabablarga ko'ra tugallanmay qoladi. SHunda rasmni asliga qaramay nihoyasiga yetkazish mumkinmi degan savol tug'ilishi mumkin.

Mavzuga xos bo'lgan kuzatilgan manzara xayolda saqlanib turganda uni bir oz davom ettirishi, ayrim yerlarini to'ldirish mumkin.

Lekin bunday paytlarda suratni tugallamay qoldirilgani ma'qulroq. CHunki tasvir oz vaqt mobaynida chizilgan bqlsada unda ma'lum darajada tabiat haqiqati aks etgan bo'ladi.

Asliga qaramay chizilganda esa, hayotiy chiqqan manzarani yo'qqa chikarib ko'yish mumkin. Yosh rassom ko'zi oldida namoyon bo'lgan har qanday manzarani chizaverishi mumkin, ammo bu uning tabiatdan kerakli mavzuni darhol topa oladigan gap emas. Ba'zan u mavzu va joy izlab ko'p vaqt sarf etadi. SHunday bo'ladiki chizilishi kerak bo'lgan daraxtlar rassomning ko'zi ilg'aydigan kenglikda joylashmay tarqoq ko'rinishi juda yaqin yoki uzoqroqda boshqa atrofdagi buyumlarga bog'lanmagan holda joylashgan bo'lishi mumkin. Agar talaba qanday ko'rsa va shunday tasvirlasa, uning qog'ozi satxida ham ana shunday ma'nosiz tasvirlar xosil bo'lardi.

Tabiatni kuzatar ekanmiz uning ob`ektlari doim xar xil eritilganligini kuramiz. Biriga kueshning nuri to'g'ridan tushadi boshqasi esa enidagi narsalar soyasida qoladi. Ularning xar birida tiniq eritilgan qismini soyalarni yarim soyalarni "refleks" va shularni ko'rishimiz mumkin. Chizuvchi kishi manzarani kueshning nurlari turlicha eritilgan tomonlaridan kuzatish mumkin.

Asosan quyosh to'g'risida orqa tomondan yoki yonda bulishi mumkin. Quyosh nurlari qarama-qarshi tomondan tushgan birinchi xolatda predmedlar atrofidagi eruglik to'lalari juda kuchli soyalar esa kuyuk bo'lib ko'rinadi. Bunday yorug'lik tez o'zgaradi natijada kam tajribaga ega bo'lgan talaba uchun anja kiyinchiliklar tugdiradi. Agar quyosh orqa tomonda bo'lsa tushayotgan yorug'lik va soyalar aytarlik kizikarli bulmaydi. Tabiatdagi narsalarning xajmi shaklishamonli ko'zimizga bo'rtib ko'rinishi uchun uning bir tomoni yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Yuqoridagi xolatda esa predmetlarning faqat erug tushgan tomonlarigina ko'zga tashlanadi. Tabiatni tasvirlash bo'yicha yetarli tajriba malakaga ega bo'lmaganlarga bunday sharoitda borliqdagi narsaning xajmini va fazoviyiligini xaqqoniy tarzda ifodalash tasvirlash juda qiyin bo'ladi va nixoyat predmedlarga quyosh nurlari chizuvchi talabaga nisbatan yon tomondan tushgan xolatda esa buyumlarning bir tomoniga yorug'lik tushib soyalar kuyuk ko'rinadi barcha narsalarning xajmi bo'rtib ko'rinib turadi. Aynan yon tomondan tushgan yoruglik rassomga ayniqsa qulay tasvirlashga muvofiqdir. Manzarani o'ziga qarab chizishda tasvirlanayotgan predmetlargagina emas balki qog'oz satxiga ham sifatli yorug'lik tushishi katta ahamiyatga ega. Lekin qog'ozga quyosh nuri tik tushmasligi kerak u nurni qaytarish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli ko'zni tez charchatadi. Shuning uchun daraxt devor va boshqa tabiiy narsalarning soyasidan foydalanish kerak. Xar bir havaskor rassom manzaraning bir nechta tasvirini chizish orqali asar ustida ishlash jarayonida yorug'likning o'zgarmay turishi naqadar muhim ekanligini bilib oladi. Albatta bu yerda yorug'likning nisbiy o'zgarasligi haqida gap bormoqda, chunki uning mutloq barqarorlik holati tabiatda umuman uchramaydi. Quyosh doim osmon bo'ylab harakatda bo'ladi va atrof-muxit manzarasini turlicha eritadi. Shu sababli kunning turli vaqtda bitta qalamtasvir ustida mutassil olib borib bo'lmaydi. U ma'lum o'zgaras muddat oralig'ida ertasiga yana davom ettiradi. Masalan uni ertalab boshlab kechqurun nixoyasiga yetkazish mumkin emas. Chunki uzoq vaqt oralig'ida chizilayotgan narsalarning yorug'lik tushib turgan qismi soyada qolib soya joyiga esa nur tushib qoladi.

Yozda quyoshli kunda ikki uch soat ichida oftob nurlarining yo'nalishi sezilarli darajada o'zgarib ketadi. Natijada tabiat butunlay boshqacha ko'rinish kasb etadi va ishni to'xtatish to'g'ri keladi. Bulutli yoz kuni yoruglik bezash to'rt soat mobaynida bir maromda saqlanib turadi.

Shunga muvofik ish jarayonining vaqtini o'zgartirish mumkin. Ammo bunday yorug'likda ishlash qiyinroq bo'lishi hisobga olinishi kerak. Chunki bulutli kunda tabiat xuddi ko'ra boshlagan.

Minoraning tepasi yogochdan qilingan. Usha zamon tarixchisining yozishicha minora shu qadar ajoyib va go'zal ishlanganki hech qayerda unga o'xshash bino bolmagan. Biroq minora tez orada qulab yonidagi uymakorlik bilan bezatilgan masjidni bosib qolgan. Arslonxon xuddi o'sha joyga yangi va yanada xashamatli minora qurishga buyruq bergan. Endi me'mor ilgari ustaning tajribasini o'rganib ish boshlagan. Tarixchining yozishicha, imkoni boricha mustaxkam qilib qurishga harakat qilgan. Minoraning poydevori juda mustaxkam bo'lib kilishning balandligi 50 metr keladi. Minoraning tepasi dargali gumbaz bilan tugagan. Minora chang bilan kvadrat shaklidagi pishiq g'ishtdan ishlangan. Uning tashki yuzasi sayqal berilgan g'ishtlar bilan turlicha terib bezatilgan. Minoraning guldor bir necha belboglari bo'lib ular bir biridan gishtin dondona bilan ajratilgan. Minoraning Yuqori qismi yumaloq shaklda bo'lib ravoqsimon o'n oltita darchalari bor. Gumbaz darchalarning pastidagi sirxor parchinli belbog'da yozuvlar bo'lgan qazishmalar vaqtida topilgan sirxor parchin bo'laklari hozir Buxoro muzeyida saqlanmokda. XIII Asrga borib minora etagida bir butun arxitektura ansambli bunyodga keldi.

Mir Arab madrasasi (1530-1536) Masjidi kalonning yuzma yuziga tushgan. U Shayx Abdullo Yamanin (lakabi Mir Arab) zamonida Buxoro xukmdori Ubaydulloxon in'om qilgan mablag' xisobiga qurilgan Mir Arab madrasasining arxitekturasi Masjidi Kalon arxitekturasidan ancha fark kiladi.

O'rta Osiyo diniy maktablarning kurilishdagi an'anaviy sxema va kompozitsion xajm Mir Arab madrasasida o'z ifodasini topgan.

Madrasasining asosiy fasadi simmetrik ishlangan, ya'ni markazda yarim sakkiz kirrali ravokdan iborat baland peshtoq bo'lib, uning ichkarisida katta darvoza peshtoqning ikki enida esa ikki qavatli qator xujralar bor. Madrasaning burchaklari bakuvvat burjlar "Guldasta qilib ishlangan. Madrasa katta xonalarning ichi jumladan maqbara ham o'ziga xos ishlangan. Gurxona shifi va devorlari rang barang koshinlar va o'ymakor ganch bilan bezatilgan. Yuqoridagi darchalardan tushadigan chiroq yorug'ligida mukarnas va iroqi bezaklar jilvalanib yanada go'zallik kasb etadi. Tarixiy yodgorliklaridan biri Chorminor me'moriy yodgorligidir.

Musavvir avlodlarimizdan tarixiy yodgorlik bo'lib qolgan me'morlik obidasining go'zalligini undagi naqshlar xilma xilligi bezaklarning rang barangligini ko'rgan ko'zni qamashtiradi. Tangalarni toblashda ancha yutuqlarga erishilgan. Masalan Minor gumbazining rangi ko'k, oq firuza ranglar uyg'unligida ishlangan.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, buxoro xalq me'morlari ishlagan badiiy bezaklar yog'och va gul changda o'yib ishlangan. Naqshlar go'zal bo'lishiga qaramay ayrim joylarda milliy rang qisman saqlanib qolganligiga qaramay yangi va eski saroylarning qiyofasi me'morchilikning inqirozga yuz tutilishini ko'rsatib turibdi.

3.2 Tasvirlashda ijodiy jarayon mohiyati va uning asisii bosqichlari

Ko'pincha rassomlar «kompozistiya» tushunchasini «ijodiy jarayon tushunchasi» bilan aralashtirib yuboradilar. Qaysiki, u asar yaratilishini boshidan boshlab oxirigacha, barcha tayyorlov bosqichlaridan tortib yakunlovchi bosqichigacha o'z ichiga oladi. Bu ikki tushunchani bir deb o'ylash to'liq tabiiy va to'g'ridir, sababi «kompozistiya» ustida ishlash ijodiy jarayonning o'zidir.

Shu sababli, kompozistiyaning toza nazariy masalalari, asosiy va universal kompozistiya qonuniyatlari haqida gapirishdan avval, san'atdagi ijodiy jarayon to'g'risida ma'lum bmr tushunchalarga ega bo'lish zarur, ya'ni ijodning mohiyati va asosiy bosqichlarini bilish zarur bo'ladi.

Ijod - bu ongning oliy darajasi, faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo'lib, u insonga hosdir. Ijod insonning barcha psixik jarayonlarni, barcha bilim, malaka, barcha hayotiy tajriba, ahloqiy, jismoniy kuchini mobilizastiyasi natijasida original va tarixiy-ijtimoiy, betakror sifat yangiliklari bo'lib tug'iluvchi mo''jizadir. San'atda, shu jumladan tasviriy san'atda ham ijodning natijasi badiiy asar yaratishdan iborat bo'ladi. Ya'ni, ob'ektiv borliqni maxsus shakldagi xususiyatlarini badiiy obrazlar tarzida aks ettirishdir. Xaqiqiy san'at asari - o'zida badiiy obraz shaklida hali bungacha bo'lmagan yangilikni yaratilishi hisoblanadi.

Badiiy ijod esa ijodiy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bunda rassom g'oyaviy-badiiy mazmunni jam etgan holda tugal badiiy asar yaratadi. Ijod va ijodiy jarayonlar xuddi fandagidek san'atda ham o'zining murakkab ko'rinishlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, xar qanday ijodiy jarayondagidek umumiy, ob'ektiv qonuniyatlarga egadir.

Shunday bo'lsada, ijodiy ish usuli va yo'llarini umumlashtirish va tavsiflashtirish mumkin.

Badiiy ijodning mohiyatini ochib berish, xususan, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlarga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar ilgari surilgan, ular

«ijodning kuchi», «ijodning komponentlari» va boshqalar bo'lib, u G.L.Ermash tomonidan o'tkazilgan «San'atning ijodiy tabiati» tadqiqotida berilgan.

Badiiy ijodning kuchi va komponentlari G.L.Ermashning fikricha gnoseologik ma'noda bir emas. Ijodning kuchi bu shaxsning sub'ektiv, ruhiy va amaliy qobiliyati, badiiy ijod jarayonining «mexanizmi» hisoblanadi, ijod komponenti esa bu rassom ruhiy olamining mazmunli elementlari, ya'ni, ijodning «qurilish material» hisoblanadi.

Ijodning kuchi G.L.Ermashning bayonicha «Ruhiy va amaliy qobiliyatlar» (mehnat, hohish, ilhom, hissiyot, hotira, tafakkur, sezgirlik, hayol, badiiy talant) insonning ruhiy hayotini psixik jarayonlari shaklida; (hohish, sezgi, erk); bilish jarayonlari (shaxs psixologiyasi, faoliyat, e'tibor) va insonning individual-psixik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat) psixik hayotini namoyon etadi. Shuningdek bilish jarayonlari – (idrok, hotira, tasavvur, hayol, sezgi, tafakkur va nutq) kabilar yordamida ham amalga oshib boradi.

Qobiliyatlar - deb shaxsning faoliyatini konkret turining yuqori darajada bajarishning sharti bo'lgan psixik va sifat xususiyatlari tushuniladi. Qobiliyatlar shaxsning individual-psixik xususiyatlariga kiritiladi. Qobiliyatlar umumiy u yoki bu darajada faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'luvchi insonning maxsus faoliyatining alohida turlarida namoyon bo'luvchi (badiiy, musiqaviy, matematik, texnikaviy, muomilaviy) turlariga ajratiladi.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma, malakalar bilan bir bo'lmasligi mumkin, u faoliyatning tezda, chuqur va mustahkam egallashning usul va metodlarini o'zlashtirib olishda namoyon bo'ladi.

Talant - qobiliyatning oliy rivojlanganlik darajasi hisoblanadi.

Badiiy ijodning tarkibiy qismlari xaqida fikr yuritamiz.

Mehnat – insonning asosiy faoliyat turlaridan biri xisoblanadi. Bu faoliyat tufayli inson moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi. Ijod esa, mehnatning turi, uning maxsus va oliy shakli hisoblanadi.

Ijod shunday mehnatki, u ma'naviy boyliklar yaratishga qaratiladi. Ijodiy mehnat hajmi bo'yicha katta, xarakteri jihatidan rangbarangdir. Mehnat natijasida san'at asari yaratiladi. Rassom mehnati turli-tumandir. Ular adabiyotlar o'qish, muassasalarga borish, jamoalarga borish, tabiatni kuzatish, qoralama va xomaki rasm, etyudlar bajarish, ko'rilganlar haqida fikrlash, kompozistiya eskizlari ustida ishlash va xokazolar.

Rassom ijodiy mehnatini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, turli hil kuzatishlar va hayotni o'rganish, bilim, did va dunyoqarashning o'sishi, mahorat, ko'nikma, malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – bu asar yaratish bilan bog'liq bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatli bo'lib, bu g'oyaning xarakteri, rassomning individual xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Rassomning keng ko'lamdagi mehnati, ijodiy jarayonining murakkabligi - bular barchasi san'atda professionallik majburiyatini yuklaydi, tasviriy san'atda yanada alohida maxsus holatlari talab etiladi.

Mehnat ijodning ichida boshqa faoliyatlar qatori (ancha yashirin, «ichki» sezgi, hotira, tafakkur va boshq.) faoliyat bo'lsada, unda ijodning natijalari yaqqol ko'rinadi.

Hissiyot – ijod kuchlari orasida alohida o'rinni egallaydi, bu reproduktiv kuchi deb aytiladi, qaysiki uning yordami bilan inson tashqi olam bilan aloqada bo'ladi va o'zining aql-idroki bilan aks ettiradi.

Hissiyot idrok, sezgi, hotira asosida, shuningdek tafakkur va boshqalar bilan insonga hayotdan olgan taassurotlar zapasiga ega bo'lishni taqozo etadiva bu sohada turli faoliyatlarni amalga oshiradi, jumladan, mehnatning eng oliy darajasi hisoblangan ijod bilan ham.

Shunday qilib, mehnatning oliy shakli ijoddir. Har bir inson dunyoni idrok qiladi, tasavvur qiladi, yaqqolroq his etib boradi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar olib, eshitib, o'qib hotirada ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi. Bular asar yaratishda juda ham zarur, qaysiki, hotirada faqat o'z mazmunida borliqqa estetik, hissiy munosabat aks etib turuvchi voqealar aks etadi.

Emotional to'liqlanish – ijodning kuchlardan biri sifatida rassom uchun juda zarur hisobladi. U shuning uchun zarurki, ular orqali hayotdan ancha yorqin taassurot olishnigina emas, balki rassom o'zida bu to'liqlanishni o'tkazadi.

Shunday qilib hissiyot reproduktiv ijod kuchi sifatida olamni aks ettiruvchi, ayni bir vaqtda hayotda yangilik yaratishga yordam beruvchi sifatida san'atga individual munosabat paydo qiladi va borliqning obrazini shoironalastiradi.

Hotira – xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni – odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan bog'lamasdan hotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idroq etib bo'lmaydi. Xotira badiiylikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o'tolmay qoladi, xususan u o'sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o'tgan, ko'rganlarini, anglaganlarini va taassurot materiallarini taxliliga ko'ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo'ladi. O'tmish tajriba faqat hotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin.

Rassomning hotirasi etarli taassurotlar zahirasiga ega bo'lgandagina u naturasiz ishlay oladi. Tasviriy ijod hotiraviy obrazlarsiz bemaqsad va befoydadir.

Naturadan ishlashda olingan tasavvurlari yig'indisi va ko'rish taassurotlari (to'liq obrazli) asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Rassom chizishni, yozishni, yasashni va xokazolarni tasavvur va hotira asosida bajarishi, u naturadan qanday ishlasa, «o'zidan» ham shunday ishlay olishi shart. Hotira boy bo'lmog'i uchun rassom uni doimo rivojlantirmog'i, mashq etib bormog'i zarurdir.

Juda ko'p mashq qilgan va o'zining ko'rish hotirasini rivojlantirgan buyuk rus rassomi V.A.Serov kichik yoshidanoq surat chizishni boshlaganda hotiradan chizishni yoqtirardi. Undan buni ustoz (keyinroq) I.E.Repin ham talab qilgan edi. I.K.Ayvazovskiy esa hayron qolarli darajada ko'rish hotirasini egallagan edi. Rus

rassomlari – manzarachilari F.A.Vasilev, I.I.Levitanlarning ko'rish hotiralari rivojlanganligini izoxlashga xojat yo'q.

Iroda – ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsada, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq. Irodasizlik ma'naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so'ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va xatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi xaqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o'zida shaxsning ongli ravishda o'z xarakterlarini boshqaradigan psixik jarayon bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi ko'nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo'ladi. Iroda maqsadga etish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga hosdir. Iroda oddiy va murakkab xarakterlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy xarakterlar avvalo, anglash va masalani qo'yish, masalani qo'yish va rejalashtirish, rejalashtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi: xarakterchanlik, mustaqillik, keskirlik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik va o'z-o'zini boshqara olish. Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar – hayol, sezgi, hotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi.

Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana rassomning shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi.

Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, taxlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o'ynaydi. Xotira vositasida, ya'ni, badiiy asar yaratish maqsadida, tafakkur ishtirokida borliqni chuqur va har tomonlama bilishning oliy jarayoni hisoblanadi, predmet va voqealarning belgilari va o'zaro bir biriga qonuniy bog'langanligi bilan, umumiy va ichki xususiyatlarini ochishga yo'naltirilgan holda namoyon bo'ladi.

Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalaridagi kabi, tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

San'at asari faqat tasviriy materialni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy-estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi.

Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, u ijodiy hayol bilan birga xarakatlanadi va san'at spetifikasi hususiyatlari bilan bog'liq ravishda ishlaydi.

Hayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixtiyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy hayol kabi turlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy hayol katta o'rin tutadi.

Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruxiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihatdan rassom uchun bu vaziyat juda engil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez echilgan bo'ladi. Bu engillik shu narsa bilan bog'liq bdiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zaxirasiga ega edi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan edi. Bunda uning ijodiy hayoli va obrazli tafakkuri faol ishlagan edi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltirgan edi.

Intuistiya – sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida – ya'ni ijodiy mexnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga so'zsiz intuistiya hotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo'ladi.

Intuistiya ob'ektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo'lsada, uni rivojlantirish yo'llari ham bordir. Ulardan asosiysi - organizmning biologik sifatlarini tarbiyalashdir (rassomning ko'zi, qo'shiqchining ovozi, musiqachining qulog'i va barmoqlari, raqqosaning qomati) kuzatuvchilikni o'stirish, hotiraning xajmi va ishchanligini ko'tarish, tafakkurni rivojlantirish (jumladan, obrazlilikni), hayol, hissiyotni

tushunish, birmaromlilik, uzluksiz mehnat va yangi echimlarni har tomonlama izlash kabilardir.

Badiiy talant - shaxsni individual-psixologik xususiyatlaridan biri bo'lib, u asosan badiiy ijodda eng katta kuch sifatida faol ishtirok etadi. Talant tug'ma emas u tug'lganda tayyor xolda berilmaydi, avloddan-avlodga o'tadigan meros ham emas.

«Inson shunday asos bilan tug'iladiki (rivojlantirish mumkin bo'lgan qobiliyatlarning tabiiy belgilari), qaysiki insonning o'zida tug'ma anatomik va psixofiziologik o'ziga xosliklar bilan mavjud bo'ladi».

Qobiliyatlar ma'lum shart-sharoitlardagina shakllanadi o'sadi: ular - atrof muhit, aktiv faoliyat, odam salomatligi kabilardir.

Badiiy talant albatta san'atga mehr-muhabbatni talab etadi, ya'ni ba'zi sharoitlarda bolalikdayoq san'atga qiziqish shaklida ko'rinadi va ijod qilish ishtiyoqi tinchlik bermaydi. Bunga misol tariqasida I.E.Repin, V.I.Surikov, V.A.Serov va boshqalarning ancha barvaqt yuzaga chiqqan talantlarini eslashimiz mumkin.

Insonning badiiy iqtidorining eng yuksak jarajali sifati bu geniallikdir. Badiiy ijodda geniallik tushunchasi talantning izoxsiz yuqori darajada namoyon bo'luvchi sifati bo'lib, qaysiki u rassomni o'z zamonasi, ma'lum tarixiy davr san'atidan yuqori turuvchi va dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlari yaratishga olib keladi.

Ijod komponentlariga - bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, mahorat kiritiladi.

Bilim ijodning asosiy bosh komponenti, ob'ektiv reallikni bilishning asosiy materiali hisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik his qilish, idrok, tafakkur, hotira, hayol, Dunyo-qarash, ko'nikma, malaka, ijodiy ish uslubi, mahorat rivojlanib boradi. Rassom uchun bilim - bu hayotiy material, hayotni chuqur va har tomonlama o'rganish bo'lib, usiz san'at asari yaratib bo'lmaydi. Hayotni bilish rassomda uning hissiyotlari orqali o'tadi. Avvalo mantiqiy va xissiy bilishning organik mos kelish bilan o'rganmasdan turib obrazli tafakkurni rivojlantirib bo'lmaydi, usiz esa, o'z navbatida badiiy obrazlarni ham yaratib bo'lmaydi.

Rassom har tomonlama hayotni yaxshi bilgan, bilimli, ziyoli inson bo'lmog'i lozim. Undan tashqari, u bilimini o'zining hissiyotlari orqali o'tkazishi va umumlashgan shaklda badiiy obraz shaklida aks ettirmog'i lozim.

Dunyoqarash - ob'ektiv borliqni badiiy xarakterda faoliyatning g'oyaviy yo'nalishga mos xolda aniqlashdan iboratdir. Dunyo-qarash fanlardan olingan bilimlar asosiga suyanadi.

Badiiy uslub ham ijodning alohida komponenti sifatida aks etadi.

Estetik va badiiy did - ham dunyoqarash, ham badiiy uslub bo'lib, rassomning ma'lum alohida g'oyaviy estetik ijodiy yo'nalishini ko'rsatadi.

Estetik va badiiy did insonga tug'ilganda berilmaydi, xuddi qobiliyatga o'xshash, u insonning o'sishi bilan rivojlanib boradi, insonning sezgi organlarini, psixikasini hayotni bilishdagi tajribasi bilan rivojlanib boradi. Estetik did tushunchasi san'atga bo'lgan munosabatdagi badiiy didga nisbatan **kengroqdir**.

Mahorat - ijodning etib bo'lmas va o'zgacha bir komponentlaridan biridir. Ba'zan mahoratni qobiliyat, ijod va talant bilan tenglashtiriladi. Bu to'g'ri emas. Shubhasiz, vaholangki tasviriy san'atning zaruriy sharoitida namoyon bo'luvchi shaxsning badiiy qobiliyatlari, individual ruxiy xususiyati va sifatlaridir.

Talant - qobiliyatning tasviriy faoliyatga munosabatlarda alohida ko'zga tashlanadi, qaysiki, ta'lim va tarbiya jarayonida olingan yuqori rivojlangan va badiiy ijodning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan holatidir.

Mahorat esa tasviriy faoliyatda tasviriy texnika, bilim, ko'nikma, malakani mukammal egallamoqdir.

Yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarsiz talantning rivoji bo'lishi mumkin emas.

3.3 Kompozitsiyani bajarishda moy bo'yoq texnologiyasi

Kompozitsiyani moy bo'yoqda tasvirlash jarayonini bajarishga kirishishdan oldin uning ishlash texnika va texnologiyasini, gruntlash, podramnik yasash, ranglar xususiyatini o'rganish kerak bo'ladi. Moy bo'yoqda ishni bajarish uchun kerak bo'ladigan materiallar va ishlash texnikasi bilan tanishib chikamiz.

Tanlangan kompozitsiyani moy buyokda ishlash asosida xolst, karton, fanera kabi materiallar kerak bo'ladi. Tasvir yuqoridagi materiallarga ishlanadi. Ushbu tasvirlar chizishdan oldin Yuqoridagi materiallar maxsus grunt bilan koplanadi. Grunt asos bilan rang urtasidagi aloqa vositasini bajaradi. Bir tomonda u bo'lsa xolstga rangni erkin qo'yish mumkin, ikkinchi tomondan u rangni toyib ketishga yo'l qo'ymaydi.

Xolst bu maxsus mato bo'lib moy rang tasviriga mo'ljallangan. Xolst o'zi tayyor gruntlangan bo'ladi. Lekin ko'pgina rassomlar grunt ustidan yana bir bor yelimli grunt ustidan yana bir bor yelimli grunt surkashni ma'qul ko'radilar.

Podramnik qurigan yog'ochdan tayyorlanadi va unga xolst tortiladi. Xolst tortishda aloxida e'tiborni karatish kerak. Chunki u salg'i bo'lib qolmasligi kerak. Xolst tortilgandan so'ng jelatin yoki baliq yelimi bilan prokleyka qilinadi.

Moy bo'yoqda ishlash uchun uni erishishda razbavitel' ishlatiladi. Suyultirgich dommar, mastichniy lak hoida hamda zig'ir yog'i spipidar ham bo'lishi mumkin.

Moy bo'yoqda ishlash texnikasini egallash uchun eng avvalo kerakli materiallarni bilish zarur.

Moy bo'yoq rang tasviri uchun qalin mato ishlatiladi. Bu uchun mato oldin yuvilmagan bo'lishi kerak.

Ko'p hollarda talabalar ishlatilgan xolstni bo'yab yana ishlatadilar. Biroq bu xolstni ramkaga tortish qiyin. Mato tanlaganda u to'qilgandan so'ng donadorlik hosil qilishi bo'yoqni qalin qilib surtganda ham saqlaydi. Agar ish bir metrgacha bo'lsa mayda donador xolstlardan undan katta bo'lsa esa katta donador xolstlardan foydalanish tavsiya yetiladi. Matoni tortish uchun maxsus podramniklar kerak bo'ladi.

Agar ramka bir metr bo'lsa albatta o'rtasidan ko'shimcha reyka berish kerak. Reykalar bir biriga qulf kalit hamda kiritiladi.

Xolst podramnikdan ham uzunligi ham enidan 2,3 sm katta bo'lishi lozim. Xolstni tortishda eng avvalo o'rtalaridan engil mixlanadi so'ng o'rtadan boshlab burchakka qarab ketiladi. Yuvilmagan matoni ramkaga juda qattiq tortish tavsiya etilmaydi, buning sababi yuza gruppalanganda nam ta'sirida qattiq tortiladi va uzilish bo'lishi mumkin.

Xolstni gruppalash. Xolstni gruntlash bir necha qatlamda bajariladi. Eng avvalo u prokleyka qilinadi, ya'ni yuza texnik jelatin issiq suvda yaxshi eriydi. Baliq yelimi tayyorlash uchun bir sutka davomida suvda saqlanadi. So'ng suv qo'shilgan holda isitishadi. Bu uchun ikkita katta kichik kastyul ichiga yelim solinadi. Kichik kastyul ichiga yelim katta kastyulga suv solib joylashtiriladi katta idishdagi suv yelimini quyishdan saqladi va yelimni qaynatish darajasiga olib bormaslik kerak.

Proleyka uchun tiniq tUSDagi duradgorlik yelimi ishlatiladi. Kazeynli grup tayyorlash uchun yog'siz suzmani olib unga suv va noshatir spioti qo'shiladi.

Xosil bo'lgan massa suvi sirtqitilib qurilidadi. Agar kerak bo'lsa unga suv kushib erilishi mumkin. Bunda ham xolst yupka katlamda koplanadi. Ezaga katta mo'ykalam bilan bir tekisda eritma surtiladi. yelim eritmasi suritilgandan so'ng yuzaga bir necha marta yupqa qatlamda gruppalanadi.

Gruntlar yog'li, yelimli va emul'siyali bo'ladi. Yog'li grunt bu oq moy bo'yoq bo'lib xisoblanadi. Gruntlangan yuza yaxshi ko'rilishi zarur. Aks xolda chizilgan tasvirdagi bo'yoqlar to'kilib ketishi mumkin. Emul'siyali grunt bu bo'r va yelim aralashmasidir. Bunda emul'siya tayyorlash uchun zigir yogi, yelim va ruxli oq rang poroshogi yoki bo'r qo'shiladi. yelimli grunt bu bo'r yoki oq rang poroshogi erishilgan yelimga aralashtiriladi. Bunda ham yuzaga aralashma bir necha marta yupqa qilib surtiladi. Gruntlashdan ko'zlangan maqsad katta o'lchamdagi xolstda chizilgan rasmlanni bir joydan ikkinchisiga ko'chirganda uni ramkadan yechib olinadi va rulon tarzida o'raladi. Yengil yelim surilishi va egli grunt kartinani uzoq saqlashnishiga imkon yaratadi. Oldingi davr musavvirlari rang tasvir boshlashdan

oldin yuzani bir marta yengil yelim aralashmasi surtganlar ba'zilari esa sarimsoq eki piyozni gruntlangan yuzasiga surtib chiqqanlar bu esa xolstga rangni yaxshi yuritishga yordam beradi. Bo'yoqlarni eritish uchun oldingi davr rassomlari zig'ir va engik yog'larini ishlatganlar, Yuzaga esa ko'p xollarda lak surtganlar bu ishga yaltiroqlik bag'ishlagan va chaplardan saqlagan. Moy bo'yoqda ishlash uchun kattik junli mo'yqalamlar ishlatiladi. Keng yuzalarini ishlash uchun katta mo'yqalamlar, detallarni ishlash uchun 2-7 o'lchamdagi mo'yqalamlar ishlatiladi. Mo'yqalamlar ishlatilib bo'lingandan so'ng sovunli iliq suvda yuviladi va uch qismga qog'oz o'ralib, bankaga solib ko'yiladi. Metall kurakcha bilan palitrada qotgan bo'yoqlar tozalanadi, mato yuzasiga xato quyilgan bo'yoqlar olinadi hamda tasvirlanni to'lik ishlash ham mumkin.

3.4 Buxoro tarixiy obidalari kompozitsiyasini bajarish bosqichlari

“Buxoro tarixiy obidalari” mavzusida rasm ishlash uchun avvalo uning tarixini qanday qurilganligi haqida tasavurga ega bo'lish lozim.

Ma'lumki Buxoro boy tarix madaniyatga ega bo'gan. Buxoro hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari buning yaqqol misolidir. Varaxsha – Buxoro shahridan 40 kilometr g'arbda joylashgan qal'a xarobasi hozirda bu joy cho'lga aylangan. Arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki bu erda miloddan 1000 yil oldin odamlar bu joyda yashagan va ularda tasviriy san'at yaxshi rivoj topgan. “Buxoro tarixiy obidalari” mavzusida ishlash jarayonida biz obidalar majmuini misol sifatida chizishga qaror qildik. Bu tarixiy obidalar o'ziga xos manzarani yaratadi va o'sha tarix zarvaraqlari xotirasiga qolgan ota bobolarimizning mashaqatli mehnati ko'z o'ngimizda qaytib jonlanganday bo'ladi.

Rasm chizish jarayonida qalam orqali bir qator murakkab vazifalarni bajarishag to'g'ri keladi. Qog'oz tekisligida hajmiy shakllarini tasvirlash uchun tasvirlovchi uning atrof muhitdagi holatini, hajmini soya yo'rug' orqali ifodalash zarurligi hamda umulashtirishi qolaversa tipik tomonlarini ajratishi shu kabi vazifalarni yechishi kerak. Yuqoridagi faktorlar ishning badiiy tasirchanligini

taminlashini unutmaslik lozim. Demak rasm chizishda ma'lum bir ketma-ketlik saqlanmasa mazkur vazifalar yechimi rassom uchun ancha murakkab hisoblanadi.

Tasviriy san'at o'qitish uslubiyoti zamonaviy pedagogika fani yutuqlariga asoslangan. Mazkur fanning dedaktik asoslaridan barcha o'quv vazifalari ma'lum bir ketma-ketlik bilan yechilishidir. Shunday qilib rasm bajarish jarayoni o'zini boshlanishi, davomi va yakuniga ega. Boshqacha qilib aytganda, narsaning o'ziga qarab rasm chizishning bosqichlari mavjud. Bular quyidagilar: rasm chizish jarayoni joy tanlashdan boshlanadi. Tanlangan joy, ya'ni ko'rish nuqtasi qo'yilgan, yoki ko'rinayotgan nuqtaning ko'rinayotgan shaklini, hajmini to'la namoyish etishi kerak.

Ko'rish nuqtasi to'g'ri tanlanganligi naturani ancha hajmli aniq, ifodalanishini ta'minlaydi. Ishning birinchi bosqichida chizilayotgan narsani qog'oz tekisligiga kompozitsiya nuqtai nazaridan to'g'ri joylashtirishi kerak.

Rasm qog'oziga nisbattan juda katta yoki juda kichik, o'ng yoki chap tomonga surilgan bo'lmasligi kerak. Joylashtirish tajribasiga ega bo'lmagan talabalar o'rganish jarayonida (vida iskatel) dan foydalansalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Rasmning kompozitsiyasini tuzganda yorug'lik tushushini, binoni soya yorug'ligini ketma-ketlik bilan ufq chiziqqa nisbattan qanday joylashganligini hisobga olinadi.

Tajribasiz musavvir tipik xatosiz chizish uchun ko'rinayotgan ko'chani har bir jihatini alohida jizmoqchi bo'ladi. Tabiiyki, rasm qog'ozga sig'may qoladi. Shuning uchun yengil chiziqlar bilan rasmning umumiy ko'rinishi qog'oz tekisligida belgilanadi, umumiy eni, balandligi, uzoq yaqinligi so'ng ko'chani tasvirlayotganda mavjud narsaning bir bironiga nisbattan o'lcham munosabati aniqlanadi. Albatta ufq chiziqi sedon chiqmasligi kerak.

Buxoro tarixiy obidalarini tasvirlashda qog'oz tekisligida umumiy chegaralari aniqlab qo'yilsa, rassom shu bilan o'ziga aniq kompozitsion vazifa qo'ygan bo'ladi. Shu bosqichdan boshlab kompozitsiya ichida joylashgan va ko'rinayotgan devor, ko'cha daraxt va shu kabi bir biriga bo'gan nisbatlarni topgan holda chizish boshlanadi. Bajarilgan rasm aniq, ifodalangan bo'lishi uchun rasm chiziqlariga katta e'tibor berilishi kerak.

Darhaqiqat, grafikada chiziqning roli katta. Nafis chiziq, rassomga ko'p plastic va fazoviy vazifalar yechimi ta'minlaydi.

XULOSA

Mamlakatimizda soglom muhitni shakllantirish va oila, o'quv muassasalarida yuksak ma'naviy, axloqiy muxitni qaror toptirish, mamlakat va yurt obodonligi uchun jonini fido kiladigani avlodni etishtirish bizning ma'suliyatimizga kiradi. Xayot saboqlaridan tajriba ortirish, Vatanni muqaddasligini shuningdek vatanimizda yaratilgan va bunyod qilingan barcha nodir buyum ashyolarini asrab avaylashga yo'naltirilgan tarbiya shakliniishga solish muhimligini his etmoq zarur.

Ta'lim - tarbiya nazariyasi tajribasidan shu narsa ma'lumki, umumiy ta'limning asosiy bosqichi boshlang'ich sinflar (I-IV sinflarda) davri bo'lib, bu davrda bola asosan shakllanadi. Chunki, bu davrda bola ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy jihatdan g'oyat tez rivojlanadi. Bu davrda bolalar barcha bilimlar zaminini o'zida mujassam qiladi va barcha fanlardan boshlang'ich ma'lumot oladi. Bolalar bu davrda moddiy olamni ko'rishni, kuzatishni, ulardan olgan taasurotlarni tekshirishni o'rganadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, rangtasvir va rang texnologiyalarini o'zlashtirishda biz avvalo kuzatuvchan va rangni his qila oladigan darajaga erishish uchun xarakat qilishimiz zarur bo'ladi. Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim ro'l o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu xolatni quyidagi jonli misol bilan izoxlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z xolicha aloxida-aloxida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa manosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa, yoqimli bo'lib eshitiladi. Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlar yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirda ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan

misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q - ochligi mavjud.

Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir ob'ektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir obektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljalidagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi. Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadiligiga bog'liq, muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham rangga juda etiborli munosabatda bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, mahorat egalari mo'yqalam soxiblaridan M.Nabiev, R.Axmedov, R.Choriev, B.Burmakin, B.Boboiev, J.Umarbekov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, A.Qozoqov. va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko'plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi. Umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarni estetik jihatdan tarbiyasini yuksaltirish muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Respublikamiz prezidenti tomonidan qabul qilinib, xalq ommasi muhokamasiga taklif etilgan qator qarorlar, farmonlar, amaliy san'atni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim va tarbiyani

zamona talabiga mosligini ta'minlash kabilarning barchasi yoshlarni turli tarbiya vosita shakllari komil inson darajasiga yetaklovchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarga amal qilgan tarzda men ham tariximizni puxta bilishimiz zarurligini anglab, mavzuga taalluqli dolzarb muammoni tariximizga bog'lab hal etishni nazarda tutdim. Qolaversa, tarix o'z-o'zidan yaratilmagani kabi, ota-bobolarimiz yaratgan meros anchagina mehnat evaziga yuzaga kelganligini his etdim. Ayniqsa, yuksak tarixiy mavqega ega bo'lgan ulkan inshootlar ularning naqshu-nigorlari bobolar yashagan tarixiy jarayondan, turmush tarzidan hikoya qiladi. Shunday ekan ularning qo'l mehnati, aql-idroki evaziga yaratilganligini inobatga olib, yoshlarni ta'lim va tarbiya jarayonida eng yaxshi sifatlarini singdirish bilan tarbiyalash usullarini singdirishni nazarda tutamiz. Aynan shu kabi sifatlar tarixiy shaharni, yurtni, elni sevishga chorlaydi. Darvoqe, barchaning e'tirofiga sazovor bo'lgan juda ko'p niyatlar bilan ulkan tarixga va madaniyatga ega bo'lgan xalqimizni eng yaxshi taqdirga munosib ekanligini xis etamiz va bobolar orzularini amalga oshishi uchun bilim berish borasida kuchimizni sarflaymiz.

Shu bois ham men himoyaga tavsiya qilayotgan mavzu ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan aynan Vatanni sevish, yurtni ardoqlash kabi xususiyatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shular yuzasidan "Buxoro Sharq durdonasi" mavzusida malakaviy ishni bajarishga harakat qildim. Har bir bajargan ishimda kichik-katta qoramalar, ranglavhalar faqat yurak qo'ri bilan bajarishga e'tibor qaratdim.

Kelgusida bu ishni maktabda sinfdan tashqari ishlarda va kecha yoki tadbirlar o'tkazishda qo'llashni nazarda tutdim.

Mening nazarimda bitiruv malakaviy ish orqali o'quvchilarda ona shahrimga bo'lgan mehr va muhabbatni uyg'ota olaman degan umiddaman. Ularni Ona yurtni sevishga va ota-bobolarimiz qo'li bilan yaratilgan ulkan merosni asrab-avaylashga chorlayman.



Tasviriy san'atda ishlatiladigan atamalar va iboralarining izohli lug'ati

Akvarel	-(fransuzcha -aquarelle, lotincha - aqua- suv, suvda tez eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo'yoq.
Aktiv ranglar	-ruhni tetiklashtiruvchi iliq ranglar.
Alaya-prima	-birlamchi tasvir. Bir nafasda, qisqa vaqt ichida yaratish usuli, yo'li. Ko'pincha etyud ishlashda va xomaki nusxa va tasvirlar ishlashda qo'llaniladi.
Animal-janr	-hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.
Anor- rang	-rang turi, anor guli rangi.
Asosiy ranglar	-tabiatda mavjud sariq, qizil va havo rang.
Axzar	-yashil rang, zumrad rang, Xizr so'zining o'zi ham arabcha bo'lib, «yashil», «yashil bo'lish» ma'nolarini anglatadi. Yashil rang sufiylik ta'limotida ulug' ranglardan biri hisoblanadi. Sharq xalqlarining tasavvurida bu rang hayot ramzidir.U samoviy mavjudotlar bilan bog'liq hisoblanadi.
Axromatik rang	-grekcha tussiz (rangsiz) demakdir. Ular oq va qora hamda ularning turlicha ko'rinishi bo'lib, bir-birlaridan yorug'lik kuchlari bilan farq qiladi.
Badiiy	-borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarni o'zaro o'xshatish, shakllantirish va ranggorang tasvirlash.
Badiiy uslub	-san'atda qo'llaniladigan uslub.
Binafsha	-spektr rangi, binafsha rangiga yaqin.
Blik	-narsalarning eng yaltiroq, shaffof joyi.
Bo'yoqlar	-bo'yash, rang berish, tasvirlash uchun ishlatiladigan moda.Moyli, sirli, nafis va boshqa turlari bor. Bo'yoqlar o'ziga xos xususiyatlari, rangi va ishlash uslubi bilan farqlanadi.
Valyor	-rang tus, rang ohangi degan ma'noni bildiradi.
Van Deyk	-jigarrang.Uni ixtiro etgan XYII mashhur golland rassomi Van Deyk nomiga mansub bo'lib, odatda uni jigarrang deb atamasdan Van Deyk deb ham yuritiladi.
Vatman	-rassomlik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliy nav qog'oz.
Gamma	-oralarida muayyan munosabat bo'lgan ranglar sirasi, ranglarning shartli tizmasi.
Gemma	-bo'rtma tasvir, mehr, geometrik unsurlardan tashkil topgan naqsh.
Graver	-metall, tosh, yog'ochga o'yib rasm ishlaydigan yoki nusxa ko'chirish uchun mo'ljallangan tasvirni tayyorlovchi rassom.

Gruntovka	-tasvir zaminini tayyorlash.
Guash	-yelim va rang pigmenti hamda oq bo'yoq aralashtirib tayyorlanadigan, suvda eritiladigan bo'yoq. Rangtasvir badiiy bezash, naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi hamda grafikada keng ko'lamda ishlatiladi.
Gummigut	-1) Issiq mamlakatlardagi ba'zi daraxtlardan olinadigan va sariq bo'yoq uchun ishlatiladigan shira.
Dastgohli san'at	-2) Shu shiradan tayyorlangan bo'yoq.
Devoriy rangtasvir	-tasviriy san'atning bir turi. san'at asarlarini maxsus dastgohlarga o'rnatib qo'yish, ishlashdan kelib chiqqan.
Diorama	-ko'pincha devorlarga, katta o'lchovda ishlanadigan tasvirlar.
Yorug'lik kontrasti	-yoysimon yoki yoy shaklida ishlangan. Rangtasvir asari.
Yorug'lik nurlari	-o'ziga yonma-yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishi.
Yorug'lik shu'las	-ko'p aks etsa rang och tusda, kam aks etganda esa to'q tusda idrok qilinadi.
Jaydarirang	-yorug'lik nurlarining buyum yuzasida jilvalanishi, shu'las.
Jigarrang	-tasvirlanayotgan narsa, buyumning umumiy rangi yoki yakrang deb ham yuritiladi.
Jilvador	-jigarning rangiga o'xshash ranglarga jigarrang deyiladi. Ba'zi turkiy xalqlarda qo'gg'ir deb ham ishlatiladi.
Zarg'aldoq	-rangdor. Ranglarning tasviriy va ifodali vositalaridan mahorat bilan foydalanish asosida erishiladi.
Zarhal	-spektr rangi, sariq va qizil ranglar uchun oraliq rang hisoblanib, ularning qorishmasidan hosil bo'lgan rang.
Zarrin	-tillasimon rang.
Za'faron	-sariq, tiniq sariq. Quyosh nuri ma'nosida ham ishlatiladi.
Zumrad	-rang turi. Sariq tivitlardan iborat bo'lib, sigaret tamakisini eslatadi.
Ijod	- yashil tusli qimmatbaho tosh: chiroyli tovlanishi, yaxshi jilvalanishi, shaffofligi bilan ajralib turadi. Akvarel bo'yog'i tarkibidagi (Izumr- Uno'y zeleno'y) zumradga zumrad rang deb aytiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. G.M. Abduraxmonov "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" 1996 yil Toshkent.
2. Egamov X. Buyoqlar bilan ishlash. Toshkent. O'qituvchi 1981 yil.
3. M. I. Zenskaya "Aleksandr Volokov Master granatovoy chayxani" Xudojnik 1975 yil.
4. V. Shoroxov "Osnovi kompozitsii" Moskva "Prosvesheniye" 1979 yil.
5. A. Egamberdiev "Stankovaya jivopis Uzbekistana" Gofur Gulom Toshkent 1989 yil.
6. A. R. Umarov "Abdulxaq Abdullaev" izd. Xudojnik 1971 yil.
7. M. Sokolova P. Benkov vospominaniyasi, perezpiski G. Gulyama Toshkent 1981 yil.
8. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, O'qituvchi, 1986 yil.
9. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, San'at, 2001 yil.
10. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1984 yil.
11. Azimova B.Z, Rajabov R, Abdurasilov S.G. Tasviriy san'atga oid atamalarning zoxli lugati. Toshkent 1994 yil.
12. Barsh I.O. Naroski i zarisovki. M., 1970 yil.
13. Boymetov B. Qalamtasvr o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. Toshkent 1995 yil.
14. Kuzin V.S. Nabroski i zarisovki. M., 1970 yil.
15. Kuzin V.S. Voprosi izobrazitel'nogo tvorchestva. M., 1971 yil.
16. Smirnov G. V. Izobrazitel'noye iskusstvo. M., Prosvesheniye, 1977 yil.
17. Terentev A. E. Izobrajenie jivotnix i ptis sredstvami risunka i voproso'. M., 1980 yil.
18. Shoroxov E.V. Osnovi kompozitsii. M., Prosvesheniye, 1976 yil.